

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

«PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA»
fanidan
Ma'ruza matn



Guliston -2015

Pedagogikani o'rganish zarurati. Ma'rifiy qadriyatlar va maqsadlar

1. Olam va dunyoqarash.
2. Pedagogika(ma'rifat)-kasbiy etuklikka etaklash omili sifatida.
3. O'zbek pedagogikasida ma'rifiy qadriyatlar
4. Ta'lim, tarbiya va shaxs kamoloti jarayonlarining o'zaro munosabati

Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quvvat bersa, ma'naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag'ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta'minlanishi bilan kifoyalanishi – ongsiz va ruhsiz maxluqlarga xos ma'naviyatga intilish esa ruh va ong egasi bo'lmish odamlarga xos fazilatdir.

Ma'naviyat – odamning ruhiy va aqliy olamining majmuidir. Tilimizda «ba'mani odam» degan ibora bor. Bu iboraga loyiq bo'lish ulkan baxtdir.

Ma'naviyat – jamiyatning, millatning va yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlantiruvchi tushuncha. Ma'naviyat boyib borsa, jamiyat ravnaq eta boradi.

Ma'rifat tabiat, jamiyat va odam haqidagi keng, turli-tuman bilimlar, ma'lumotlar majmuasi bo'lib, u kishilarda insonparvarlik ma'naviyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ma'rifat ma'naviyatga nisbatan ko'proq amaliy ishlar, jumladan, maktabgacha tarbiya, maktab, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlaridagi o'quv-o'kituv ishlarini uyushtirish va takomillashtirish bilan bog'liq.

Ma'naviyat esa ma'rifatga nisbatan keng qamrovli tushuncha bo'lib, o'z vazifalarini ma'rifatga suyanganda holda bajaradi, jamiyatning hamma sohalariga bevosita va bilvosita ta'sir etadi.

Ma'naviyat dunyoqarash negizidir. Kasb-kori, bilim darajasi, turmushdagi mavqeyidan aloqador bo'laveradilar. Ma'naviyat jamiyat, millat va shaxsning butun ongli hayoti va faoliyati davomida shakllanib, boyib, takomillashib boradi.

Yosh avlodni ma'naviy tarbiyalash avvalo oiladan boshlanadi. Oila mustahkam, tinch va farovon bo'lsagina, jamiyatda barqarorlik vujudga keladi.

Ulug' bobomiz Abu Nasr Farobiy: «Agar inson ezgulikka intilib yashasa, uning umri quvonchli va go'zal kechadi, go'zal hayot esa xalq nazarida ham, xudo nazarida ham yuksakdir», degan edi.

Biz yoshlarni ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashimiz ular ongida ijobiy o'zgarishlarga ma'naviy va ruhiy jihatdan katta kuch hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng ta'lim-tarbiyaning mazmuni va mohiyatida, usullari va shukllarida jiddiy «o'zgarishlar» ro'y beradi. Ta'lim-tarbiyada moddiy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish asosiy o'rinni egalladi. Tariximiz, madaniyatimiz, milliy urf-odatlariga e'tibor kuchaydi. Haqiqatan ham, bugungi kunda O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash va kelajakda istiqbol istiqbolini rivojlantirish, avvalo komil insonlarga bog'liq. Chunki bunday insonlar tufayli fan va madaniyat, sanoat va qishloq xo'jaligi rivojlanadi. Zero, axloqiy madaniyat vazifalaridan biri komil insonni voyaga yetkazish, uni tarbiyalashdan iborat.

Komil inson O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda o'z e'tiqodi, g'ayrat-shijoati, madaniyati, bilimi va ularni tatbiq etish mahorati bilan ajralib turadi. U jamiyatda, jamoada xalqlar va millatlar o'rtasida do'stlik, sog'lom turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan muhitni vujudga keltirishga intiladi.

Komil insonni shakllantirishda maktabda, oilada, sog'lom ma'naviy muhit barqaro bo'lishiga erishish muhim ahamiyatga ega. Chunki sog'lom muhit natijasidagini axloqiy fazilatlar tarkib topadi.

Ota-onalar o'z farzandlarini komil insonlar qilib tarbiyalashi, ularda Vatanga muhabbat, mehnati va fidoyiligi bilan o'zgalarga foyda keltirish, sadoqat, samimiylik kabi xislatlarni kamol toptirishga xizmat qiladi. Farzandlarimizning bunday insonlar bo'lishida oilaning totuvligi, ota-onaning o'zaro mehr-muhabbati ham samarali ta'sir ko'rsatadi.

Kishi o'z hayotida axloqiy kamolotga qanchalik ko'p intilsa, shunchalik o'z xato-kamchiliklarini anglab boradi.

Turon zaminimiz xalqlari axloqiy tarbiya sohasida boy an'analarga ega. Axloqqa oid dastlabki fikrlar «Avesto» kitobida, qadimgi bitiklarda va boshqa yozma manbalarda o'z ifodasini topgan. Bulardan tashqari, o'zbek xalqi o'rtasida keng tarqalgan pandnomalar, o'gitlar va odobnomalarda, xalq pedagogikasida, falsafiy risolalarda, allomalar merosida axloqiy masalalarga keng o'rin berilgan.

Hadisi shariflardagi axloqqa oid ibratli maslahatlar, hikoyatlar, asrlar davomida ajdodlarimiz hayotida tarkib topgan milliy urf-odatlar, an'analar Beruniy, Forobiy, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Navoiy, Bobur singari buyuk allomalar, olimlar, yozuvchilarning axloq haqidagi ko'plab fikr-mulohazalari bugungi kunda ham oilaviy hayot uchun, har bir inson uchun qadr-qimmatini yo'qotmagan muhim tarbiyaviy ahamiyatga molikdir. Jumladan, Amir Temur axloqi husniya – yaxshi xulqlar egasi bo'lgan. U oqil va tadbirli sarkarda sifatida odamlarni ishga tayinlashda ham, vazifasidan ozod etishda ham shoshma-shosharlik va adolatsizlikka yo'l qo'ymagan, balki yetti o'lchab bir kesgan.

A.Temur singari jahon ma'naviyati saltanatida o'z o'rinlariga ega bo'lgan buyuk bobokalonlarimizning axloq, go'zal xulq haqidagi fikrlari bugungi kun talabi bilan yozilgandek tuyuladi.

«O'g'illarim! Millatning ulug' martabasini, saodatini saqlamoq uchun sizlarga qoldirayotgan vasiyat va tuzuklarni yaxshi o'qing, aslo unutmang va tatbiq eting.

Millatning dardlariga darmon bo'lmok vazifangizdir. Zaiflarni qo'riqlang, yo'qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz bo'lsin. Men kabi uzun saltanat so'rmok istasangiz, qilichingizni yaxshi o'ylab chekingiz. Bir daf'a chekkandan so'ngra-da uni ustalik la qo'llangiz, orangizdan nifoq tuxumlari ekilmasligini uchun ko'p diqqat bo'ling. Ularga sodiq qolsangiz tosh boshingizga tushmas».

Amir Temurning bu vasiyatlaridan uning o'z xalqiga cheksiz sodiqligini, millatini ulug'laganini, kamtarin, adolat va ozodlik uchun kurashuvchan, axloqiy madaniyati yuksak inson bo'lganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, Ismoil Al Buxoriy «Axloqning yaxshi bo'lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik shart, dunyoviy ishlardan chetta qolgan bo'lsang ham zarari yo'qdir», - deb yozadi.

Urta Osiyo mutafakkirlarining axloq haqidagi fikrlari, o'gitlari shunday uchga egaki, ular o'quvchilar qalbida insoniylik urug'larining unib chiqishiga, katta hayot yo'liga olib chiqishga yordam qiladi, ma'naviy kuch-quvvat beradi. Xalqiga va qarindosh-urug'lariga qulidan kelgan barcha yaxshiliklarni qilish, ularning hurmatini joyiga qo'yish kabi insoniy fazilatlarni shakllantiradi. Bu esa iymonli, e'tiqodli, g'ururli, odobli shaxsni voyaga yetkazishning asosiy maqsadidir. Shu bois biz uchun qadrli bo'lgan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi ulug' mutafakkirlarning axloqiy qarashlari va qadriyatlaridan mustaqil O'zbekiston istiqbolini mustahkamlada, o'quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirishda, kundalik turmushimizda keng foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

Shuni aytish kerakki, xalqimiz axloq-odobni qadimdan ulug'lab kelgan. Chunki axloq-odob insonga husn, latofat bag'ishlagan. O'rta Osiyo mutafakkirlari o'z asarlarida axloqiy g'oyalarni doimo tarannum etib, xalqni oriflik, fozillik, komillik darajasiga ko'tarishga chorlaganlar. Bu borada Abu Nasr Farobiyning ijodi diqqatga sazovordir.

Farobiyning ijodini o'rganish o'qituvchilarning axloq, ta'lim-tarbiya sohasida olib boradigan ishlariga keng imkoniyatlar yaratadi.

Farobiy inson axloqi haqida gapirar ekan, uning xislatlarini qo'yidagicha ta'riflaydi:

1. Bunday odamning barcha a'zolari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo'lishi zarurki, u bu a'zolari bilan bajarmoqchi bo'lgan barcha ishlarini osonlik bilan amalga oshira olsun;
2. Barcha masalani, muhokama va mulohazani tezdan va to'g'ri tushuna oladigan, uning ma'nosini anglay oladigan so'zlovchining maqsadi, aytilgan fikrining chinligi tezda payqay oladigan bo'lsin;
3. Xotirasi juda baquvvat bo'lsin, ko'rgan, eshitgan, sezgan narsalarining birortasini ham esidan chiqarmay, yodda saqlab qoladigan bo'lsin;
4. Zehni shu darajada tez va o'tkir bo'lsinki, biror narsaning alomatini sezish bilan bu alomat nimani bildirishligini tezda bilib olsun;
5. So'zlari aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsun;
6. Bilish va o'qishga muhabbatli bo'lsin, o'rganmoqchi bo'lgan bilimni charchashni sezmasdan osonlik bilan o'zlashtira olsun;
7. Ovqatlanishda, ichimlik iste'mol qilishda ochko'z bo'lmasin, tabiati qimor o'yinlarini o'ynashdan uzoq bo'lsin va ular keltiradigan xursandchilikdan jirkanadigan bo'lsin;
8. Haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan bo'lsin, yolg'on va yolg'onchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin;
9. Ruhining g'ururi va vijdonini qadrlaydigan bo'lsin, uning ruhi va o'z tabiati bilan past ishlardan yuqori va oliy janob ishlarga ishlatiladigan bo'lsin;
10. O'z tabiati bilan adolatni sevadigan va adolat uchun kurashuvchilarga, adolatsizlikni, jabr, zulm o'tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin, o'z odamlari va boshqalarga adolatli bo'lsin, go'zal va yaxshi hisoblangan narsalarni barchaga taqdim etgan holda odamlarni adolatga targ'ib etadigan, adolatsizlik oqibatlarini yuqotadigan, ularga yo'l quymaydigan bo'lsin;
11. Adolatli bo'lsin, ammo qaysar bo'lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib, o'zbilarmonlikka berilmasin, lekin har qanday adolatsizlik, pastkashlik oldida lafzli bo'lsin, o'zi zarur deb bilgan narsasini amalga oshirishda qat'iylik ko'rsatsin: qo'rqmas, jasur bo'lsin, qo'rquv va ojizlikni bilmasin.

Forobiyning fikricha insonning axloqli, saxovatli va aql-idrokli bo'lishida bilimlarni egallash muhim ahamiyatga egadir. Inson bilimi orqaligina o'z maqsadiga erisha oladi.

Abu Nasr Forobiy «Insoniy vujudan maqsad – eng oliy baxt-saodatga erishuvidir; avvalo u baxt-saodat – nima va nimalardan iborat ekanligini bilish, unga erishuvni o'ziga g'oya eng oliy maqsad qilib olishi, butun vujudi bilan maftun bo'lishi kerak. Keyin u baxt-saodatga olib boradigan ish, amal va vositalarning nimalardan iborat ekanligini bilib olishi zarur. So'ngra esa baxt-saodatga erishtiradigan ishlarni shaxsan bajarishga kirishmog'i lozim bo'ladi», deb ta'kidlaydi.

Forobiy axloqiy madaniyatning fazilatlaridan hisoblangan saxovat masalasiga alohida e'tibor bergan. U o'z zamonasidagi adolatsizliklarga befarq bo'lmagan. Buyuk allomaning ta'kidlashicha, kishilar o'rtasidagi o'zaro yordam, do'stona va qardoshlik munosabatlari, saxovatli bo'lish, ozodlik, rohat, farog'at kalitidir.

Ibn Sino insonning umumiy fazilati, kishilarda yaxshi va yomon xulqlarning paydo bo'lish sabablarini «Olloh haqida risola» asarida ko'rsatib o'tadi. Olim bu asarida yaxshi va yomon xulqlar odamlarning odatidan, hukumat ahillarining salbiy ta'siridan paydo bo'lishini ta'kidlaydi. Abu Ali ibn Sinoning ma'naviyat va axloq haqidagi qarashlari uning shoh asarlari bo'lmish «Tib qonunlari», «Ash-shifo» va boshqa asarlarida ham o'z ifodasini topgan.

Ibn Sino ta'limotiga ko'ra, odamga do'st tutinishning uch xil yo'li bor: «birinchidan, har qanday qiyinchilik bo'lishiga qaramay, kishi o'z do'stini falokatdan qutqarishini, ikkinchidan, g'oyaviy yaqinlik va dunyoqarashlar umumiy bo'lgan chinakam va doimiy do'stlikni va uchinchidan esa kishining mansabi, puli yoki mavqeiga qarab o'zining shaxsiy manfaatini qondirish ko'zda tutilgan do'stlik bo'ladi».

O'rta Osiyo mutafakkirlaridan biri Yu.X.Hojibning asarlarida ham ma'naviy madaniyat keng o'ring egallagan. Mutafakkir «Qutadg'u bilig» dostonida hokim bilan xalq o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalasiga e'tibor beradi. Uning fikricha, agar beklar tabiatan ezgu bo'lsalar barcha fuqarosi boyiydi, olam guliston bo'ladi, shuningdek: «hamma

narsaning qoidasi, tartibi, ta'limi bor, tartib, odob qoidalarini to'g'ri tutsa, kishining yuzi yorug' bo'ladi» deb ta'kidlaydi.

Inson kamolotining fazilatlaridan hisoblangan adolat tushunchasi va adolat tuyg'usi Alisher Navoiy donishmandligining asosini tashkil etadi. uning fikricha, ongning mavjudligi adolatning mavjudligidir. Adolatsiz ong ong emas. Insoniyat tirikligining davomiyligini ta'minlaydigan birdan-bir narsa ham adolatdir.

Axloq g'oyasi bolaning ma'naviy tarbiyasi va yetukligining asosi hisoblanadi.

«Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha xalqlar uchun yoqimlidir. U mansabdor kishilardan go'zalroq va badavlat odamlardan hurmatliroqdir. Odobli odam o'z tengdoshlari orasida ham tahsinga sazovor bo'lib, hyech qanday ehson bermay, kattadan-kichik, hammani shod qiladi, hyech qanaqa hadya qilmay kishilarning g'amini tarqatadi.

Odob – kichik yoshlilarni kattalar duosiga sazovor etadi, yoshlar u duo barakasidan umrbod bahramand bo'ladilar.

Odob – ulug'lar kunglida yoshlarga mehr uyg'otadi va u odobli yoshga bo'lgan muhabbat kunglida abadiy qoladi. Yoshlarni ko'pga ulug' qilib ko'rsatadigan fe'l-atvor odobdir, odoblilarning yurish-turishida xalq ulug'vorlik ko'radi.

Odob – kishilar tarafidan qilinishi mumkin bo'lgan hurmatsizlik eshigini berkitadi va odamni hazil-mazaxdan, kamsitishdan saqlaydi. Odob – odam tabiatiga insoniylik baxsh etadi.

Odob – mehr-muhabbatning zeb-ziynatidir, odobsizlik – do'stlikka putr yetkazadi. Odob do'stlik oynasiga jilo beradi va ikki oraga yorug'lik bag'ishlaydi.

Odob – urug'ini ekan odamning hosili javohir bo'ladi. Odobli va go'zal xulqli odamlar ko'payaversa, xalqning do'stligi, ularning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbati borgan sari rivoj topadi. Agar kishi odob kabi xulqqa ega bo'lsa, o'zi ham xalqning hurmatiga sazovor bo'ladi. Do'stlar orasida shu kabi suhbat va shu yo'sinda hamjihatlik bo'lsa, qanday yaxshi. Bunday aql, ittifoq, muhabbatli, odobli bo'lish do'stlar uchun baxtiyorlikdir».

Shunday qilib, O'rta Osiyo allomalarining bizga qoldirgan ma'naviy va moddiy qadriyatlarini mazmunan boy va shaklan g'oyat rang-barangdir. Xalqimiz tarixida ma'naviy madaniyat ta'limoti doimo rivojlanib takomillashib borgan. XVI-XX asrlar davomida unga salmoqli hissa qo'shgan Turdi, Mashrab, Gulxaniy, Munis Xorazmiy, Muqimiy, Furqat, Abdulla Avloniy, Shakuriy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Behbudiy va Avaz O'tar kabi qator ilg'or shoir va allomalar haqida ko'p mulohazalar bayon qilish mumkin.

O'rta Osiyo mutafakkirlarining axloq, odob haqidagi fikrlarini, qoldirgan ma'naviy qadriyatlarini o'rganishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda axloqiy odob madaniyatidan tashqari xalqimizning qadimiy urf-odatlarini va udumlari, an'analarini ham yaxshi yoritilgan.

Tarixning guvohlik berishicha, har bir xalq va millat o'zlarining iptidoiy davrida, o'zligini namoyon qilishga, milliyligini saqlab qolishga va uni toboro rivojlantirib borishga harakat qilib kelganlar. Tarbiyaning bunday ko'rinishlari va uning o'ziga xos shakllari xilma-xildir. Shu o'rinda milliy qahramonimiz Spitamenning vatanparvarlik yo'lida olib borgan mardonavor kurashlari yuqoridagi fikrimizga dalil bo'la oladi.

Ilm-fanda mo'jizalar yaratgan Al Xorazmiy, Forobiy, Ahmad Farg'oni, Ibn Sino, Beruniy va boshqa ko'plab ajdodlarimiz qaysi zaminda yashamasin, qaysi tilda asarlar yaratmasin, o'z elini, urf-odatlarini unutmaganlar, doimo «o'zbek» degan nomni ulug'laganlar.

Milliy an'analarimizni o'rganishda Mahmud Qoshg'ariy va Yusuf Xos Hojib singari mashhur siymolarning ham xizmatlari beqiyosdir.

Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abulg'azi Bahodirxon, Nodirabegim, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy kabi yorqin siymolarning sa'y-harakatlarini aytmaydizmi?! Haqiqatdan ham, bu davr el-yurtimiz tarixini, madaniyatini va san'atini o'rganishning oltin davrini tashkil etadi.

Har bir xalqning ana shu ulkan ma'naviy qadriyatlari chuqur tomir otib ketgan o'q ildizlari bilan jahon madaniyatida o'ziga xos o'rin tutadi.

Turkiston qadim-qadimdan hunarmandchiligi, pazandachiligi, dehqonchiligi, ilm-fani, san'ati va adabiyoti, bir so'z bilan aytganda ma'naviyati yuksakligi jihatidan olamga mashhurdir. Mehnatsevarlik, yerga mehr quyish, kasbiga ixlos, mehmondo'stlik, mehr-shafqatlilik, odamgarchilik, ota-onaga hurmat, kattalarni siylash, aka-uka, opa-singil, qarindosh-urug'lar o'rtasidagi mehr-oqibat, peshona teri evaziga topilgan risq-nasibaga qanoat qilib yashash, beva-bechoralarga muruvvatlilik xalqimizga xos odatlardir. Bu urf-odat, an'ana va marosimlarda xalqimizning qator noyob fazilatlarini, insonparvarlik xislatlari mujassam.

Odat - xalqlarning ichki munosabatlarini tartibga soluvchi mezon va an'analar majmuasi. «Odat» so'zi udum, urf, an'ana va marosim tushunchalari o'rnida qo'llaniladi.

Marosim esa odatning amaliy ko'rinishidir. O'zbek xalqi juda ham boy xilma-xil odat va an'alarga ega.

Milliy urf-odatlar, an'analar tarixiy-ijtimoiy kategoriya bo'lib, ular muayyan millatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida avlod-dan-avlodga o'tib kelgan ishlab chiqarish, tirikchilik, maishat, xulq-atvor va boshqalarda o'ziga xoslikka ega bo'lib, rasm-rusumga aylangan munosabatlardir. Urf-odatlar asrlar davomida yashab, kishilarning axloqiy normalariga aylangan holda, ularning qon-qoniga, hatti-harakatiga, kundalik turmushi shakllariga singib ketgan.

Kishilarning o'z xalqi urf-odatlarini va an'alariga amal qilmasliklari xalq qadriyatlarini bilmaslikka olib keladi. Chunki, har bir milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz negizida milliy ruh, ma'naviyat, qadr-qimmat kabi ulug' insoniy fazilatlar yotadi.

O'z qadr-qimmatini bilish kishini xudbinlikdan saqlaydi, o'zini boshqalar tomonidan kamsitilishiga yo'l qo'ymaydi. Shuningdek, o'z qadr-qimmatini, izzat-nafsini hurmat qiladigan inson o'zgalarni hurlamaydi, u faqat yaxshilik qilishni o'ylaydi.

Inson bolasi yoshligidan yaxshi va yomon odatlarning qaysinisiga ko'nikib, o'rganib qolgan bo'lsa, bu odat uni bir umr tark etmaydi. Shuning uchun ham xalqimizda, «O'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas» kabi maqollar bor.

XX asr boshlarida pedagogik fikrlar tarqiqiyotining asoschisi A.Avloniy axloqni shunday ta'riflaydi: «Insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar bilan bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur.

Axloq ilmini o'qub, bilib amal qilgan kishilar o'zining kim ekanini, janobi haq na uchun xalq qilganin, yer yuzida nima ish qilmoq uchun yurganin bilur. Bir kishi o'zdan xabardor bo'lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas. O'z aybini bilib, iqror qilub, tuzatmoqqa sa'y qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidir.»

O'zbekistonning mustaqilligi tufayli ma'naviy tarbiya mazmunini tashkil etuvchi xalqimizning milliy ruhiyati, yuksak insoniy fazilatlari, ma'naviyati, ezgu orzu-umidlari yorqin ifodasini topishi uchun keng imkoniyatlar paydo bo'ldi. yangi shakllanib kelayotgan mustaqil O'zbekiston davlatining asosiy maqsadi – jamiyatni ma'naviy yuksaltirish, madaniyatli – barkamol insonni tarbiyalash, yoshlarda ma'naviy madaniyatni shakllantirishdir.

Savol va topshiriqlar

1. Olam va dunyoqarash tushunchalarini ta'riflang.
2. Pedagogika(ma'rifat)-kasbiy etuklikka etaklash omili deganda nimani tushunasiz?
- 3.O'zbek pedagogikasida ma'rifiy qadriyatlarning tutgan o'rni.
- 4.Ta'lim, tarbiya va shaxs kamoloti jarayonlarining o'zaro munosabati haqida nimalarni bilasiz?

Ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti va ularning tarixiyli

- 1.Jahon ma'rifiy fikrlarining tarixiy-pedagogik tahlili.
- 2.O'zbekiston hududida eng qadimgi davrdan mustaqillikgacha bo'lgan davrlarda ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti
3. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'lim-tarbiya

Tarixiy taraqqiyotning keyingi davrlariga kelib, ibtidoiy jamoa tuzumi o'rnini yangi ijtimoiy foyrmasiya – quldorlik tuzumi egalladi. Qadimiy Sharqda birinchi sinfiy jamiyatlar paydo bo'ldi hamda moddiy va ma'naviy madaniyatga asos solindi. Ayniqsa, Qadimgi Yunoniston (Gretsiya) xalqlari bu madaniyatni ma'lum darajada qabul qilib, uni qaytadan rivojlantirdi va butun jahon madaniyatiga, maorifiga o'zining ulkan hissasini qo'shdi.

Darhaqiqat, tarixiy taraqqiyot davomida turli mamlakatlar va xalqlar jahon madaniyatiga turlicha hissa qo'shganlar. Masalan, Xitoyda birinchi marta qog'oz ixtiro qilingan. Hindistonda hisoblashning o'nlik sistemasi kashf etilgan. Mesopotamiyada esa yer kurrasini graduslarga, sutkani soatlar, minutlar va daqiqalarga bo'lish o'ylab topilgan (graduslar ham, soatlar ham hisoblashning oltilik tizimiga asoslangan).

Eramiz boshlanishidan oldin Markaziy Osiyoning janubiy chekkasiga yaqin bo'lgan joyda O'rta dengiz bilan Hindistonni birlashtiruvchi karvon yo'li qurilgan. So'ngra Markaziy Osiyo orqali Xitoyda O'rta dengizga tomon «Buyuk ipak yo'li» ochilgan. Natijada Markaziy Osiyo xalqaro savdo-sotiq markazi bo'lib qolgan. Bu esa o'z navbatida Markaziy osiyo vohalarida madaniyatning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, qadimgi Bnonistonda madaniyat, tarbiya, maktab va dastlabki pedagogik fikrlar boshqa qadimiy Sharq mamlakatlariga nisbatan juda erta rivojlangan.

Yunoniston unchalik katta bo'lmagan bir qancha quldorlik davlatlaridan iborat mamalakat bo'lgan. Uning eng katta shaharlaridan Lakoniya (poytaxti Sparta) va Attika (poytaxti Afina) ayniqas madaniyat markazi bo'lishi bilan o'ta mo'tabar edi. Bu shaharlarning har qaysisida tarbiyaning boshqa mamlakatlaridan farqli alohida tizimi vujudga keldi. Va bu tarbiya tizimi shaharlar nomi bilan yuritilib «Sparta» va «Afina» usulidagi tarbiya deb yuritiladigan bo'ldi. Har ikkala shaharning iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotidagi ba'zi bir xususiyatlar hamda madaniyat darajasi turlicha bo'lganligi tufayli har ikki tizim bir-biridan tubdan farq qilar edi. Ammo ikkala davlatda ham quldorlik tuzumi hukmron edi. Shuning uchun ham bu davlatlarda ijtimoiy tarbiya tizimi quldorlarning bolalari manfaatini ko'zlar edi.

Tarbiya ishlari davlat ixtiyorida bo'lib, uning asosiy maqsadi spartaliklarning bolalarini baquvvat, jismoniy sog'lom, bardoshli, chiniqqan jangchilar qilib tarbiyalashdan iborat bo'lish bilan birga bo'lajak quldorlarni ham tarbiyalashni nazarda tutar edi.

Spartaliklar bolalari 7 yoshgacha uyda yashar, keyin «agella» deb ataluvchi aloxida davlat tomonidan tashil etilgan tarbiya muassasasiga joylashtirililar va 18 yoshga yetgunicha ularga ana shu muassasalarda ta'lim-tarbiya berilar edi. Bu muassasalarning rahbarlari davlat tomonidan obro'li, taniqli kishilardan tayin qilinlar edi. Bunday kishilar «pedonom» deb atalib, butun tarbiyaviy ishga rahbarlik qilardi. Ayniqsa, o'smirlar tarbiyasiga alohida e'tibor beriladi. Ular jismoniy sog'lom bo'lishi uchun turli mashqlar bilan chiniqtirililar, sovuqqa, ochlikka va chanqoqlikka chidashga, og'riqqa bardosh berishga ham o'rganib borilardi. Ta'lim jarayonining asosiy qismini harbiy gimnastika mashqlari egallar edi. Bu bilan yosh spartalilarni yugurishdan, sakrashdan, disk va nayza oat bilishdan, kurashish va qo'l bilan jang qilish usullaridan saboq berilardi. Shuningdek, harbiy tusdagi maxsus o'yinlar ham o'rgatilardi. Spartaning kelajak vorislari jismoniy baquvvat, hyech narsadan qo'rqmaydigan, botir jangchi, o'z vatanini, xalqini har qanday ofatdan himoya qila oladigan bo'lib yetishardi.

Qadimgi Gresiyadagi tarbiyaviy ishlar shunisi bilan o'ziga xos ediki, unda bolani nafaqat jismoniy chiniqtirishgina emas, balki ma'naviy tomondan ham barkamol bo'lishi nazarda tutilardi. Unda asosan bolalarga musiqa, ashula va diniy raqslar ham o'rgatilgan. Bu mashg'ulotlarning mazmuni jangovor hamda harbiy tusda bo'lgan.

Qadimgi grek tarixchisi, faylasuf olimi Plutarx Sparta maktablaridagi ta'lim-tarbiya haqida gapirib shunday deydi: «O'qish va yozish – bolalarga faqat ularning eng zaruri o'rgatilar edi, tarbiyaning qolgan qismi esa bitta maqsad: hyech so'zsiz itoat qildirishni, chidamli bo'lishni va yengish ilmini o'rgatishni ko'zda tutadi».

Spartada qizlar tarbiyasiga ham alohida e'tibor berilgan, ya'ni ular ham harbiy va jismoniy tarbiya malakalari bilan qurollantirib borilgan. Bunday maqsad erkaklar qullar qo'zg'olonini bostirmoq uchun urushga ketgan vaqtlarida qizlar, ayollar shaharni, uy-joyini qo'riqlash maqsadida qurollanib qo'riqchilik vazifasini o'tar, qullarni esa itoat saqlashini ta'minlar edilar.

Qadimgi Gresiyaning ikkinchi bosh shaharlaridan biri Afinada esa hayot, tartib, intizom, maktab tizimi va undagi ta'lim-tarbiya spartanikidan butunlay farq qilar edi. Chunki Afinadagi iqtisodiy xayot Spartadagi singari cheklanib quyilgan emas edi. Qullar xususiy mulk hisoblanar edi.

Afinada eramizdan ilgarigi V-VI asrlarda madaniyat barq urib o'sdi. Dunyoqarashning keyingi hamma turlari Grek falsafasining xilma-xil shakllarida kurtak holida namoyon bo'ldi. ayniqsa, tabiyot ilmi, matematika, tarix, san'at, ajoyib grek me'morchiligi va haykaltaroshligi taraqqiy qildi.

Afinada eng ko'rkam va barkamol inson deb ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan yetuk kishini o'zlarining «ideali» deb hisoblar edi.

Afinada dastlab bolalar (7 yoshdan 13-14 yoshgacha) «gramma tist», (grammatika mutaxassisligi demakdir, savod o'qituvchisi ma'nosida) va «kifarist» (grekcha muzika demak, muzika o'qituvchisi ma'nosida) maktablarda (yoki shu maktablarning ikkovida ham, yo bo'lmasa avval grammatist maktabida, so'ngra esa kifarist maktabida) o'qitilar edi. Bu maktablar xususiy bo'lib, haq to'lanar edi. Shuning uchun ham puli yo'q (demos deb atalgan) fuqarolarning bolalari bu maktablarda ta'lim ololmas edi.

Bu kabi maktablarda «didaskol» deb atalgan o'qituvchilar mashg'ulot olib borar edilar. (Men o'qitaman degan ma'nodagi «didasko» so'zidan keyinroq «didaktika» - ta'lim nazariyasi kelib chiqqan).

O'g'il bolalarni maktabga qullar yetaklab borishgan. Bunday qo'llar «pedagog» deb atalgan («pays» bola, «agogeyn» - yetaklab borish degan so'zlardan olingan).

Afinadagi grammatist maktabidagi ta'lim-tarbiyaning mazmuni o'qish, yozish va hisoblashni o'rgatishdan iborat bo'lgan.

O'qish harflarni hijjalab o'qitish usulida olib borilib, bolalar harflarning nomlarini (alfa, beta, gamma, va hokazo) yodlab olar, so'ngra shu harflarni qo'shib bo'g'inlar yasalar, bo'g'inlarni qo'shib so'zlar yasardilar. Yozuvni o'rgatishda mum surilgan yaltiroq taxtachalardan foydalanilar edi. Bunday taxtachalarga ingichka cho'p bilan harflar yozilar edi. Barmoqlar, sopolak toshlar va sanoq taxtasi (hozirgi cho'tga o'xshash asbob) yordami bilan hisoblash o'rgatilar edi. Kifarist maktabida o'g'il bolalar adabiy bilim, estetik mazmundagi deklomasiyalar o'rgatilar («Iliada» va «Odessiya» dan parchalar o'qitilar) edi.

Yunonistonda maktab va madaniyatning tez rivojlanishi pedagogik nazariyasining ham tug'ilishiga imkon yaratadi. Pedagogik nazariyasiga olim va faylasuflardan Sokrat, Platon, Arastu va Demokritlar asos soldilar.

Ular pedagogika sohasidagi dastlabki qarashlarini jamoat oldida so'zlagan nutqlarida, ilmiy asarlarida bayon etdilar.

Sokrat (eramizdan avvalgi 469-399 yillar) o'zining demokratik ijtimoiy chiqishiga qaramay (u kambag'al hunarmand o'g'li edi), konservativ zamindor aristokratlarning ideologi edi. Bu albatta uning falsafiy va pedagogik qarashlarida o'z aksini topdi. Sokratning fikricha tarbiyadan kutilgan maqsad, buyumlar tabiatini o'rganish bo'lmay, balki kishining bilib olishi, axloqni kamol toptirishi bo'lmog'i lozim edi. Ham faylasuf, ham notiq Sokrat keng maydonlarda, jamiyat oldida so'zlarga chiqib axloqqa doir masalalar yuzasidan suhbatlar o'tkazar, tinglovchilarni savol-javob yo'li bilan haqiqatni o'zlari uylab topishlariga undar, shu yo'l bilan odamlarni haqiqatni izlashga o'rgatar edi. Suhbatning bu usuli o'sha paytda «Sokrat usuli» deb atalgan. «Sokrat usuli» dan keyingi davrlar uslubiyatida suhbatni «fikir qo'zg'ovchi savollar usuli» nomida o'tkazish paydo bo'ldi.

Umuman Sokrat yaratgan axloqiy etika maktabi umumiy fazilat, bir qator xususiy fazilatlardan, ya'ni jasurlik, donolik, mo'tadillik, adolat va boshqalardan tashkil topdi. U har bir fazilatning u yoki bu turdagi bilimlardan iborat ekanligini asoslab berdi. Ya'ni, mardlik – qo'rquvni daf qilishni, donolik – qonunlarga rioya qilishni, mo'tadillik – o'z hissiyotlariga erk bermaslik, adolat – yaxshilikni qanday qanday qilib amalga oshirishni o'rgatadi, deb ta'lim berdi. Shu sababli u odamni fazilatli hayotga o'rgatishdan oldin, inson eng avvalo umumiy etika mezonlarini, inson uchun muqaddas bo'lgan barchaga xos umumiy fazilatlarni bilishi zarur, deydi. Shuningdek, u – kimgaki olijanob insoniy fazilatlarni bilish ravo ko'rilgan bo'lsa, ana shu odamgina yaxshi fazilatni ko'rsata olishi mumkin deyish bilan, fazilat va bilimni aynan bir narsa deb saboq beradi. Uning fikricha, insonlardagi fazilat, ya'ni axloqiy fazilatlar fan tufayli, ta'lim berish bilan qo'lga kiritilganligi sababli, axloqiy rivojlanish axloq asosini tashkil etar ekan.

Qadimgi Gresiyaning mashhur faylasuflaridan yana biri Platon eramizdan ilgari (424-347 yillar) – idealist faylasuf Sokratning shogirdi, obyektiv idealizm nazariyasining asoschisi edi. U «g'oyalar dunyosi ni birlamchi, his qilinuvchi narsalar dunyosini ikkilamchi deb hisobladi.

Platon tanadan tashqarida mavjud bo'lgan narsalar haqidagi nazariyani olg'a surdi va bu tanadan tashqarida bo'lgan narsalarni «tur» yoki «ideyalar» deb atadi.

Platon odamni hodisalar dunyosi deb ikkiga bo'lib o'rgandi. Uning nazarida, narsalar ideyalar olamining soyasidir, xolos.

Platonning fikricha, bolalar 3 yoshdan boshlab 6 yoshgacha davlat tomonidan tayinlab quyilgan tarbiyachilar rahbarligida maydonchalarda turli o'yinlar o'ynash bilan shug'ullanishlari muhim bo'lgan. Platon o'yinlarni maktabgacha tarbiya vositasi deb hisoblab, ularga katta ahamiyat beradi, shuningdek, bolalarga hikoya qilib beriladigan materiallarni sinchiklab tanlash kerakligini ham uqtirib o'tadi. U bolalarga eng yoshlik chog'idanoq ijtimoiy tarbiya berish tarafdori edi.

Bolalar 7 yoshdan 12 yoshgacha davlat maktablariga qatnaydalir va bunday maktablarda ularga o'qish, yozish, hisob, musiqa va ashula o'rgatiladi.

Bolalar 12 yoshdan 16 yoshgacha odatdagi badantarbiya mashqlari o'rganiladigan palastrada, ya'ni jismoniy tarbiya maktabida o'qiydilar. Palastrani tamomlagan o'spirinlar 18 yoshgacha hisob, geometriya va astronomiyani o'rganadilar, bunda ko'proq amaliy maqsadlar (ularni jangchilar qilib tayyorlash) ko'zda tutilgan. 18 yoshdan 20 yoshgacha yigitlar «Efebiya»da tarbiyalanadilar, ya'ni harbiy gimnastika tayyorgarligini o'taydilar. Aqliy mashg'ulotga mayli bo'lmagan yigitlar 20 yoshdan boshlab jangchilar qatoriga o'tadilar. Abstrakt tafakkurga qobiliyati borligi ochiq ko'ringan yoshlar, ya'ni yigitlarning ozroq qismi 30 yoshga qadar falsafa, shuningdek, hisob, geometriya, astronomiya va musiqa nazariyasini o'rganish bilan shug'ullanib, shu tariqa ilm olishning uchinchi, oliy bosqichini o'tadilar, ammo bunda amaliy maqsad ko'zda tutilmasdan, balki falsafa – nazariyani mukammal o'rganish ko'zda tutiladi. Shu tariqa ular davlat mansablarida ishlashga tayyorlanadilar. Iste'dodi g'oyat o'tkir ekanligi ma'lum bo'lgan va juda ozchilikni tashkil etgan yigitlar falsafa ilmini o'rganishni yana 5 yil (35 yoshga qadar) davom ettiradilar, shundan so'ng 35 dan 50 yoshgacha davlatni boshqaruvchi kishilar bo'lib qoladilar.

Platonning shogirdi bo'lgan, makedoniyalik Iskandarni tarbiyalagan, qadimgi Gresiyaning eng yirik idealist-faylasufi va olimi Arastu (eramizdan ilgari 384-322 yillar) ning pedagogika nazariyasini yaratishdagi va uni rivojlantirishdagi xizmatlari juda ulkan.

Platon olamni g'oyalar dunyosi va hodisalar dunyosi deb ikkiga bo'lgan bo'lsa, uning shogirdi Arastu olamni yaxlit deb bildi va narsalarni o'zidan ajratib bo'lmaydi, dedi. Arastuning aytishicha, g'oyani shaklga o'xshatish mumkin. Har qanday buyumda biz uning moddasini va shaklini ko'rishimiz mumkin. moddada narsalar bo'lishi uchun imkoniyatlar bor; modda biron shakl olganidan so'nggina narsa bo'lib qoladi. Chunonchi, marmarning o'zi bir moddadir, ammo unga ma'lum shakl berilsa, haykal tusini olishi mumkin.

Butun hayot taraqqiyot jarayonidir, bu jarayon Arastuning fikricha, tashqi kuchlarning ta'siri ostida sodir bo'lmaydi, balki ichki taraqqiyotning o'zidir. Arastu tashqi olamning mavjudligiga shubha qilmaydi va hissiy tajribani, sezgilarni bilishning asosi deb hisoblaydi. Arastuning ta'kidlashicha, bilishdagi xatolar noto'g'ri tafakkurdan, ya'ni hissiy tajribani noto'g'ri talqin qilishdan kelib chiqadi. Eng muhimi shundaki, Arastu shakl bilan mazmunning birligini ko'rsatib o'tdi, taraqqiyot g'oyasini olg'a surdi.

Arastu olamda tana va jon bor, tana bilan jon materiya bilan shakl tariqasida bir-biridan ajralmagan holda mavjuddir, deydi. Uningcha, uch xil jon bor: o'simlikdan tarkib topgan jon oziqlanishda va urchib ko'payishda namoyon bo'ladi; hayvonotdan tarkib topgan jon, o'simlik xossalaridan tashqari sezgilarda va istaklarda namoyon bo'ladi; aqlning ifodasi bo'lgan jon, o'simlik va hayvonot xossalaridan tashqari, u tafakkur yoki bilish xislatlariga ham egadir. Insondagi jonning hayvoniy qismi aqlga tobe bo'lganligi sababli, uni iroda deb atash mumkin.

Arastuning fikricha, jonning mana shu uch xiliga muvofiq uch xil tarbiya – jismoniy tarbiya, axloqiy tarbiya, aqliy tarbiya bo'lishi kerak. Tarbiyaning maqsadi, uning fikricha jonning oliy tomonlarini – aql va irodani kamol toptirishdan iborat edi. Har bir moddada rivojlanish imkoniyati bor bo'lganidek, insonga ham tabiat faqat qobiliyatlarining boshlangichiniga beradi, insonda kamol topish imkoniyati tabiatda mavjuddir va bu imkoniyat tarbiya vositasi bilan ro'yobga chiqariladi. Tabiat jonning uch xilini bir-biri bilan chambarchas bog'lab qo'ygan, biz ham tarbiyada tabiat belgilab bergan yo'ldan borib, jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyani bir-biri bilan chambarchas bog'lab olib borishimiz lozimligini uqtiradi.

Arastu pedagogik tarixida birinchi bo'lib, yoshni davrlarga bo'lishga urinib ko'radi. U insonning yoshlik yillarini uch davrga bo'lib o'rganadi: 7 yoshgacha bo'lgan davr; 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan davr (jismoniy balog'at davrining boshlanishi) va jinsiy balog'at davrining boshlanishidan 21 yoshgacha bo'lgan davr. Uning fikricha, bunday davrlarga bo'lish tabiatga mos bo'lib tushadi.

Atomizm nazariyasini yaratgan atoqli faylasuf – materialist Demokritning qarashlari (eramizdan avvalgi 460-370 yillar) qadimgi yunon falsafasining cho'qqisidir. Demokrit o'z asarlarida yuqorida nomlari qayd etilgan mutafakkir faylasuflar kabi tarbiya masalalariga ko'p e'tibor beradi. Uo'z nazariyasida tabiat qonunlariga, xurofotni va qo'rquvni yemirib tashlaydigan chinakam bilimlarga murojaat qiladi.

Demokrit, «xudolarning irodasi» degan gaplar odamlar o'ylab chiqargan uydirmadan boshqa narsa emas, deb hisoblab, xudolarga ishonishni rad etadi.

Demokrit tarbiyani tabiatni tabiatga muvofiqlashtirish masalasini birinchi bo'lib ilgan surdi. «Tabiat bilan tarbiya bir-biriga o'xshaydi» deb yozadi u. Demokrit «ta'lim mehnat asosidagina go'zal narsalarni hosil qiladi», deb tarbiya ishida mehnatning roli juda katta ekanligini ta'kidlaydi.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida feodalizm V asrdan XVIII asrlargacha davom etdi.

O'rta asrlarda katta kuchga ega bo'lgan katolik ruhoniylari barcha imkoniyatlardan foydalanib, ma'rifatga qarshi kurash olib bordilar. Fan dinga xizmat qilar edi. Natijada fan sohasida ijodiy fikrning o'sishi bo'lmadi.

O'sha davrda hamma ta'lim-tarbiya ishlari ruhoniylar qo'lida quro bo'lib, batamom diniy ruh va xurofot bilan sug'orilar edi.

O'rta asr G'arbiy Yevropa mamlakatlarida 2 guruhga bo'lingan va yetti fanni o'z ichiga olgan ta'lim dasturi vujudga keltirildi:

1 – guruh uchta fandan iborat. Bunga grammatika, ritorika va dialektika kirar edi.

2 – guruh to'rtta fandan iborat bo'lib, bunga arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa kirar edi.

Mazkur o'quv fanlari qadimgi Yunoniston ta'lim tizimidan olingan edi, biroq o'rta asrlarda ularga diniy mazmun berilib, hammasi ramz bilan diniy ma'noda tushuntirilar edi. Masalan: grammatikani o'rganishdan maqsad – muqaddas diniy kitoblarni o'qishni bilib olish, ritorika (notiqlik san'ati nazariyasi) ni o'ranishdan maqsad va'zxonlik qilish, xutba o'qish san'atini egallab olish, musiqa deyilganda esa, diniy musiqa nazarda tutilardi (katolik cherkovida ibodat vaqtida organ musiqa asbobi chalinadi va diniy ashulalar aytiladi). Dialektika, munozara, bahslashish san'ati deb tushunilar va

katolizmga qarshi chiquvchilar bilan munozara qilishga yordam beradigan fan deb hisoblanar edi. Hattoki, matematikaga ham ma'no berilar edi. Geometriya cherkov binolarini qurish uchun zarur fan deb hisoblanar edi, arifmetikani o'qitganda ayrim sonlarni ramz bilan diniy ma'noda (masalan, «1» raqami bu xudoning birligi simvoli (ramzi)deb tushuntirilar edi). Astronomiyadan esa diniy kalendar tuzishda foydalanilardi.

Hamma fanlarning toji deb – teologiya hisoblanar edi. O'rta asrlarda beriladigan ta'lim dasturi cherkov maktablari orqali amalga oshirilar edi.

Cherkov maktablarining asosiy turlari: prihod maktabi (ya'ni, bir cherkovga qarashli), magistr maktabi va bosh cherkov yoki yepiskop maktablaridan iborat edi.

Risar tarbiyasi. Cherkovga qarashli maktablar va faqat diniy ruhdagi tarbiya endi o'rta asrlar jamiyatiga hukmron bo'lgan harbiy-pomeshchiklar tabaqasiga mansub dunyoviy feodallarning talablariga javob bera olmaydigan bo'lib qoldi. Yer va krepostnoy dehqonlar dunyoviy feodallarning xususiy mulki bo'lib, bu feodallar krepostnoy dehqonlarni shafqatsiz va ekspluatatsiya qilar va ularni qurol kuchi bilan o'zlariga itoat qildirar edilar. Ular dehqonlarning qo'zg'olonlarini bostirishda va boshqa mamalakatlarga qarshi urushlarda ishtirok qilardilar, o'zlarining yer, suv mulklarini orttirish maqsadida doim bir-biriga hujum qilish, o'zaro urush qilardilar. Shuning uchun ham dunyoviy feodallar muhitida risar fazilatlariga ega bo'lgan odam ideali vujudga keldi. Bu idealga muvofiq risar tajribali, mohir va mard jangchi, krepostnoy dehqonlarga nisbatan qattiqqo'l, shafqatsiz va ayni vaqtda feodal tabaqasiga mansub kishilarga nisbatan oliyanob, nazokatli, odobli, xushmuomalali, vijdonli, fidokor va sodiq odamdir. Risar ideali bilan bir vaqtda alohida tarbiya tizimi, ya'ni risar tarbiyasi ham vujudga keldi.

G'arbiy Yevropada XII-XIII asrlarda hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi shaharlarning o'sishiga va shahar madaniyatining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. shaharning asosiy aholisini tashkil qiluvchi hunarmand va savdogarlar o'z bolalariga amaliy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim berishga manfaatdor edilar. O'sha vaqtda ishlab turgan cherkovga qarashli diniy maktablar bunday bilim bermas edilar. Shu sababli sexda birlashgan hunarmandlar va gildiyalarda birlashgan savdo ishlab turgan cherkovga qarashli diniy maktablar sex maktablari va gildiya maktablari deyilar edi. Keyinchalik esa sex va gildiya maktablari magistrat maktablariga, ya'ni shahar boshqarmasi (magistrat) harajatidagi maktablarga aylandi.

Yevropada dastlabki universitetlar hamda Akademiyalarning tashkil topishi va ulardagi ta'lim tizimi.

Yevropada birinchi universitetlar XII asrning ikkinchi yarmida Italiyada (Bolonya shahrida), Angliyada (Oksford shahrida), Fransiyada (Parijda) tashkil qilindi. Bu universitetlar dastlab professor va talabalarning mustaqil idora qilinadigan uyushmasi (korporatsiyasi)dan iborat edi. Keyinchalik XIII asrda bu korporasiyachlar o'z-o'zini idora qilish huquqini saqlab qolgan holda davlat tomonidan rasmiy tasdiqlandi. Cherkov esa o'qituvchilik huquqini berishni o'z ixtiyoriga oldi. Ana shu tariqa universitetlar rasmiy o'quv muassasasiga aylanib qoldi. XIV – XV asrlarda kelib universitetlar Yevropa mamlakatlarining hammasida ochilgan edi.

O'rta asr universitetlari odatda to'rta fakultetdan tuzilgan bo'lib, tayyorlov fakulteti, yuridik, medisina va teologiya (din) aqidalari fakultetlaridan iborat edi. Tayyorlov fakulteti talabalari yuqorida aytilgan trivium va kvadrivium tarkibiga kirgan fanlarni o'qir edilar. Tayyorlov fakultetida o'qish muddati odatda 6-7 yilgacha, asosiy fakultetlarda esa 5-6 yilgacha chuzilar edi.

Universitetlarning vujudga kelishi va ularning rivojlanishi.

XII-XIII asrda bir qancha G'arbiy Yevropa mamlakatlarida oliy ma'lumot beradigan o'quv yurtlari sifatida universitetlar paydo bo'la boshladi. Ularning vujudga kelishiga o'sha vaqtlarda ko'p Yevropaliklarning arab madaniyati (xususan, medisina va falsafa) bilan tanishuvi katta ta'sir ko'rsatdi. Bu madaniyat bilan tanishishga G'arbiy Yevropa feodallarining XI asr oxirida Sharqdagi arab musulmon mamlakatlariga qarshi boshlagan harbiy harakatlari sabab bo'ldi. o'sha zamon arab mamlakatlarida madaniyat va ma'rifat G'arbiy Yevropadagi madaniyatga nisbatan ko'p jihatdan taraqqiy qilgan edi. Xususan arablar tomonidan VIII asrda istilo qilingan Ispaniyada tashkil qilingan arab oliy o'quv yurtlari Yevropa universitetlari uchun ma'lum darajada namuna bo'ldi. Ispaniyada arablar barpo qilgan feodal musulmon davlatining poytaxati Kordova shahrida tashkil qilingan arab oliy o'quv yurtlarida falsafa, matematika, astronomiya, medisina fanlari o'qitilar edi. Yevropaning turli mamlakatlaridan kelgan ko'p talabalar Kordovada o'qib, oliy ma'lumot olardilar.

Shuningdek, katolik cherkov aqidalariga xilof bo'lgan turli diniy ta'limot va bid'at fikrlar ham Yevropada universitetlar tashkil qilinishiga ta'sir etdi, chunki mana shu bid'at fikrlarga qarshi kurash olib bora oladigan oliy ma'lumotli katolik ruhoniylarga ehtiyoj tug'ildi. Mavjud cherkov maktablari esa, bunday xodimlar tayyorlash vazifasini bajara olmas edilar. Katolik cherkoviga xilof diniy ta'limotlarning tarqalishi va rivojlanishi munosabati bilan katolik cherkovi maorif ishini batamom o'z qo'liga olishga majbur bo'ldi. Natijada katolizmga sodiq bo'lgan oliy malakali o'qituvchilarga ham ehtiyoj yuzaga keldi.

Universitetlarning paydo bo'lishiga yana bilar sabab shu ediki, Yevropada katta davlatlar barpo qilinganligi va markazlashtirilgan monarxiya hokimiyatining kuchayganligi munosabati bilan ilmiy va yuksak malakali huquqshunoslarga talab tug'ildi. Mazkur sabablardan tashqari XII-XIII asrlarda G'arbiy Yevropa hayotida yuz bergan iqtisodiy, madaniy o'zgarishlar, ya'ni hunar va savdoning rivojlanishi, shaharlarning o'sib borishi va shunga bog'liq holda dunyoviy shahar madaniyatining taraqqiy qilib borishi, xalqaro aloqalarning kengayishi, yoshlar o'rtasida oliy ma'lumot olish harakatini tug'dirdi, bu hol o'z navbatida universitetlarning paydo bo'lishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Yan Amos Komenskiy. Buyuk chex pedagogik Ya.A.Komenskiy 1592 yil 28 mart «Ugorskiy Brod» degan joyda Moraviyada tegirmonchi oilasida dunyoga keladi. Uning oilasi ruhoniylar «chex qardoshlari» jamoasiga tegishli bo'lib, o'zlarini protestant Yan Gusning davomchisi deb hisoblar edilar. U o'rta maktabni tugatgach, Gerbern universitetiga (Germanida) o'qishga kiradi. Uni tugatgach Geldelberg univrsitetida leksiya kursini tinglaydi. Bu universitetda o'sha davrda ilg'or professorlar ishlar edilar.

1631 yil o'qish uchun kitob «Otkro'taya dver yazo'ka» (Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi)ni yaratadi. Bu asardan so'ng, Komenskiyning ko'p mamlakatlarda dong'i ketib ta'siri kuchayadi.

1632 yili Komenskiy «Buyuk didaktika» degan katta pedagogik asarni tugatadi. «Ona maktabi» degan maktabgacha tarbiya qo'llanmasi asarini bunyod etadi. «Ulug' didaktika» asarida «pan, sofiya ideyasini» (pan grekcha – butun, hamma, sofiya – donolik, aqllilik) hamma narsani bilish hamma uchun bilim berish demakdir.

Komenskiyning pandsofik ishi Angliyada qo'llab quvvatlanadi va 1641 yili Angliyaga keladi. Uni barcha mamlakatlar taklif eta boshlaydilar. Shvesiyada lotin tili darsligini va til o'qitish metodikasini tuzadi. 1648 yilda yana ona vatani Polshaning Leshno shahriga qaytib kelib, o'qituvchilik faoliyatini davom ettiradi. U Vengeriyada maktablarni boshqaradi. «Vidimo'y mir v kartinkax» ya'ni «Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning sur'atlari» degan asar yozib, o'qish ishini rasmlar bilan olib borishni ilgari suradi.

Komenskiy «Buyuk didaktika», «Tillar va barcha fanlarning ochiq eshigi», «Fizika», «Falakiyot», «Onalar maktabi», «Lotin tili muqaddimasi», «Tillarning eng yangi metodi», «O'yin - maktab», «Hislar bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlarini», «Tinchlik farishtasi» kabi asarlarida o'zining muhim pedagogik g'oyalarini ifodalagan.

«Buyuk didaktika» jahon pedagogikasining nodir asarlaridan biridir. Unda ta'lim nazariyasiga doir fikrlar bilan birga maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni aqliy va axloqiy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalash usullari ham bayon etilgan. Barcha o'g'il va qizlarga ta'lim berish uchun maktablar ochish, bolalarni o'z ona tilida o'qitish, tarbiyalash, amaliy hayotga turmushga tayyorlash, xususiy metodikalarni takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim-tarbiyaning maqsadi, shart-sharoitlari, imkoniyatlari va amaliy ahamiyati ham keng o'rin olgan.

«Buyuk didaktika» chex tilida yozilib, uning buyuk didaktika deb atalishi ham bejiz emas. Kitob unda tilga olingan va hal etilgan masalalarning ko'lemi hamda ahamiyati jihatdan buyuk mumtoz asardir.

Komenskiy umrining so'nggi yillarini xalqlar o'rtasida tinchlik o'rnatish uchun xizmat qilishga bag'ishladi. U 1667 yilda o'zining «tinchlik farishtasi» nomli asarini yozdi. Unda davlatlar o'rtasida xayrihohlik va tinchlik bo'lishi zarurligini bayon qildi va bunga erishishning muhim omillarini tavsifiya etdi.

Komenskiy 1670 yilda vafot etdi.

Komenskiy ijodi pedagogika fanining rivojlanishida katta ahamiyat kasb etdi. Xususan, uning «Buyuk didaktika» nomli asari jahon tillariga, shu jumladan pedagogika fanlari doktori, professor M.Ochilov tomonidan o'zbek tiliga ham tarjima qilinib nashr etildi (1975).

Ya.A.Komenskiy bolaning kamol topishini quyidagi davrlarga bo'ladi va shu davrga xos maktablarni ko'rsatadi:

1. Go'daklik davri – ona maktabi;
2. Bolalik davri – boshlang'ich maktab yoki ona tili xalq maktabi;
3. O'smirlik davri – lotin maktabi yoki gimnaziya;
4. Yetuklik davri – akademiya va sayohat.

Komenskiy maktablarning to'rt turini yilning to'rt fasliga o'xshatgan.

Komenskiy o'quvchiga bilim berish bilan birga unda quyidagi sifatlarini tarkib toptirish zarurligini uqtirgan:

1. Ovqat yeganda ham, kiyinishda ham tozalikka rioya qilish;
2. Kattalarni hurmat qilish;
3. Buyruq va taqiqlarga so'zsiz va sidqidildan itoat etish;
4. Hamisha to'g'ri so'zlash, hyech qachon yolg'on gapirmaslik;
5. Adolatli bo'lish, egasining roziligisiz biror narsani olib ketmaslik, hyech kimga, hyech qachon yomonlik qilmaslik, hyech narsaga suqlanib qaramaslik;
6. Boshqalarni sevishtirish, muhtojlikdan yordam so'ragan o'rtog'idan o'z narsasini ayamamaslik.

Komenskiyning pedagogik nazariyasida ta'lim o'qitish, ya'ni didaktika katta o'rin egallaydi. Uning didaktikasida tabiiylik metodi asosiy rol o'ynab, bu metodning mohiyati, bolaning yoshini bilim hajmini, psixologik xususiyatlarini hisobga olib, darsni tabiat borlig'iga moslab o'tishdan iboratdir. «Buyuk didaktika»da didaktik prinsiplar berilib, dars jarayonida o'qituvchi qo'llashi kerakligi uqtiriladi. Komenskiy ko'rsatmalilik prinsipini nazariy jihatdan isbotlab, faqatgina ko'rsatib o'qitish usuli tariqasidagina emas, balki barcha sezgi organlarini narsa va hodisalarni asosli va yaxshi o'zlashtirib olishga jalb etish vositasi tariqasida keng ma'noda to'g'ri tushunadi.

Ko'rsatmalilikni o'qitishning «oltin qoidasi» deb atadi. Ko'rsatmalilik prinsipida:

- a) bolaga real narsalarni ko'rsatish;
- b) dunyoni rasmlar orqali tushuntirish;
- v) narsalar modelini ko'rsatish;
- g) o'qituvchining so'zi kabi vositalar orqali ko'rsatishni uqtiradi.

Komenskiy ongillik prinsipini o'qitishda ma'no-mazmunini tushunmay, og'zaki yodlashga qarshi chiqadi.

U ta'limning tizimlilik prinsipini ham ilgari suradi. O'qitilayotgan material o'quvchilarga asosiy qoidalar tariqasida lunda bayon qilinishi kerak. O'qitishda dalillardan xulosalarga, misollardan qonunlarga o'tish, dalillar va misollarni qoidalar tizimiga solib, umumlashtirib berish lozim, aks holda, hodisalarning tizimsiz uyumi hosil bo'lib qoladi. Konkretndan abstraktga, osondan qiyinga, umumiydan xususiyga o'tish kerak.

Komenskiy izchillik prinsipida kun, oy, yilga vazifa qo'yish va uni amalga oshirish uchun intilish kerakligi aytiladi. Bunda: a) aniq vaqtni belgilash, b) o'qishning bola yoshiga mos bo'lishi, v) material izchillik bilan o'rganilishi, ya'ni bugungi material ertangi material bilan bog'lanishi va keyingi o'tiladigan materialga yo'l ochish kerak.

Komenskiy materialni mustahkamlash, asosli o'zlashtirib olishlariga katta ahamiyat berib, mustahkam asos vujudga keltirish, o'qitilayotgan narsalarni bir-biriga bog'lagan holda olib borish lozim deydi.

VII asr boshlarida islom g'oyasiga asoslangan Arab xalifaligi tashkil topib, bu davlat o'z mavqeyini mustahkamlash uchun boshqa mamlakatlarni ham zabt etishni biladi. Butun Arabiston yarim oroli shuningdek, Eron, Kavkaz orti, Suriya, Shimoliy Amerika, Janubiy Ispaniya xalifalik tarkibiga kiritildi.

VII asr o'rtalaridan boshlab arablar Movarounnahrda ham hujum qilish rejasini tuza boshladilar.

Arab istilochilarining birinchi yurishi 651 yilda Ubaydulloh ibn Ziyod boshchiligidagi amalga oshirildi. 676 yilda esa Said ibn Usmon rahbarligida Buxoro, So'g'diyona, Kesh, Nasaf shaharlariga hujum qilindi.

Arab istilochilarining ikkinchi yurishi 705 yilda Xuroson hokimi Qutayba ibn Muslim tomonidan boshlandi. U 706 yilda Zarafshon vodiysiga yurish boshlab, Poykend, Buxoro, Samarqand, So'g'd, Farg'ona va boshqa shaharlarni qo'lga kiritdi, so'ng Xorazmni zabt etdi. Qutaybaning istilochilik yurishi u 715 yilda arab qo'zg'olonchi jangchilar tomonidan Farg'onada o'ldirilgandan so'ng to'xtadi.

VIII asrning o'rtalariga kelibgina arablar Movarounnahrni zabt etishga to'la erishdilar.

Xalifalar istilochilar siyosatini o'tkazar ekanlar, barcha xalqlar ustidan madaniy ustunlik o'rnatishga harakat qildilar. Chunki arab xalqi VII asr boshlarida o'ziga xos madaniyat, adabiy til yaratgan bo'lib, unda notiqlik va she'riyat yuqori darajada qadrlangan. Ayniqsa, Qur'onning o'zi ajoyib yuqori adabiy fazilatlariga ega bo'lib, u o'rta asr arab adabiyotining eng nodir adabiy yodgorliklari orasidan o'rin olgan. IX asrda tarkib topgan «Ming bir kecha» ertaklari esa jahon madaniyatining durdonalaridan sanaladi.

Arab tili ham, o'z navbatida, yangi madaniyat tili bo'lib maydonga chiqdi. Bu madaniyat ham qadimgi arab madaniyati, shuningdek, arab davlati hududida yashagan boshqa xalqlar madaniyatining majmuasi edi. Arablar Yunon fanining yutuqlaridan amaliy foydalandilar, ularning faylasuf olim, yozuvchilarning asarlarini tarjima qildilar. Astronomiya, tibbiyot, kimyoga oid barcha yirik asarlar arab tiliga tarjima qilindi. Hatto arab olimlari sun'iy oltin tayyorlash vositasi «falsafa toshi»ni izlaganlar (Kimyo fani alkimyodan boshlanib, oltin izlovchilar «alkimyogarlardan» deb atalgan).

Yunonlardan fanni tasnif etish (klassifikatsiya) olinib, fanlar ikki qismga: nazariy va amaliy qismlarga ajratiladi. Birinchi qismda uch bo'lim – tabiat to'g'risidagi fan, iloxiyot to'g'risidagi va matematika fanlari bo'lib, ular arifmetika, handasi, astronomiya va musiqa kiritilgan. Ikkinchi qism esa, etika, iqtisod va siyosatga bo'lingan. Hind fani arab madaniyatiga, asosan arifmetika, algebra, tibbiyotga ta'sir etgan. Yevropaliklar ham sonlarning Hind nazariyasi bilan arablar orqali tanishganlar, Al Jabr (Algebra) degan arabcha nomni qabul qilganlar.

Arablar ulkan davlat barpo etib, geografiya rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatdilar. Masalan, arab mulklarining dastlabki xaritalari IX asrda tuzilgan bo'lib, ularda daryolar oqimi to'g'risida mufassal ma'lumotlar bo'lgan. Ispaniyada Markaziy Osiyo va Hind daryosigacha cho'zilgan musulmon dunyosi bu haritada batafsil ko'rsatiladi. Ko'p xududlarga arabcha nomlar beriladi. Xususan, Movarounnahr ham arabcha bo'lib, «daryo orti» ma'nosini bildiradi.

Arab xalifaligida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, yagona islom dinining tarkib topishi madaniy, ma'naviy hayotga ham ta'sir etadi. Unda katta ko'tarinkilik ruhini paydo qildi.

Bu ko'tarinkilik butun arab halifaligini, Yaqin va O'rta Sharqni qamrab olganligi uchun Sharq Uyg'onish davri deb ataldi. Bu jarayon IX asrdan boshlanib, XV-XVI asrlargacha davom etdi.

Arab xalifaligida IX asrda vujudga kelgan Uyg'onish davri xalifalikning Bog'dod, Damashq, Xalab shaharlarida boshlanib, barcha boshqa xalqlar madaniy hayotiga tarqalgan bu esa u davlatlarning ham madaniy rivojlanishiga zamin tayyorlagan. Xalifalik yemirilishi natijasida tashkil topgan mustaqil davlatlardagi madaniy rivojlanish xalifalik davridagi madaniy rivojlanishning davomi bo'ldi.

Xalifa Xorun ar-Rashid (786-833) va uning o'g'li Ma'mun davrida Bag'dodda «Baytul hikma» (Donishmandlik uyi) (hozir Akademiya ma'nosida) tashkil etiladi. Mazkur Akademiya barcha ilm soxiblari to'plangan markazga aylanadi. Uning qoshida jahon kutubxonasi tashkil etilgan, rasadxona ham bo'lgan, keyinchalik yangi kutubxona qurilgan. Bog'doddagi mazkur ilm markazi, o'z navbatida Sharq va G'arbda ilm-fanning taraqqiy etishiga, ma'naviy hayotning yuksalishiga ta'sir etgan. Bu o'rinda xalifa Al-Ma'muning ilm fan ravnaqida ko'rsatgan xomiyligini alohida ta'kidlash joiz.

Zero, xalifa Al-Ma'mun ilm-fanni juda qadrlagan. U IX asr boshlarida xalifalikning Xurosondagi noibi bo'lgan vaqtida ham Movarounnahr va Xurosondagi olimlarni to'plab, ularning ilmiy ijodiga sharoit yaratib bergan. Bular orasida al-Xorazmiy, al-Xuddalil, al-Javxariy, al-Farg'oni, al-Marvaziy kabi vatandosh olimlarimiz ham bo'lgan, al-Ma'mun xalifalik taxtiga o'tirgach, u olimlarning barchasini Bog'dodga chaqirib oladi.

Shuningdek, qadimgi yaratilgan madaniy yodgorliklar, ular Xox Yunon, xox arab, Movarounnahr va Xuroson xalqining eng qadimgi antik davrlar madaniyati bo'lsin, uyg'onish davri madaniyatining yaratilishi va rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Agar arablar O'rta Osiyoni bosib olib, bu yerda ilgari mavjud bo'lgan fan va madaniyat o'choqlarini yo'qotgan bo'lsalar, ko'p o'tmay, qadimiy ilmiy an'ana asta sekin tiklanib, natijada ilm-fanning yetuk siymolari yetishib chiqib boshlaydi. Ularning barchasining bir-biriga qo'shuluv natijasida Sharqda bir butun madaniyat tarkib topadi va rivojlana boshlaydi.

Yaqin va O'rta Sharqda, jumladan Eron, Kavkaz orti va O'rta Osiyoda savdo aloqalarining rivojlanganligi, xunarmandchilikning taraqqiy etishi, iqtisodiy va ma'naviy aloqalarning barchasi umumiy rivojlanishga ta'sir etdi. Bu davr madaniy taraqqiyotida arab xalifaligiga bo'ysingan mamlakatlarning xo'jalik-iqtisodiy aloqalarining kuchayishi va uning oqibatida turli madaniyatlar-hind, O'rta Osiyo, Eron, arab, Yunon, Rim madaniyatlarining yaqindan o'zaro aloqasi va bir-biriga ta'sir etib borishi katta rol o'ynadi.

Bu davrda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer maydonlari kengaydi, ko'plab sug'orish inshootlari tiklandi va yangilari qurildi, paxta, zig'ir, kanop ekilib, ular tolasidan mato to'qilgan. Movarounnahrda xususan, Urganch,

Farg'ona, Samarqand va Buxoro to'qimachilik maxsulotlari, ayniqsa Samarqanda va Buxoro shoyisi dunyoga mashxur bo'ldi.

Qishloq xo'jaligi va xunarmandchilik sanoat maxsulotlarini ishlab chiqarilishi savdoni rivojlanishiga yo'l ochdi. Natijada Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining chet davlatlar: Ispaniya, Hindiston, Hitoy, Vizantiya bilan savdo ishlari ko'lamini ortib bordi.

Qarib bir yarim asr davomida xonavayron bo'lgan Movraunnahr xalqi XIV asrning boshlariga kelib mo'g'il istelochilari zulmidan qutila boshladi. Movarounnahrda kuchli davlat tuzishga bo'lgan intilish g'olib keldi. Mo'g'il istelochilariga qarshi Buxoroda xalq Maxmud Tarobiy boshchiligidagi qo'zg'aldi, Samarqand va Xurosonda esa Sarbadorlar qo'zg'olonlari ro'y berdi. Natijada Sarbadorlar uzoq muddat hatto hokimiyatni ham boshqarib turdilar.

XIV asrning ikkinchi yarmida Movraunnahrning feodal tarqoqligiga barham berildi, mamlakat mo'g'il bosqinchilaridan tozalandi. XIV asrning oxiri va XV asrlarda Markaziy Osiyoda feodal munosabatlar yanada rivoj topa boshladi.

Soxibqiron Temur va dastlabki Temuriylar hukumronlik qilgan davr Movarounnahr tarixida alohida o'rin egalladi.

Markazlashgan buyuk Temur davlatining barpo etilishi bilan Movarounnahrda yana fan va madaniyat, muorif qaytadan ravnaq topa boshladi.

Bejiz emaski, XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr tarixida Sharq uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi deb ataldi. Chunki, bu davr madaniyati o'z tamoillari, yo'nalishi, iqtisodiy asosi jihatdan IX-XII asrlardagi madaniy rivojlanishdan ajratib olib ko'rsatish mumkin emas. XIV asrning uchinchi choragi va XV asrda Markaziy Osiyoda ekanomika, fan va madaniyat o'sdi. Amir Temur hukumronligi davrida jahonning ko'plab shaxarlaridan Samarqandga hunarmandlar olimu-fozillar san'atkorlar muxandislar olib kelindi va ularning boy tajribalari, ijodiy mahoratlaridan ilm-ma'rifat, madaniyat, qurilish jabhalarida keng foydalanildi. Samarqand va Xirotda madrasalar, kutubhona va rasadxona qurildi. Tibbiyot ilmini o'rganishga qiziqish yanada kuchaydi. Riyoziyot, falakiyot, jo'g'rofiya, tarix, adabiyot, falsafa hamda tabiyotshunoslikka oid bir qancha ajoyib va muhim asarlar yaratildi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyom, Sa'diy meroslarini shuningdek, yunon-rim madaniyatini o'rganishga xavs kuchaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Temur va uning izdoshlari, Temuriylar davrida fan va madaniyat rivojlandi ayniqsa, Samarqand va Xirotda shaharlari madaniyat, ilm-marifat markaziga aylandi. Shoxizinda, Go'riamir maqbarasi, Bibixonim jome masjidi, Registon maydoni va shu singari, ko'plab madrasa va masjidlarining yirik me'morchilik namunalari bunyod etildi.

Ulug'bek zamoniga kelib esa matematika, astronomiya kabi fanlar ayniqsa rivoj topdi. Tibbiyot, tarix, adabiyot va ular bilan barobar diniy bilimlarning ham ravnaq topishiga katta e'tibor berildi. Oliy maktab-madrasalar qurildi. Buxoro, Samarqand va G'ijduvonda qurilgan uch madrasa fan taraqqiyyotida ilmiy markaz bo'lib keldi.

Buxorodagi madrasa peshtoqiga bitilgan quyidagi yozuvlar haligacha yaqqol ko'zga tashlanadi: «Ilm olmoqqa intilmoq har bir musulman va muslima uchun qarz farzdir».

Shular XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr Markaziy Osiyo tarixida uyg'onish davri bo'lib tarixga kirgan deya olishimizga asos bo'la oladi.

Bu davrda o'zbek adabiyotida ancha siljish ro'y berib, Atoyi, Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Durbek va Lutfiylar tomonidan qimmatli asarlar yaratildi. Shuningdek, tarixiy va adabiy asarlarni o'zbekchaga tarjima qilish ishlari jonlandi.

Ulug'bek olimlarga homiylik qilib, fan ahlini rag'batlantirdi, uning o'zi, ayniqsa, astronomiya va matematika fanlari bo'yicha muhim ishlarni amalga oshirdi Samarqandda Ulug'bek tomonida rasadxonaning barpo etilishi va uning o'sha davr ilmiy markaziga aylanishi muhim voqea hisoblanadi. Shu davrda Samarqandda Qozizoda Rumiy, Jamshid bin Ma'sudi, Muyiddin va uning o'g'li Mansur Qoshiy, Ali ibn Muhammad Birjondiy va boshqalar ijod etdilar. Xirotda esa Alisher Navoiy Abdurahmon Jomiy ulug' rassom Bexzod, tarixshunos Xondamir, xattot Sulton al-Mashhadiy va boshqalar ijodiyot cho'qqilariga ko'tarildilar.

Ulug'bekning shogirdi Aloviddin Ali ibn Muhammad Qushchi Samarqandiy (1403-1474) o'sha davr Movarounnahrning madaniy va ilmiy hayotida katta rol o'ynaydi. Astronomiya to'g'risida "Risolai dar falakiyot" degan kitob yozgan Ali Qushchining o'z davrining Ptolomey deydirdi. Uning mazkur asarida geometrik bilimlarning asoslari bayon qilindi, nuqta, chiziqli, yuza, aylana va shu kabi tushinchalar to'la ta'riflab berildi, tabiyot fanlari va shuning singarilar sohasida boshlang'ich bilimlar bayon qilindi. Bu asarda hamma narsa oddiy va murakkab narsalarga bo'linib ta'riflanadi.

XIV-XV asrda Samarqandda yashab ijod etgan ulug' alloma Mir Said Sharif Jurjoniy (1340-1413) til, mantiqqa, huquqqa, falsafa va boshqa fanlarga oid 50 dan ortiq asar yozdi. Uning "Borliq haqida risola", "Olamni aks ettiruvchi oyna" kabi asarlarida falsafa, mantiq, tarbiyashunoslikka oid bir qator ilmiy va nazariy masalalar yoritilib, Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga doir izlanishlarini rivojlantirdi va boyitdi.

XV asrda Markaziy Osiyoda tarix fani keng rivoj topdi. Hofizi Abro' "Zubdan tavorix" ("Tarixning qaymog'i") degan kitob yozdi va bu kitobda 1427 yilgacha bo'lgan voqoyalarni bayon qilib berdi. Abdurazzoq Samarqandiy Hofizi Abro'ning bu asarini davom ettirdi. U o'zining "Matalai sa'dayi va majman bahrayi" ("Ikki saodatli yulduzning chiqish joyi va ikki dengizning qo'shilish joyi") degan asarida 1471 yilgacha bo'lgan voqoyalarni bayon qilib beradi. "Ravzotus safo" asarini yozgan Mirxond va "Habibus siyar" asarini yozgan Xondamir shu asarlarning bir qismini Sulton Husayin hukumronlik qilgan davrga bag'shlaydilar. Davlatshoh esa o'zining "Tazakiratsh shuaro" asarini Alisher Navoiyga bag'ishlaydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”da Hirot to’g’risida yozar ekan butun dunyoda bunday obod shaharlarni ko’rmaganligini aytdi.

Hirotida machit va madrasalarning muazzam binolarini, ijtimoiy foydali inshootlar: hammomlar, shifoxonalar, xovuzlar, bog’-rog’lar, ko’priklar, karvon yo’llaridagi robitlar va boshqa arxitektura inshootlarini qurishga Alisher Navoiy tashabbuskor bo’ladi.

Buyuk mutafakkir Alisher navoiy til-adabiyot, musiqa, tarix, falsafa, astronomiya, tarbiya nazariyasi sohasida juda ko’p ilmiy asarlar yaratdi. U fan va maorifni birinchi darajadagi muhim ish deb hisoblaydi, ularni rivojlantirish uchun tinmay kurashadi.

Alisher Navoiy davrida Hirotida kitoblarni bezash san’ati, avvalo, xattotlik va miniatyura yuksak darajaga yetdi. Hirotida xashamatli arxitektura inshootlari yaratildi. Ilmiy munozaralar o’tkazish keng yo’lga qo’yildi.

Bu davrda Movarounnahrda ham san’at, aritektura, binokorlik texnikasi ancha ravnaq topdi. Musiqa, tasviriy san’at, madaniyat, adabiyot, ta’lim-tarbiyaga oid qator asarlar yaratildi. Hasan Buxoriy Nisoriyning (1556) “Muzakkir al-ahbob” tazkiri, Mutribiyning “Tazkira – tush shuaro” (1604-1605) to’plamlari, tarixiy va adabiy yodgorlik bo’lgan “Boburnoma” o’sha davrda yaratilgan asarlar orasida o’ziga xos ahamiyat kasb etadi. Amin Axmad Roziy “Hafit iqlim” (“Yetti iqlim”) degan geografik-bibliografik lug’at tuzdi. Darvesh Muhammad ibn Do’stmuhammad Buxoriy xattotlik san’atining nazariyasi to’g’risida asar yozdi.

XVI asrda xattotlik san’ati yuksak darajaga yetdi. Sulton Al Mashhadiy. Mirali Halvaiy, Muhammad ibn Is’hoq ash-Shixabiy va boshqalar ustoz xattot bo’lib nom qozondilar.

XIX asrlarning o’rtalarida Turkiston o’lkasida boshlang’ich ma’lumot beradigan maktab hamda o’rta va oliy diniy ta’lim beradigan madrasalar mavjud edi. Maktablarning aksariyati shu jumladan, qishloq maktablarining ko’pchiligi diniy ta’lim beruvchi eng oddiy boshlang’ich maktablar edi xolos. Bu maktablarda machitlarining imomlari, savodxon muallimlar dars beradilar. Bunday maktablarda o’qitishga eng oddiy diniy vazifalarni o’rgatish bilan, ya’ni arab tilida yozilgan Qur’onni o’qishni o’rgatish, har bir musulmon uchun zarur bo’lgan asosiy vazifalarni bildirish bilan cheklanardi.

Shahar maktablarida diniy ta’limdan tashqari, umumiy ta’lim elementlari – yozish va hisoblash yo’llari o’rgatiladi, xalq orasida mashhur shoirlarning she’r va g’azallari o’qitilar edi. Odatda bunday maktablarning o’quvchilari badavlat oilalarning bolalari bo’lar edi. Ular o’qishni tamomlab olgach, bilimlarini savdo-sotiq ishlarida, hunarmandchilik ustaxonalarida qo’llar edilar, ba’zilar qo’shimcha ta’lim olib, hattotlik kasbi bilan shug’ullanar, ba’zilar madrasaga kirib o’qishni davom ettiradilar.

Oliy diniy maktab bo’lgan madrasada o’rta asrga oid diniy falsafiy va musulmon huquqlari, arab tilining grammatikasi va mantiq ilmidan dars o’tilardi. Madrasani tamomlab chiqqanlar imomlik bilan shug’ullanish va qozixonalarda ishlash huquqiga ega bo’lar edilar. Maktab va madrasalarda asosan o’g’il bolalar o’qitilar edi. Shaharlardagi diniy maktablarda ba’zi domlarning xotinlari – otinoylar qizlarni ham o’qitish bilan shug’ullanar edilar. Maktab va madrasalarda dars o’zbek, arab fors-tojik tillarida olib borilardi.

1. Quyi maktab bu maktabda o’g’il bolalarga savdo o’rgatishga (4 yil).
2. Xalilxona maktabi – (namoz) yod oldirib o’rgatilgan.
3. Qorixona – Qur’on yod olingan.
4. Maktab internat – o’rta madrasa bo’lib, bu maktabda ham diniy, ham dunyoviy fanlar o’qitilib o’rta ma’lumot berilgan.

Markaziy Osiyoda keyinchalik ba’zi o’zgarishlar yuz berdi. Musulmon maktablari uchun bosmaxonalarda chop qilingan darsliklar paydo bo’ldi. Qozonda bosmaxonada nashr qilingan qur’on va xavtiyaklar, Hindiston va Erondan shoirlarning litografiya chop etilgan to’plamlari keltirildi. Toshkentning o’zi ham maktablar uchun darsliklarni litografiya usulida nashr qilish yo’lga qo’yildi.

Asrimizning boshlariga kelib Turkiston o’lkasidagi yirik markaziy shaharlarda oliy ta’lim maskani hisoblangan quyidagi madrasalar: Buxoroda – 80, Qo’qonda – 40, Samarqandda – 22, Marg’ilonda – 28, Toshkentda – 17¹, Xeva xonligida – 130² mavjud bo’lib, ular 400 dan 5000 tagacha talaba taxsil olar edi.

1906 yilga kelib Samarqand viloyatining o’zida 1510 ta musulmon maktabi bor edi, ular 1482 o’quvchi 12740 talabaga saboq bergan.

Umuman olganda Turkiston o’lkasida 1905-1906 yillarda 5290 ta maktab bo’lib, ularda, 10955 talaba ta’lim olgan.

Bu davrga kelib maxalliy fuqaro bolalaridan ilmiy kishilar tayyorlash maqsadida Xeva xoni Sayid Muhammad Rahimxon Boxodirxonni soniy – Feruz (1844-1910 y.) katta ishlarni amalga oshirdi. Bevosita uning tashabusi bilan 1884 yili o’z saroyida maktab ochilib, bu maktabda rus o’qituvchisi va Mirzo, Raxmoyequl qori kabi mahoratli ta’lim-tarbiya ustalari yoshlarga bilim berish ishi bilan shug’ullanadilar.

Feruz farmoniga muvofiq 1904 yilning 10 noyabrida Urganchda birinchi yangi usul maktabi ochildi. Uni Xusayin Qo’shayev degan Turkiyadan kelgan o’qituvchi yoshlarga ta’lim-tarbiya bera boshladi.

Musulmon aholisi yashaydigan joylarda qadimdan maktab-madrasa va hakoza mavjud bo’lib, bularga qarshi chor hukumat Rossiya’dagi ko’p sonli xalqlar maxsus hukumat maktablari barpo qilinar edi. Ularning biri – to’rt yillik, ikkinchisi – ikki yillik edi. Ba’zi bir to’rt yillik maktablarda internatlar ham bo’lib, ular faqat feodallarning va maxalliy aholining boy qatlam bolalari ta’lim olardi. Ammo mehnatkashlarning bolalari uchun yo’lga qo’yilgan ikki yillik savod chiqarish maktablari ochilgan edi. O’qish muddati ikki yil bo’lgan milliy maktablarda, masalan, qozoqlarda ovul maktablari, deb atalgan maktablar tipik maktab sanalar edi.

Dastlabki ovul maktablar 1892 yilda To’rg’ay oblastining ovullarida tashkil topgan bo’lib, aholining ko’chmanchilik turmushiga moslashtirilgan edi. Ovul maktablarida rus tili, arifmetika, qozoq alifbosi va islom dini o’qitilar edi. 1916

yilda 169 ta ovul maktabi bo'lib ularda 5 ming o'quvchi o'qirdi, bu maktab yoshidagi barcha qozoq bolalarining faqat bir foizinigana tashkil etardi, xolos. Rus maktablarda o'qitish rus tilida, diniy ta'limot esa o'quvchilarning ona tilida olib borilar edi.

O'rta asrda maktablarni isloh qilishdan bosh tortgan chorizm, ruslar o'rnashgan yerlarni rus maktablarini Turkistonda maorif sohasida o'z siyosatining quroli qilib olishga harakat qildi. (Toshkentda dastlabki rus maktabi 1866 yilda ochilgan edi.) rus maktablariga ruslar bilan birga o'qish uchun mahalliy aholi bolalari ham qabul qilinardi. Turkistondagi boshlang'ich rus maktablarida hunarga Rossiyaning Yevropa qismidagiga qaraganda, ancha ko'proq o'rgatilar edi; bundan maqsad mahalliy aholining bolalarini maktabga ko'proq jalb qilish edi.

Turkistonda dastlabki rus o'rta o'quv yurtlari 1870 yillarda ochila boshladi: 1876 yil Toshkentda, Verniyda (hozirgi Olmaotada) erlar va xotin-qizlar gimnaziyalari. 1879 yili esa Toshkentda o'qituvchilar seminariyasi ochildi. Gimnaziyalarga har yerli aholining bolalari qabul qilinardi. O'qituvchilar seminariyalarida mahalliy aholining 1G'3 o'rin ajratilgan edi.

Chorizm maktab sohasidagi siyosati ruslashtirishdan iborat bo'lsa ham, lekin rus bolalari bilan mahalliy aholi bolalarining birgalikda o'qishlari, ular o'rtasida o'zaro do'stlikni tarbiyalar edi.

Rus maktabiga o'qishga kirgan bolalar rus tilini mutloq bilmas edilar, natijada ancha qiyinchiliklar tug'ilar edi. Shuning uchun rus maktablariga kirgan, lekin rus tilini mutloq bilmaydigan o'quvchi rus tilida so'zlashishni o'rganib olmaganicha odatda quyi bo'limda o'qir, rus tilida so'zlashishni o'rganib olgandan keyingina yuqori bo'limga o'tkazilardi. Yuqori bo'limlarga o'quv yilining o'rtalarida ham o'tkazilar edi, chunki maktab kichkina bo'lib, bir vaqtning o'zida mashg'ulotlar bir necha bo'limlar bilan olib borilar edi.

Toshkentdagi gimnaziya dastlabki yillarda, mahalliy aholining bolalarini rus tili bilan ko'proq shug'ullantirish uchun lotin tilini o'rganishdan ozod qilinardi.

Buxorodagi ma'rifatparvar musulmon ruxoniylari va ziyolilar orasida madrasa va maktablar tizimiga hamda islom diniga kirib qolgan bid'atlarni isloh qilish fikri paydo bo'la boshlaydi. Shunday isloh tarafdorlarini jadidlar, ya'ni yangilik tarafdorlari deb atay boshlaydilar. O'sha davrdan boshlab bunga qarama-qarshi turgan oqim, ya'ni feodal-o'rta asrchilik, diniy fanatizm ruhida bo'lgan kishilarni esa qadamistlar deb atay boshladi. XIX asr boshlarida bir qancha ma'rifatparvar mudarrislar Buxoro shahridagi 200 ga yaqin madrasani isloh qilish g'oyasi bilan chiqdilar. Bu harakat boshida madrasa mudarrisi Abu Nasr Al Kursaviy turgan edi. Qadimistlar esa ularni kofirlik va xudosizlikda aybladilar. Buxoro amiri Haydar esa Kursaviyni zindonga tashlatib o'lim jazosiga hukm qiladi. Ammo uning tarafdorlari uni zindondan qochiradilar. Kursaviy Qozonda o'z faoliyatini davom ettirib, 1813 yilda vafot etadi. XIX asrning 50-60 yillarida diniy islohotchilik harakati yanada kengaya boshlaydi. Endi bu harakat boshida Buxorolik mudarris va tarixchi olim Marjoniy, G'ijduvonlik domla Fozil, Mo'minjon Vobkandiy, mulla Xudoyberdi Boysuniy va boshqa mudarrislar turar edilar. Ular madrasa va maktablarni isloh qilishni emas, balki ortiqcha darslarni olib tashlash tarafdori ekanliklarni yozadilar. Islohotchilar rahnamosi Marjniy o'zining dasturida quyidagi olti asosiy masalalarni qo'yadi:

1. Qur'ondagi har qanday diniy masala yuzasidan kishilar bilgan holda o'zlari erkin fikr yuritsinlar.
2. Birovning bironvga ko'r-ko'rona ergashishi qat'iy man qilinсин.
3. Madrasalarda o'qitiladigan hoshiya va Sharq kabi quruq mazmunga ega bo'lgan va madrasa o'quvchilari uchun foydasiz bo'lgan hamda ularning 8-10 daqiqa vaqtini bekorga oluvchi darslar dars jadvallaridan olib tashlansin.
4. Madrasalarda Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, ularning tarjimalari va islom tarixi kabi darslar o'tilsin.
5. Arifmetika, tarix, jo'g'rofiya, tabobat, handasa, mantiq, falsafa va boshqa dunyoviy fanlarni o'qishga qarshilik ko'rsatmasin.
6. Har bir ishda musulmonchilikni Muhammad alayxissalom davridagi qadimiy islom madaniyatiga qaytarish ko'zda tutilsin.

Yangi usul maktabda quyidagilarga:

Sinfda bolalar soni o'ttizzadan oshmaslikka:

Bolalar faqat ikki daf'a – yoz va qish boshlaridagina maktabga qabul qilinishi;

Har qabul nechta bo'lishidan qa'iy nazar, bir sinfdan oshmasligi;

Har bir muallimda ko'pi bilan 3-4 sinf bo'lishi;

Agar maktab uch sinfdan iborat bo'lsa, darslar ketma-ket ma'lum uyg'unlikda qo'yilmog'i, amal qilinmog'i kerak edi.

Yangi Sho'ro hukumati avvalgi ta'lim tizimi, o'quv-tarbiyaviy ishlarni isloh qilish, xalq maorifi tizimining yangi shaklini joriy etish yuzasidan bir qator vazifalarni belgilab berdi.

Bunday tadbirlarni amalga oshirish Turkistonda Xalq Komissarlari Sovetining 1918 yil 14 maydagi dekreti asosida boshlandi. O'quvchilarga ilm-fanning zarur asoslari bilan bir qatorda, mehnat ko'nikmalarini ham bera oladiga yagona Sho'ro "Mehnat maktabi" xalq maorifi uchun asosiy negiz qilib olindi.

Lekin yangi maktablarni vujudga keltirish bir qancha muammolarga duch keldi. Ayniqsa, o'qituvchining yetishmasligi, darsliklarning va maktab jihozlarining yo'qligi ishni yanada qiyinlashtirdi.

1918 yilning iyunida Toshkentda maorif xodimlarining birinchi syezdi ochilib, unda xalq maorifi sohasidagi ahvol muhokama qilindi hamda uni qayta qurish bo'yicha tadbirlar belgilandi.

1918 yil dekabrda Turkiston Respublikasi xalq maorifi komissarligi buyruq chiqarib, hamma maktablarda ona tili v rus tili o'qitish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Ushbu qarorni qo'llab-quvvatlanishi natijasida mahalliy millatga mansub xotin-qizlarni madaniyatga, ilm-fanga, ijtimoiy hayotda faol qatnashishga jalb qilish harakati jadal yo'sinda avj olib ketdi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan yirik allomalardan biri Isxoqxon Ibratdir. U ma'rifatparva shoir, zabardast tilshunos, tarixshunos olim, ilk o'zbek matbachiligidan biri sayyoh, kalligraf, naqqoshin publisist va ilg'or pedagogdir.

Is'hoqxon 1279 xijriy (1862 milodiy) yilda Namangan yaqinidagi To'raqo'rg'on qishlog'ida tug'ildi. Uning otasi Junaydullaxo'ja Sunatillaxo'ja o'g'li ancha bilimli sohibkor bog'bonlardan edi. U adabiyotga, she'riyatga ancha ixlos qo'ygan va "Xodim" taxallusi bilan bir muncha she'rlar bitgan kishi bo'lgan. Onasi Xuribibi, o'z davrining o'qimishli, Bedil, Mashrab kabi buyuk shoirlarning asarlarini mutola qilish bu xonadon uchun sevimli mashg'ulot hisoblanardi. Oiladagi bunday hayotiy vaziyat Is'hoqxonda adabiyotga muhabbatning erta paydo bo'lishi uchun asosiy omil bo'ldi.

Is'hoqxon Ibrat madrasa beradigan ilmlar bilan cheklanib qolmadi u o'qish moboynda buyuk Sharq mumtozlari asarlarini mustaqil tarzda qunt bilan mutolaa qildi va bu asarlar umrining oxirigacha unga eng yaqin xamroxi bo'ldi. Is'hoqxon madrasada arab va fors tillarini chuqur o'rganish bilan birga bo'sh vaqtlarida rus tilni ham mustaqil o'rgandi u rus va o'zbek tillarida chiqadigan "Turkistanskiye vedemosti" (Turkiston viloyatining gazetisi) biln ilk bor Qo'qon madrasasida o'qib yurgan kezlarida tanishib chiqdi.

Is'hoqxon Ibrat 1886 yilda Qo'qon madrasasini tugatib o'z qishlog'i To'raqo'rg'onga qaytib keldi va u o'z ijodini ilg'or o'qituvchi sifatida qishloqda ma'rifat tarqatish bilan boshladi. O'sha yili u o'z qishlog'ida maktab ochdi. Is'hoqxon ochgan maktab eski mahalla maktablaridan ancha farq qilar edi. Is'hoqxon o'z maktabiga nisbatan ilg'or bo'lgan tovush (savtiya) metodini tadbiiq qildi va Usuli savtiyaning eski metod taraftorlaridan himoya qildi.

Rus tili bilan bir qatorda yaqin Sharq va G'arb tillarini ancha mukammal bilgan Is'hoqxon Ibrat bu muhim masalada ham o'z xalqiga yordam qo'lini cho'zdi. U olti tildagi arabcha, forsha, hindcha, turkcha, sardcha (o'zbekcha) va ruscha so'zlarni o'z ichiga olgan "Lug'ati sitta-al-sina" nomli mukammal lug'at kitobini yaratdi. Muallif ruscha yozuv sistemasini bilmaydiganlarga ham qulay bo'lishi uchun rus so'zlarini arab yozuvi bilan beradi. Ma'lumki, rus va yevropa so'zlarini arab yozuvida ifodalash ancha murakkab ish, lekin Is'hoqxon Ibrat bu murakkab ishni muvaffaqiyatli hal qildi.

Is'hoqxon Ibrat 1886 yilda eski maktablarga nisbatan bir muncha ilg'or bo'lgan maktab ochdi. 1907 yilda ikkinchi Marmuncha qishloq bolalari uchun eski maktabalardan butunlay farq qiluvchi bepul yangi usuli savutiya maktabini ochdi.

Saidahmad Siddiqiy hunarmand - dexqon oilasida tug'ilib o'sdi. Boshlang'ich maktabni tugatganidan so'ng madrasaga o'qishga kirdi. Shuning bilan bir vaqtda rus tilida tashkil etilgan maktabga ham qatnay boshlaydi va rus tili ham adabiyotni mukammal egallab bordi.

Saidahmad Siddiqiy Samarqand viloyatidagi Xalavon nomli o'z qishlog'ida dexqon va hunarmandlarning bolalariga yangi usul maktabini tashkil etib, unda ta'lim-tarbiyani o'sha davr ilg'or maktablarining tajribasi asosida quradi. U eski maktab ish faoliyatida xato-kamchiliklarni qattiq tanqid ostiga oladi va yangi usul maktabning ijtimoiy, siyosiy va pedagogik yutuqlarini keng yoritishga dalil e'tibor beradi.

Siddiqiy viloyatda birinchi bor katta yoshlar uchun yangi usul maktab ochib, madaniy hayotda katta o'zgarishlar yasadi. U 1914 yil "Zarafshon" nomi bilan kitob savdo do'koni ochib, unda ko'rgazmali qurollar, metodik, darslik adabiyotlar, o'quv qurollari hamda jurnallar bilan savdo qilishga sharoit yaratdi.

Siddiqiy ta'lim usuliga katta mehr bilan munosabatda bo'lib, o'qitishning yangi usulini ilmiy, ongli, tushunib o'qitish prinsiplarini eskicha hijjalab o'qitishga qarama-qarshi qo'ydi. Mohir o'qituvchi darslarni qat'iy tartib dars jadvali asosida tashkil etib, o'zbek, rus tillarida chuqur ta'lim bera olgan. U tabiatshunoslik, geografiya darslarida mashg'ulotlarni Bulung'ur daryosi yonida ochiq havoda amaliy mashqlar bilan o'tishga erishgan.

Saidahmad Siddiqiy 1918-21-yillar davomida huquq ishlari komissari vazifasida ishladi. 1921 yildan umrining oxirigacha pedagogik ishda ishlagan, "Xizmat ko'rsatgan o'qituvchi" yuksak univoniga sazovor bo'lgan.

Taniqli o'zbek pedagogi va olimi Abdulla Avloniy 1878 yil 12 iyulda Toshkent shahrining Mergancha mahallasida, mayda hunarmand-to'quvchi oilasida dunyoga keldi. Ota-onasi savodli kishilar bo'lganlar. A.Avloniy eski usul maktabini tamomlagandan keyin 12 yoshida madrasiga boradi. U yozda ishlab ota-onasiga yordam qilar, boshqa vaqtlarda o'qir edi. O'ta iqtidorli bo'lgan A.Avloniy 15 yoshida she'rlar yoza boshladi. Dastlabki she'rlari «Tarjimon» gazetasida bosiladi. A.Avloniy 1907 yilda «Shuhrat» va «Osiyo» nomli yangi gazetalar chiqara boshlaydi. Lekin chor amaldorlari tez orada gazetalarini yoptirib qo'yadi. A.Avloniy keyinroq «Sadoi Turkiston» (1914-1915), «Turon» (1917), «Ishtirokiyun» (1918) gazetalarida, «Kasabachilik harakati» (1921) jurnalida muharrir bo'lib ishlaydi. Shundan so'ng, u o'zbek matbuotining zabardast vakili, o'zbek matbuotining asoschilaridan biri sifatida taniladi.

A.Avloniy xalq orasida ilg'or fikrlarni tarqatishda, ilm va ma'rifatni tashviq qilishda gazeta, jurnallarning roli katta ekanligini yaxshi bilar edi: «Matbuot har insonga o'z holini ko'rsatuvchi, ahvol olamdan xabar beruvchi, qorong'u kunlarni yorituvchi, xalq orasida ilm, ittifoq, himmat g'oyalari»ni yoyuvchidir, deb baliqning suvsiz yashamog'i mumkin bo'lmagani kabi insonning ham ilmsiz yashamog'i mumkin emasligini uqtiradi.

A.Avloniy o'zbek xalqining san'ati va adabiyoti hamda milliy madaniyatini, xalq ta'limi ishlarini yo'lga qo'yishda katta xizmatlar qilgan adib, jamoat arbobi va iste'dodli pedagogdir.

A.Avloniy 1917 yil tuntarishiga qadar Turkistonda juda katta ijtimoiy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirgan jadidlar harakatining ko'zga ko'ringan namoyon7dalaridan biri edi. A.Avloniy ilg'or ziyoli kishilar bilan hamkorlikda teatr tomoshalarini va matbuotdan tushgan mablag'larga dunyoviy ilmlarni o'qitadigan «Usuli jadid», ya'ni yangicha ilg'or usuldagi maktablar ochdilar va bu maktablarda xalq bolalarini o'qitdilar. Ular o'z millatlaridan yetuk olimlar, bilimdon mutaxassislar, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurti obod, vatanni ozod, farovon etishlarini orzu qildilar va bu yo'lda fidoyilik ko'rsatdilar.

A.Avloniy 1907 yilda Toshkentning Mirobod mahallasida, keyinchalik Degrez mahallasida yangi usuldagi maktablar ochdi. Maktablardagi o'quv asbob-jihozlarini o'zgartirdi, o'z quli bilan parta va doskalar yasadi. Maktabga qabul qilingan bolalarning asosiy qismi kambag'al kishilarning bolalari bo'lganligi uchun ularni kiyim-kechak, oziq-ovqat, daftar-qalam bilan ta'minlash maqsadida, do'stlarining ko'magida «Jamiyati xayriya» tashkil etadi va bu jamiyatga o'zi raislik qiladi. «Nashriyot» shirkati tuzib, Xadrada «maktab kutubxonasi» nomli kitob do'konini ochadi. A.Avloniyning maktabi o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga ko'ra mashg'ulotlarni sinf-dars tizimi asosida o'z ona tilida olib borilishi bilan eski usul maktablaridan farq qiladi. U o'z maktabida bolalarga geografiya, tarix, adabiyot, til hisob, xandasa, hikmat kabi fanlardan muayyan ma'lumotlar beradi.

A.Avloniyning ilk o'quvchilaridan biri Toshkent Davlat Universitetida uzoq yillar dars bergan taniqli pedagog, marhum Yusuf Tohiriy A.Avloniy Mirobodda tashkil qilgan maktab haqidagi xotiralarida shunday deb yozgan edi:

«Shaharning qarama-qarshi chekkasida temiryo'l ishchilari istiqomat qiladigan Mirobodda yangi tipdagi maktab ochilganligi haqida eshitib qoldik. Tez orada bu maktabning fazilatlarini haqidagi shov-shuvlar, uning muallimi A.Avloniyning dovrug'i butun shaharga tarqaldi. Hammaning tilida «Miroboddagi maktab 6 oyda o'qish yozishni o'rgatarmish, geografiya, hisob, tabiatni o'rganish degan darslar o'qitilmish», - degan gap yurardi. Bizga juda sirli tuyulgan bu maktabni va uning donishmand muallimini ko'rishga oshiqardik. Nihoyat bir kuni uch-turttamiz borishga jazm qildik.

Maktab pastdakkina, nim qorong'i bo'lib, masjid yo'lagida joylashgan edi. Xonaning tepasidagi yorug'lik uchun qoldirilgan tuynukdan qish va bahorda qor bilan yomg'ir ham tushib turardi. Lekin xonada o'quvchilar va domlarning shogirdlari ko'p edi. Xayolimizda domlarning allaqanday bir sirli tomoni bor edi. Bizni qotmagina, kichik jussali, qorachadan kelgan, istarasi issiq, chuqqisoqol bir kishi ko'tib oldi. Bu nomi tilga tushgan muallim A.Avloniy edi. O'qishga qabul qilindik. Ko'p o'tmay ko'z oldimizda yangi bir dunyo ochilganiga to'la ishonch hosil qildik. Bolalarimizning oldi bir necha yildan beri maktabga qatnab yurgan bo'lsalar ham Mirobodliklar oldida uyalib qoldik. Ular o'qish, yozishda, hisob masalalarini xal etishda, tabiat hodisalaridan xabarlarini bilan hammamizni lol qoldirdi. Ayni zamonda bizni eski maktabimiz bo'shab, Miroboddagi A.Avloniy maktabi bizdan borgan bolalar bilan liq to'ldi. Shu tariqa bu maktab tobora shuhrat topib bordi».

A.Avloniy «Usuli jadid» maktablari uchun to'rt qismdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» hamda «Birinci muallim» (1912), «Turkiy guliston yoxud axloq» (1913), «Ikkinchi muallim» (1915), «Maktab gulistoni» (1917) kabi darslik va o'qish kitoblari yaratdi. Bu asarlarida hamda publisistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm- fanni va maorifni ulug'lab o'z xalqini ilimli, madaniyatli bo'lishga chaqiradi.

Asrimiz boshlarida yangi maktablar uchun yozilgan alifbelar anchagina edi. Shular orasida Avloniyning «Birinci muallim» 1917 yil to'ntarishga qalar to'rt marta nashr etilgan.

Avloniyning «Ikkinchi muallim» kitobi «Birinci muallim» kitobining uzviy davomidir. Biz birinchi kitobni, shartli ravishda, alifbe deb, ikkinchi kitobni xrestomatiya deb atasak joiz bo'lar, desak xato bo'lmas.

Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari ichida «Turkiy guliston yoxud ahloq» asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotining o'rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir.

«Turkiy guliston yoxud ahloq» asari ahloqiy va ta'lim tarbiyaviy asardir.

O'zbek pedagogikasi tarixida A.Avloniy birinchi marta pedagogika «Pedagogiya», ya'ni bolalar tarbiyasining fani demakdir, deb ta'rif beradi. Tabiiy bunday ta'rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganidan dalolat beradi.

Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy quydagi to'rt bo'limga ajratdi: 1. «Tarbiyaning zamoni». 2. «Badantarbiyasi». 3. «Fikr tarbiyasi». 4. «Ahloq tarbiyasi» va bu haqida hamda unig ahamiyati haqida so'z yuritadi.

«Tarbiya zamoni» bo'limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta'kidlaydi.

«Al-hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir» deb uqtiradi, Avloniy.

Abdurauf Abduraxmon o'g'li Fitrat 1886 yili Buxoro shahrida tug'ildi. «Fitrat» Abduraufning adabiy taxallusi bo'lib, bu so'z tug'ma tabiat, tug'ma iste'dod degan ma'noni anglatadi.

Abdurauf Fitrat zullisoniy yozuvchi sifatida Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy an'alarini davom ettirib, o'zbek va tojik tillarida birday mukammal asarlar yarata oldi. U tojik tilida yozgan «Sayyohi hindi bayonati», «Rahbari najot», «Sayha», «Vose qo'zg'oloni», «Amir Olimxonning hukumronlik davri» kabi asarlarida va o'zbek tilida yaratgan «Oila», «Qiyomat», «Begijon», «Munozara», «Oq mozor», «Abdulfayzxon» va boshqa maqol hamda asarlarida xal orasida madaniyat tarqatish va ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surdi. Shuning uchun ma'rifatparvar Fitratning barcha asarlarida ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor beriladi.

Fitrat ota-onaning vazifasi o'z farzandlarini yetuk kishilar qilib tarbiyalashlari zarurligi, bunda ayniqsa, uch tarbiya: 1. Jismoniy tarbiya – salomatlik, 2. Aqliy tarbiya – sog'lom fikrlilik, 3. Ahloqiy tarbiya – ahloqiy sano, ya'ni ahloqiy poklikka e'tibor berish kerakligi ta'kidlanadi.

U bola tarbiyasi faqat oiladagina olib borilmasdan, bu ish bilan keng jamoatchilik, davlat ham shug'ullanishi kerakligini, chunki davlatning kelajagi mana shu yoshlar qo'lida bo'lishini ta'kidlab o'tadi. «Bolalarni barkamol qilib yetkazish uchun uning tarbiyasiga faqat oilagina javobgar bo'lmasligi, butun qavm a'zolari javobgardirlar, chunki yoshlar har tomonlama yetuk inson bo'lib tarbiyalansa, qavmning kelgusi taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ladi».

Savol va topshiriqlar.

1. Ma'rifiy (pedagogik) fikrlar va ularning tarixiyli haqida tushuncha bering.

2. Jahon ma'rifiy fikrlarining tarixiy-pedagogik tahlil qilib bering. (Qadimgi Yunoniston, Rim, G'arbiy Evropa, Ya.A.Komenskiy, I. G.Pestalotsti, K.D.Ushinskiy).

- 3.O'zbekiston hududida eng qadimgi davrdan XIV asrgacha ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti haqida nimalarni bilasiz? (xalq og'zaki ijodi, qadimgi yozma yodgorliklar, zardushtiylilik, islom dini, hadis ilmi, Sharq uyg'onish davri va ma'rifiy qarashlari: Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf xos Hojib).
- 4.XIV-XVI asrlarda maktab va ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti haqida gapirib bering (Amir Temur, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy).
- 5.O'zbekistonda 1917-1990 yillarda (ikkinchi jahon urushiga bo'lgan va urushdan keyingi davrda) maorif va ma'rifiy fikrlar taraqqiyotida nimalar bilasiz?
- 6.Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'lim-tarbiyaning rivojlanishi haqida gapirib bering.(AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, Frantsiya, Germaniya).

Zamonaviy ta'lim-tarbiya va uning mohiyati.

1.Pedagogikaning asosiy kategoriyalari va tushunchalari.

2.Pedagogikaning metodlari.

3.Pedagogikaning tarmoqlari.

4.Pedagogikaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi

1.Pedagogikaning asosiy kategoriyalari va tushunchalari. Pedagogika (yunoncha paidagogike bo'lib, paidagogos «bola» va «etaklayman») ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan. Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlod hamda kattalarni milliy istiqlol g'oyalari asosida tarbiyalash, unga ta'lim berish muammolarini o'rganadi.

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati – uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy ehtiborni haratganligi bois didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Didaktika ((ta'lim nazariyasi, yunoncha didaktikos «o'rgatuvchi», didasko «o'rganuvchi») ta'limning nazariy jihatlarini, ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'qituvchi faoliyatlari, ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolarni tadqiq etadi.

Ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra umumiy va maxsus kabi turlarga ajratiladi. Umumiy ta'lim har bir shaxsning kamol topishi hamda u tomonidan hayotiy faoliyatni tashkil eta olishi uchun zarur bo'lgan Ma'lumotlarni berishga yo'naltiriladi. Umumiy ta'lim asosida o'zlashtirilgan Ma'lumotlar kelgusida shaxsning kasbiy tayyorgarligini tahminlashga imkon beruvchi maxsus ta'lim olishi uchun asos bo'ladi. Maxsus ta'lim – o'zida mutaxassislik xususiyatlarini namoyon qilib, shaxsga muayyan kasbiy faoliyatni tashkil etish borasida nazariy bilimlarni berish asosida amaliy ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim, shuningdek, turli darajadagi ta'lim dasturlarini amalga oshirishga ko'ra maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash hamda maktabdan tashqari ta'lim kabi turlarga bo'linadi.

Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.

Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir.

Ijtimoiy tarbiya aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, iqtisodiy, huquqiy, ekologik va jinsiy tarbiya kabi yo'nalishlarda tashkil etiladi.

Ijtimoiy tarbiya va uning bosqichlari. Insoniyatning yashash uchun kurashish va turli tabiiy ofatlardan himoyalash yo'lida olib borgan harakatlari tarbiya g'oyalarining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumida odamlarning guruh-guruh bo'lib hayot kechirishi sababli bolalarga tirikchilik o'tkazish yo'lidagi faoliyat (o'simlik mevalari, ildizlarini terish, hayvonlarni ovlash)ni tashkil etish borasidagi tajribalarni o'rgatish guruh ahzolari tomonidan birdek amalga oshirilgan. Bilimlar, aksariyat hollarda, mehnat va o'yin jarayonlarida o'zlashtirilgan. Mehnat faoliyatini tashkil etish jinsiy xarakterga ega bo'lganligi bois o'g'il va qiz bolalarni tarbiyalashda o'ziga xos jihatlari ko'zga tashlangan.

Oila, xususiy mulk va davlatning paydo bo'lishi ijtimoiy tarbiya mazmunida ham tub o'zgarishlarning sodir etilishi, quldorlarning paydo bo'lishi olib keldi. Aynan mana shu davrdan tarbiya jamiyatning ijtimoiy talab va ehtiyojlari asosida yo'lga qo'yila boshladi. Erkin fuharolarni tarbiyaning maqsadi, vazifalari, mazmuni va vositalari borasidagi fikrlar Demokratik, Platon va Aristotellarning asarlarida muhim o'rin egallagan. Mutaqakkirlarning asarlarida ushbu fikrlar mustaqil pedagogik nazariya sifatida emas, balki falsafiy harashlar yoki jamiyatni tashkil etish loyihasining muhim komponenti tarzida bayon etilgan. Ushbu davrda tabiiy-ijtimoiy fanlar tizimi shakllanishi uchun boshlang'ich asoslar qo'yildi.

quldorlik tuzumida erkin bo'lmagan kishilar (qullar)ning haq-huquqlari cheklanganligi bois tarbiya tizimi faqatgina quldorlar, ularning farzandlari uchun xizmat qilgan.

quldorlik tuzumi o'rnida shakllangan feodal tuzumda pedagogik g'oyalar feodallar manfaatini ifoda eta boshladi. Mazkur davr pedagogik jarayonni tashkil etishda diniy g'oyalar etakchi o'rin egallashi bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy hayotda diniy muassasalar (g'arbda cherkov, Sharqda esa machitlar)ning roli osha borib, bolalarni o'qitish va tarbiyalash ishlari asosan shu maskanlarda tashkil etildi. Garchi dunyoviy g'oyalarni ilgari surish, ilmiy nazariyalarni yaratish va targ'ib etishning din peshvolari tomonidan qoralanishi kabi holatlar ham ko'zga tashlangan bo'lsa-da, ammo

savdo-iqtisodiy aloqalar ko'lamining kengayishi, tabiiy ofatlarga harshi keskin chora ko'rish ehtiyoji ilmiy bilimlarning rivojlantirish hayotiy zaruriyat ekanligini isbotladi. Insoniyat tarixidan mustahkam o'rin olgan Sharq Uyg'onishi deb nom olgan tarixiy jarayon aynan feodal tuzumi – o'rta asrlar davrida sodir bo'ldi. Sharqda buyuk allomalar - Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayqon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Farg'oni, g'arbda esa T.Mor, T.Kampanella, E.Rotterdamskiy, F.Rable, M.Monteng' va boshqalar tomonidan har tomonlama rivojlangan, ruhiy va jismoniy jihatdan sog'lom, antik dunyo va burjaziya davri yutuqlari asosida ilmiy bilimlarni o'zlashtira olgan shaxsni tarbiyalash g'oyasi ilgari surildi va puxta asoslab berildi.

Savdo, hunarmandchilik va manufaktura negizida rivojlanib borayotgan ishlab chiqarishni yanada takomillashtirish yo'lidagi amaliy harakatlar bu boradagi muvaffaqiyat murakkab texnikani boshhara oladigan shaxsni shakllantirish evaziga hal etilishi tasdiqladi. Mazkur davrda ilg'or, progressiv pedagogik g'oyalar ilgari surildi. Aksariyat g'oyalar mazmunida bilim olishga nisbatan ijtimoiy tenglikni haror toptirish borasidagi harash o'z ifodasini topdi.

Aynan shu davrda pedagogika fani asoslari muayyan tizimga solindi va ilmiy jihatdan asoslandi. Bu o'rinda pedagogika fani rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shgan mutafakkirlar: g'arbda - Ya.A.Komenskiy, D.Didro, J.J.Russo, F.Gerbert, V.V.Disterveg, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, Sharqda I.Ibrat, S.Siddiqiy, A.Shakuriy, S.Ayniy, A.Avloniy, A.Fitrat, H.H.Niyoziy, M.Abdurashidov, M.Behbudiyarlar shaxsiga ta'lim berish va uni tarbiyalash borasidagi harashlarni yanda boyitdilar hamda ta'lim tizimiga ilm-fan, texnika yangiliklarini tadbqiq etish, o'qitishni yangi tizim (izchil, uzluksiz, asoslangan) asosida tashkil etish kabi g'oyalarni ilgari surdilar.

Sobiq Sho'ro davrida pedagogika fani mazmunan ilm-fan, texnika va texnologiya yutuqlari asosida boyidi, ta'lim muassasalari tizimi shakllantirildi, shuningdek, har tomonlama (garmonik) rivojlangan shaxsni shakllantirish nazariyasi asoslandi. Biroq, mazkur nazariya g'oyalarni amaliyotga tadbqiq etishning puxta asoslangan mexanizmi yaratilmadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, rivojlanish va taraqqiyot yo'li demokratik, insonparvar va huquqiy jamiyatni barpo etishdan iboratligi ehtirol etilib, «ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish»¹ davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri deya belgilandi. Asosiy ehtibor yuksak ma'naviy va axloqiy talabalarga javob beruvchi, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga qaratildi. Respublikada ta'lim qisida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy mazmun hamda yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» kabi mehyoriy hujjatlarda belgilab berilgan.

Demak, mavjud sharoitda pedagogika fani barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlashga yo'naltirilgan ijtimoiy hrakat istiqbollari, bu boradagi muammolar va ularni hal etish yo'llarini o'rganadi.

Pedagogika fanining vazifalari. Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini tahminlashga alohida hissa qo'shadi. Pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida etakchi o'rin tutuvchi g'oyalar mohiyatini muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma'naviy va axloqiy talabalarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, milliy istiqloq g'oyasi asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini ijodiy rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga ehtibor haratiladi:

1. Ma'naviy va axloqiy talabalarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o'rganish.
2. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash.
3. Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi tajribasini o'rganish asosida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish.
4. Ta'lim muassasalari hamda ularda faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyati mazmunini asoslash.
5. Ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish.
6. Pedagoglarni pedagogika nazariyasiga oid bilimlar hamda ta'lim-tarbiya usullari bilan qurollantirish.
7. Ta'lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo'nalishlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni tahminlashning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish.
8. O'qitish hamda tarbiyalash jarayonining samarali texnologiyalarini yaratish.
9. Oila tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish yuzasidan ota-onalar uchun ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. Bizga yaxshi Ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida ehtirol etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriya deb ataladi.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini tahminlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga haratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, Ma'lumot, rivojlanish.

Shaxs – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat ahzosi.

¹ Кадрлар тайёрлаш миллий дастури //Олий таълим: меъёрий ҳужжатлар тўплами. – Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2001. –25-бет.

Tarbiya - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Ta'lim - o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

Bilim - shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, Ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy Ma'lumotlar majmui.

Ko'nikma - shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Malaka - muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Ma'lumot - ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Rivojlanish - shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

2. Pedagogikaning metodlari. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari. Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g'oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga tahminlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma'naviyatiga ziyon etkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o'rganish, mavjud ko'rsatkichlar vositasida ularning sodir bo'lish sabablarini o'rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillarga bog'liq. Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul. Ayni vaqtda samarali bo'lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, ob'ekti va sub'ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

Ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasida pedagogik yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarini aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomillashtirib borishini tahminlashi, harama-harshiliklarning shaxs kamolotini tahminlashdagi o'rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini ehtirol etadi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lgan jarayon bo'lib, uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir:

- 1) muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi;
- 2) ilmiy farazlarning to'g'ri shakllantirilganligi;
- 3) vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to'g'ri belgilanganligi;
- 4) tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan ob'ektiv yondashuv;
- 5) tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to'g'ri hisobga olinganligi;
- 6) tadqiqot natijalarini oldindan tashhislash va uning natijalarini bashoratlash;
- 7) tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

Zamonaviy sharoitda pedagogik yo'nalishda tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat metodi.
3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.
5. Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
6. Test metodi.
7. Pedagogik tahlil metodi.
8. Bolalar ijodini o'rganish metodi.
9. Pedagogik tajriba metodi.
10. Matematik-statistik metod.

Pedagogik kuzatish metodi. Uni qo'llash jarayonida ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba- avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi Ma'lumotga ega bo'linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo'l qo'ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

- 1) kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;

- 2) kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;
- 3) kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- 4) har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish;
- 5) xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

Suhbat metodi. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lingan Ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammoning echimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subhektlari imkoniyatlarini muammo echimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda individual, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to'la-to'kis namoyon bilishga erishish muhimdir. Uning samarali bo'lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- 1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmuni aniqlash hamda savollar o'rtasidagi mantiqiylik va izchillikni tahminlash;
- 2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;
- 3) suhbat ishtirokchilarining soni xususida Ma'lum to'xtamga kelish;
- 4) suhbatdosh to'g'risida avvaldan muayyan Ma'lumotlarga ega bo'lish;
- 5) suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo'lish;
- 6) suhbatdoshning o'z fikrlarini erkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;
- 7) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;
- 8) olingan Ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish.

Anketa metodi (frantsuzcha – tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko'p hollarda, yozma ravishda olinadi. O'rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo'ladi:

- 1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);
- 2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo'q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniharli», «salbiy» va hokazo tarzdgagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

Anketa metodini qo'llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir:

- 1) anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;
- 2) anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo'lmasligi kerak;
- 3) anketa savollari o'quvchilarning dunyoharshi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;
- 4) anketa savollari respondentlar tomonidan to'la javoblar berilishini tahminlovchi vaqtini kafolatlay olishi zarur;
- 5) anketa o'quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylantirib yuborilmasligi zarur;
- 6) anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

Intervyu metodi respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini tahminlaydi. Intervyu respondent ehtiboriga turkum savollarni havola etish asosida o'tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Ta'lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi Ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarining ta'lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o'rganish, bu boradagi faollik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va ta'lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo'llaniladi.

Ta'lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: o'quv mashg'ulotlarining jadvali, o'quv dasturi, guruh (yoki sinf) jurnallari, o'quvchilarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig'ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash harorlari, ta'lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasi, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta'lim muassasasi jihozlari (o'quv partalari, stol stullar, yumshoq mebellar va hokazolar) qayd etilgan daftar va hokazolar.

Mazkur metod muayyan yo'nalishlarda o'quv-tarbiya ishlari samaradorligi darajasi, o'quvchilarda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi, ilg'or pedagogik tajribalar mazmunini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Test metodi. Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan qsi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o'z mohiyatiga ko'ra quyidagi savollardan iborat:

- 2) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);
- 2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo'q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniharli», «salbiy» va hokazo tarzdgagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).
- 3) to'g'ri javob variantlari qayd etilgan savollar (respondentlar o'z yondashuvlariga ko'ra to'g'ri deb topgan javob variantini belgilaydilar).

Test metodini qo'llashda aniqlanishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni turkum asosida berilishiga ehtibor berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo'yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejalishi bilan tavsiflanadi. Biroq, metod ayrim kamchilikdan ham holi emas.

Chunonchi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishda olinadi, shuningdek, respondent taklif etilayotgan javob variantlardan birini tanlashi zarur. Shu bois respondent o'z fikrini batafsil ifoda etish imkoniyaga ega emas.

Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo'nalishlarda o'rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

Bolalar ijodini o'rganish metodi. Mazkur metod o'quvchilarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, Ma'lum fan qlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda o'quvchilarning ijodiy ishlari – kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u Ma'lum o'quvchiga xos bo'lgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Bolalar ijodini o'rganishning quyidagi shakllari mavjud:

- 1) fan olimpiadalari;
- 2) turli mavzulardagi tanlovlar;
- 3) maktab ko'rgazmalari;
- 4) festivallar;
- 5) musobaqalar.

Pedagogik tajriba (eksperiment – lotincha «sinab ko'rish», «tajriba qilib ko'rish») metodi. Pedagogik tajriba metodidan muammo echimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z inhiqosiga ega bo'la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlay hamda unga baho bera olishi zarur.

Pedagogik tajriba tashkil etilish sharoitiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi:



3- чизма. Педагогик тажриба турлари

Pedagogik tajriba ham bir qator shartlarga amal qilgan holda tashkil etiladi. Xususan:

- 1) tajribaning maqbul loyiha (dastur) asosida uyushtirilishi;
- 2) tadqiqot ilmiy farazining puxta asoslanishi;
- 3) tadqiqot obyektlari vv usullarining to'g'ri tanlanishi;
- 4) tajriba o'tkazilish vaqti hamda davomiyligini aniqlanishi;
- 5) zarur pedagogik shart-sharoitlar (asbob-uskuna, jihozlar, vositalar)ning yaratilganligi;
- 6) tajriba Ma'lumotlarini umumlashtirish, tahlil qilish va natijalarni qayta ishlash.

Matematik-statistik metod tajriba-sinov ishlari, shuningdek, umumiy holda tadqiqotning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi, muammo holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar maxsus matematik formulalar yordamida qayta tahlil etiladi. Yakuniy qiymat tadqiqot samarasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Ayni vaqtda pedagogik yo'nalishda tadqiqotlar olib borishda Stg'yudent, Ko'virlyag, Rokich, V.P.Bespalg'ko hamda V.V.Grechixin metodlaridan keng foydalanilmoqda.

3. Pedagogikaning tarmoqlari. Pedagogika fanlari tizimi. Shaxs kamolotini tahminlash, uning intellektual, ma'naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o'ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Shu bois yaxlit pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvchi pedagogik fanlar tomonidan o'rganiladi. Ular quyidagilardir:

1. Umumiy pedagogika – maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalarini o'rganadi.
2. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi – maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga etkazish masalalarini o'rganadi.
3. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi – boshlang'ich sinflar o'quvchilarini tarbiyalash, ularga ta'lim berish, ularning o'ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga etkazish masalalarini o'rganadi.
4. Korreksion (maxsus) pedagogika – rivojlanishida turli psixologik va fiziologik nuqsonlari bo'lgan bolalarni tarbiyalash va o'qitish bilan bog'liq muammolarni o'rganadi.

O'z navbatida korreksion pedagogika tarkibiga maxsus pedagogika va psixologiyaning turli qlari kiradi. Ular quyidagilardir:

Surdopedagogika va surdopsixologiya – eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

Oligofrenopedagogika va oligofrenopsixologiya – aqli zaif bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

Tiflopedagogika va tiflopsixologiya – ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

Logopediya va nutqiy buzilishlar psixologiyasi – nutqi, shuningdek, motorli-harakatlanish doirasida murakkab nuqsonlar bo'lgan bolalar (ko'r, soqov va kar bolalar)ni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

5. Metodika – xususiy fanlarni o'qitish xususiyatlarini o'rganadi.

6. Pedagogika tarixi – ta'lim va tarbiyaning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi, muayyan tarixiy davrlarda etakchi o'rin egallagan pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalalarini o'rganadi.

7. Pedagogik texnologiya – ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.

8. Pedagogik mahorat – bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o'rganadi.

9. Ta'limni boshqarish – ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash masalalarini o'rganadi.

10. Ijtimoiy pedagogika – ijtimoiy munosabatlar jarayonida pedagogik g'oyalarning tutgan o'rni va roli, shaxsni kasbiy va ijtimoiy faoliyatga yo'naltirish muammolarini o'rganadi.

4. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi. Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash Ma'lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga Ma'lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uning umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqati nazardan pedagogika fani bilan quyidagi fanlar o'rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

1. Falsafa – shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, qarash hamda ta'limotlarning falsafiy jihatlarini kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.

2. Iqtisod – ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quv binolarini qurish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarini anglashga xizmat qiladi.

3. Sotsiologiya – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida Ma'lumotlarga ega bo'lish asosida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

4. Etika – shaxs ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o'rin tutuvchi nazariy g'oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o'rin tutadi.

5. Estetika – shaxs tomonidan go'zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

6. Fiziologiya – o'quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang'ich asoslarni beradi.

7. Gigiena – o'quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularning jinsiy jihatdan to'g'ri shakllantirishda nazariy va amaliy g'oyalari bilan yordam beradi.

8. Psixologiya – shaxsda ma'naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.

9. Tarix – pedagogika fani taraqqiyoti, ta'lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, xalq pedagogikasi g'oyalari kelgusi avlodga uzatish uchun yo'naltiriladi.

10. Madaniyatshunoslik – o'quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

11. Tibbiy fanlar – shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to'g'ri rivojlanishini tahminlash, uning organizmida namoyon bo'layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash muammolarini o'rganishda ko'maklashadi.

Savol va topshiriqlar

1. Pedagogikaning asosiy kategoriyalarini sanab bering.

2. Pedagogikaning metodlari haqida gapirib bering.

3. Pedagogikaning qanday tarmoqlarini bilasiz?

4. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi nimalardan iborat?

Pedagogik texnologiyalar. Pedagogik muloqot.

1. Pedagogik texnologiya tushunchasi

2. Pedagogik texnologiyalarning mezonlari

3. Pedagogik muloqotning asosiy shakllari

Hozirgi paytda ko'p mamlakatlar, shu jumladan respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimida ham turlicha nomlangan texnologiyalardan foydalanilmoqda. Bu texnologiyalarning barchasi ma'lum umumiylikka ega bo'lib, ular xususiy jixatlariga binoan tasniflanishi V.S.Kukushin., G.K.Slevko., G.Berdiev kabi ko'plab olimlar tomonidan ko'rsatilgan bo'lib, ularni sxematik tarzda quyidagicha ifodalash mumkin.

Shu bilan bir vaqtda hozirgi paytda amaliyotda quyidagicha nomlangan pedagogik (ta'lim) texnologiyalaridan keng ko'lamda foydalanilib ijobiy natijalar olinmoqda

1. Individual ta'lim texnologiyasi
2. Jamoaviy ta'lim texnologiyasi.
3. Belgi-kontekstli ta'lim texnologiyasi
4. Ishbilarmonlik yoki rolli o'yin ta'lim texnologiyasi.
5. Muammoli ta'lim texnologiyasi.
6. Axborot ta'lim texnologiyasi.
7. Dasturli ta'lim texnologiyasi.
8. Integrativ ta'lim texnologiyasi.
9. Modulli ta'lim texnologiyasi.
10. Mualliflik ta'lim texnologiyalari.
11. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi.
12. Tayanch sxemalaridan foydalanib o'qitish texnologiyasi.
13. Masofaviy ta'lim texnologiyasi.
14. Etnopedagogik ta'lim texnologiyasi.
15. Faol ta'lim texnologiyasi.
16. Hamkorlik ta'lim texnologiyasi.
17. Tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyasi.
18. Noan'anaviy ta'lim texnologiyasi.
19. An'anaviy ta'lim texnologiyasi.
20. Baholamasdan va yo'qlama qilmasdan o'qitish (erkin ta'lim) texnologiyasi.
21. Asosiy materiallarni ajratib olib o'rganish texnologiyasi.
22. Yiriklashtirib o'qitish texnologiyasi.
23. Politeknik ta'lim texnologiyasi.
24. Jadal ta'lim texnologiyasi.
25. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi.
26. Ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etib boshqarish texnologiyasi.
27. Erkin ta'lim texnologiyasi.
28. Baholamasdan va yo'qlama qilmasdan o'qitish texnologiyasi.
29. Sirtqi ta'lim texnologiyasi.
30. Eksternat ta'lim texnologiyasi.
31. Keys-stadi texnologiyasi
32. ECTS kreditlari

«**Texnologiya**» - yunoncha «**techne**» so'zidan olingan bo'lib, **mahorat, san'at** va «**logos**» - **so'z, ta'limot** ma'nosini anglatadi.

Texnologiya- jarayonlarni amalga oshirish usullari va vositalari haqidagi bilimlar yig'indisi, shuningdek ob'ektda sodir bo'ladigan sifat o'zgarishlar tushiniladi.

Ishlab chiqarish texnologiyasi:

- xom-ashyo, materiallar, yarim fabrikatlar yoki mahsulotlarga ishlov berish, yoki qayta ishlash yo'llari va usullari yig'indisi
- yuqorida ko'rsatilgan yo'llar va usullarni ishlab chiquvchi hamda takomillashtiruvchi **fan**
- qazib olish, ishlov berish, qayta ishlash, sifatini nazorat qilish, tashish, omborga joylash, saqlash, sotish, amalda qo'llash jarayoni

Texnologik jarayon – mahsulot ishlab chiqarishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalar yig'indisi

Texnologik operatsiya – ishchi tomonidan o'zining ish o'rnida bajariladigan, yakuniga etkazilgan harakat ko'rinishidagi texnologik jarayonning bir qismi

Texnologik xarita - ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarini ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjat.

Texnologik rejim - texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo'lib, ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan operatsiyalarning vaqti, shartlarini belgilaydi.

Yuqorida keltirilgan tushunchalar tahlilidan kelib chiqib, har qanday so'z, tushunchalar jamiyatdagi o'zgarishlar bilan bog'liq holda muomalaga kiritiladi.

Shu o'rinda «pedagogik texnologiya» nazariyasining vujudga kelishi va rivojlanish tarixiga nazar tashlaylik:

Sho'rolar tuzumi davri- 30 yillarda «pedagogik texnika» tushunchasi maxsus adabiyotlarga paydo bo'la boshladi va u o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga yo'naltirilgan usul va vositalar yig'indisi sifatida qaraldi. Shuningdek, bu davrlarda pedagogik texnika deb o'quv va laboratoriya jihozlari bilan muomala qilishni uddalash, ko'rgazmali qurollardan foydalanish tushunildi.

40-50 yillarda esa o'quv jarayoniga o'qitishning texnik vositalarini joriy etish davri boshlandi. Ayniqsa kino, radio, nazorat vositalari, ulardan foydalanish metodikasi pedagogik texnologiyalariga tenglashtirildi.

60 yillar o'rtalariga kelib, bu tushunchalar mazmuni chet el pedagogik nashrlarida keng muhokamaga tortildi. 1961 yildan boshlab AQShda «Ta'lim texnologiyasi», Angliyada «Pedagogik texnologiya va dasturli ta'lim», Yaponiyada esa 1965 yillardan «pedagogik texnologiya» jurnallari chop etila boshlandi. 1971 yilda xuddi shu nomli jurnal Italiyada chiqarila boshlandi.

«Ta'lim texnologiyasi»ni nazariyasininig shakllanish bosqichlari

№	Bosqichlar	Yillar	Ta'lim texnologiyasi
1.	I- bosqich	XX asrning 30 yillari	TTQPedagogik texnika-o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi usul va vositalar yig'indisidir.
2.	II- bosqich	XX asrning 50 yillari	TTQPTQta'lim jarayonida texnik vositalarni qo'llash, ularning imkoniyatlarini takomillashtirish, axborot sig'imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, o'quvchi faoliyatini individuallashtirish
3.	III- bosqich	XX asrning 60-80 yillari	TTQPTQTVQdasturiy ta'lim. Dasturiy ta'lim-tarbiya maqsadlarini aniqlanishi, ta'lim jarayonini umumiy loyihalash, o'quvchilar tomonidan nazariy bilimlarning o'zlashtirilishi ehtimolini oldindan tashxislash, ta'lim maqsadining natijalanganligini o'rganish, faoliyat natijalarini tahlil etish
4.	IV-bosqich	Mustaqillik yillari	Ta'limni texnologiyalashtirishning asosini, ta'lim jarayonini, uning samaradorligini oshirish va ta'lim oluvchilarni, berilgan sharoitlarda va ajratilgan vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o'quv natijalarga erishishlarini kafolatlash maqsadida to'liq boshqarish g'oyasi tashkil etadi.

B.Ziyomuxammadovning fikricha - o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa deb ta'riflash mumkin. Ta'riflar nazariyasi bo'yicha bunday ijtimoiy hodisani pedagogik texnologiya desa bo'ladi. «Pedagogik texnologiya - o'quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining sub'ektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi», - deydi (V.M.Monaxov).

M.V.Klarin fikricha, pedagogik texnologiya - o'quv jarayoniga yondoshgan holda, oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatkichlaridan kelib chiqib o'quv jarayonini loyihalashtirish.

I.Ya.Lernerning fikriga ko'ra, pedagogik texnologiya - o'quvchilar harakatlarida aks etgan o'qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan aniqlanadigan maqsadni ifodalaydi.

V.P. Bepalkoning o'zbekistonlik shogirdlaridan N.Sayidaxmedov va A.Ochilovlarning fikricha, pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarining jadal shakllanishini kafolatlaydigan jarayonidir.

O'zbekistonlik pedagog olim B.L.Farberman pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif beradi: «Pedagogik texnologiya - ta'lim jarayoniga yangicha yondoshuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy-muhandislik ong ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy hodisadir».

Pedagogik adabiyotlarda pedagogik texnologiyaga berilgan boshqa ta'riflar ham keltiriladi, bizningcha, eng maqbuli YuNESKO ta'rifidir.

«Pedagogik (ta'lim) texnologiya»(si) – ta'lim-tarbiya va shaxsni rivojlantirish jarayonlarini maqbullashtirish maqsadida inson va texnika iimkoniyatlari hamda ularning o'zaro ta'sirini hisobga olib o'quvchilarda bilim, ish-harakat usullari va ijobiy shaxsiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirishni ko'zda tutuvchi loyihalashtirish, tatbiq etish (amalga oshirish), natijalarni maqsad bilan qiyoslab kerakli tuzatishlarni kiritish bosqichlarini o'zida mujassamlashtiruvchi tizimdir.

Ta'lim texnologiyasini ishlab chiqarish texnologiyasidan kelib chiqqan holda uch xil atamasi mavjud:

Pedagogik texnologiya - o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya. Texnologiyalarni barcha, boshqa tushunchalarini belgilash uchun, sinonim sifatida - ta'lim texnologiyasi, o'qitish texnologiyasi kabilarni ishlatish mumkin.

O'qitish texnologiyasi - birinchidan, pedagogik texnologiyani jarayonli - harakat aspektini anglatadi. Bu, ta'lim jarayonini o'zgaruvchan sharoitlarda, ajratilgan vaqt davomida istiqbolashtirilgan natijalariga kafolatli erishishga va konkret ta'lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirishni instrumental ta'minlovchi, usul va vositalar (texnologik operatsiyalar)ning tartibli birligini o'zida mujassamlashtirgan ta'lim modelini ishlab chiqish va amalga oshirishning texnologik jarayoni;

ikkinchidan, pedagogik texnologiyaning jarayonli-bayonli aspektini ifodalaydi. Bu, maqsadni amalga oshirish va istiqbolda belgilangan natijalarga erishish bo'yicha pedagogik hamda o'quv faoliyatini loyihasini bajarishni bayonidir (texnologik xarita).

Ta'lim texnologiyasi - pedagogik texnologiyaning ilmiy aspektini belgilash uchun ishlatiladi. Bu (fan predmeti), «texnik va inson resurslarini hamda ularni, o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi hamkorligini hisobga olgan holda dars berish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli usuli»

«Ta'lim texnologiyasi – ta'lim modellarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlash tizimidir»

TIZIM deb tartiblangan, o'zaro uzviy bog'langan va birgalikda umumiy funktsiyani bajaruvchi elementlar to'plamiga aytiladi.

An'anaviy ta'limning afzalliklari va kamchiliklari.

Afzalliklari:

- ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lgan va aniq ma'lum tushunchalarni, fanni o'rganishda foydali;
- o'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi;
- vaqtdan unumli foydalanish;
- aniq ilmiy bilimlarga tayanadi.

Kamchiliklari:

- o'quvchilar nafaol ishtirokchi bo'lib qoladilar;
- o'qituvchining to'la nazorati barcha o'quvchilar uchun motivatsiyani vujudga keltirmaydi;
- o'quvchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi;
- eslab qolish darajasi hamma o'quvchilarda bir-xil bo'lmaganligi sababli, sinf bo'yicha o'zlashtirish darajasi past bo'lib qolishi mumkin;
- mustaqil o'rganish va echimlar qabo'l qilish uchun sharoitlar yaratilmaydi.

Zamonaviy (noa'anaviy) ta'limning afzalliklari va kamchiliklari.

Afzalliklari:

- o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi;
- o'z vaqtida qaytar aloqalarning ta'minlanishi;
- tushunchalarni amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratilishi;
- o'qitish usullarining turli xil ko'rinishlari taklif etilishi;
- motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi;
- o'tilgan materialning yaxshi eslab qolinishi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishi;
- o'z-o'zini baholashning o'sishi;
- o'quvchilarning fanga oid mavzu mazmuniga, o'qitish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabati;
- mustaqil fikrlay oladigan o'quvchining shakllanishiga yordam berishi;
- nafaqat mazmunini o'zlashtirishga yordam bermay, balki tanqidiy va mantiqiy fikrlashni ham rivojlantirishi;
- muammolar echish ko'nikmalarining shakllanishi.

Kamchiliklari:

- ko'p vaqt talab etilishi;
- o'quvchilarni har doim ham kerakli nazorat qilish imkoniyatining pastligi;
- juda murakkab mazmundagi material o'rganilayotganda ham o'qituvchi rolining past bo'lishi;
- o'qituvchining o'zi ham yaxshi rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar echish ko'nikmalariga ega bo'lishining talab etilishi.

3. TA'LIM JARAYONI TUZILMASINING ASOSIY ELEMENTLARI

Quyidagi tavsiya etilayotgan chizmada ta'lim jarayonining tuzilmasi keltirilgan (1-rasm).



Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari

Ta'lim jarayonini bir tizim deb qaraydigan bo'lsak, uni tashkil etuvchilari, ya'ni elementlariga quyidagilar kiradi:

- o'quv maqsadi;
- aniq maqsadlar (kutilayotgan natijalar);
- ta'lim beruvchi;
- ta'lim oluvchi;
- ta'lim mazmuni;
- ta'lim metodi;
- ta'lim shakli;
- ta'lim vositalari;
- nazorat va baholash.

Ta'lim jarayonini loyihalashtirishda yuqorida sanab o'tilgan elementlardan birortasi e'tibordan chetda qolsa yoki noto'g'ri tanlangan bo'lsa tizim ishlamaydi, demakki, ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan maqsadga erishilmaydi.

Pedagogik texnologiyalarning mezonlari. Pedagogik texnologiya tushunchasi uch jixati bilan kursatilishi mumkin.

- ilmiy: Pedagogik texnologiya- ta'lim jarayonini loyixlashtiruvchi, uning maqsadlari, mazmuni va ukitish usullarini urganuvchi xamda ishlab chikuvchi pedagogika fanining tarkibiy kismidir.

- jarayonli-tavsifiy: jarayonlar tavsifi (algoritmi), loyixalashtirilgan ta'lim natijalariga erishish uchun ukuv maqsadlari, mazmuni, usuli va vositalar majmuasi

- jarayonli amaliy: Pedagogik texnologiya jarayonini amalga oshirish. Butun shaxsiy, uskuna va uslubiyat vositalarning faoliyat kursatishidir.

Ukuv amaliyotida pedagogik texnologiya tushunchasi kuyidagi uch darajaga bulinadi;

1. umum pedagogik texnologiya- ta'lim tizimining anik kismi, ukuv yurti ta'lim boskichining ma'lum davri uchun ta'lim jarayonini tavsiflaydi.

2. Xususiy predmetli (uslubiy) daraja- bir fan . sinf ukituvchi doirasida ukitish mazmuni va ta'lim tarbiyani amalga oshirishga xizmat kiladigan usul va vositalar majmuasidir.

1. Lokal (modulli) daraja- ukuv tarbiya jarayonini kismalarining texnologiyasi (faoliyat turlari texnologiyasi, dars texnologiyasi, yangi tushunchalarni xosil kilish, takrorlash. Nazorat kilish texnologiyasi, tarbiya turlari texnologiyasi va xakoza).

Pedagogik texnologiyalar tasnifi

Ukuv yurtlari faoliyatida pedagogika fanida xozirgi paytda pedagogik texnologiyalarning xilma-xil vositalari mavjud.Xar bir ukituvchi pedagogik jarayonga uzining tajribasi. Maxorati. Bilimiga yarasha kandaydir innovatsiyalarni olib kiradi.Shunday bulishiga karamay pedagogik texnologiyalarni ayrim jixatlari (belgilari) buyicha kuyidagi sinflarga bulish mumkin.

Pedagogik texnologiyaning turlari.

Nº	Belgilari	Pedagogik texnologiyalar
1	Kullash darajasiga kura	Umum pedagogik, xususiy (fan), cheklangan(modul)texnologiya
2	Falsafiy asosga kura	Materialistik va idealistik, dialetik va metafizik. Ilmiy va diniy. Gumanistik va antigumanistik, antroposofik va teasofik, pragmatik va ekzistentsialistik, erkin va majburiy tarbiya texnologiyasi
3	Ruxiy rivojlanishning etakchi faktoriga kura	Biogen. Sotsiogen. Psixogen va idealistik texnologiyasi
4.	Ilmiy konsepsiyaga kura	Assosiativ- reflektor. Bixoviorestik, geshtalt, sugistiv, neyrolengvistik va rivojlantiruvchi texnologiyasi


5	<u>Shaxsga yunalganligi buyicha</u>	Informatsion(bilim malaka kunikmalarni shakllantirish), uzini—uzi rivojlantirish (shaxni uzini uzi boshkarish mexanizmlarini shakllantirish),evristik(ijodiy)kobiliyatlarini rivojlantirish va amaliy malaka, kunikmalarini shakllantirish texnologiyasi
6.	<u>Mazmun va tuzilishiga kura</u>	Ta'lim va tarbiya beruvchi dunyoviy va diniy. Umumta'lim va xususiy fanlar texnologiyasi. Gumanitar va texnoratik, mono va kompleks texnologiyasi
7	<u>Akliy faoliyatni tashkil etish va boshkarishga kura</u>	Ochik (nazoratsiz va zarur uzgartirishlar kiritilmaydigan), tsiklik, tarkok(frontal) yoki ynaltilgan (individual). Oddiy yoki avtamatlashirilgan texnologiyasi
8	<u>Ukituvchining ukuvchiga munosabatiga kura</u>	Avttoritar. Shaxsga yunaltirilgan(antropotsentrik), insonparvarlik. Xamkorlik. Erkin tarbiya texnologiyasi
9	<u>Ukuvchilar kategoriyasiga kura</u>	Umummaktab . chukurlashtirilgan ta'lim (gimnaziya. Letsiy, kollej), turli buzilishlarni tugrilovchi texnologiyasi
10	<u>Tashkiliy shakllari buyicha</u>	Individual. Guruxli akademik(letsiy kollej. Bakalavr, magistr), sinf dars texnologiyasi mukobillashtirilgan (differentzial) an'anaviy va noan'anaviy ta'lim texnologiyasi
11	<u>Ustuvor usullarga kura</u>	Reproduktiv ukitish, dasturli ukitish. Tushuntirish(kurgazmalilik asosida). Rivojlantiruvchi muammoli, axborotli(kompyuterlashgan) ukitish . uz-uzini rivojlantiruvchi. Uyinlar ijodiy izlanish texnologiyasi

Pedagogik texnologiyalar uz moxiyatiga kura pedagogik sistemalarning tarkibiy kismi bulib xisoblanadi.Shuning uchun, edagogik texnologiyalarni pedagogik sistemalar masalasi bilan birgalikda taxlil kilish mumkin.

Pedagogik sistema tarkibiga kuyidagi bir-biri bilan boglik kismalar kiradi.

- 1.Ta'lim va tarbiya maksadlari.
- 2.Ukuvchilar. ularning shaxsiy xususiyatlari.
3. Ukituvchilar yoki ta'limni olib boruvchi kompyuterlashgan texnik vositalar.
- 4.Ta'lim va tarbiya mazmuni.
- 5.Pedagogik faoliyatning tashkiliy shakllari.
- 6.Kuyilgan maksadlarni amalga oshiruvchi didaktik jarayonlar.

Ijtimoiy (davlat) buyurtma



1-rasm Pedagogik sistemadagi funktsional bog'lanishlar

3.Pedagogik muloqotning asosiy shakllari. Pedagogika o'z usullarini yo'q joydan yaratmaydi. U hayotdan kishilar xulq-atvorining real omillarini, bolalar hayotini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish vazifalariga javob beradiganlarni tanlab oladi, ulardan tarbiyaviy ishda muloqot orqali ta'sir ko'rsatish usullari sifatida foydalaniladi. Muloqot orqali ta'sir etish bolalarning ijtimoiy foydali faoliyatining pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishga xizmat qiladigan vositalar tizimidan iborat. Bu vazifalar tarbiyalanuvchi shaxsga qaratilgan bo'lib, bolalarning xulq-atvorini rag'batlantiradi, qiyin va murakkab vazifalarni quvonch, ijodiy zavq-shavq manbaiga har bir talabaning shaxsiy muddaosiga aylantiradi.

Muloqot – pedagogik faoliyatning muhim kasbiy quroli bo'lib, olimlar A.A.Kobolev, H.B.Kuzanina, U.A.Kan-Kalik, A.A.Montev, A.N. Mudrik, A.U.Sherbakovlar muomalaning o'qituvchi faoliyatidagi muhim rol o'ynashini isbotlashgan.

Pedagogik muloqot – bu o'qituvchining talaba(talaba)lar bilan dars va darsdan tashqari paytdagi qulay psixologik xolat yaratish maqsadida olib boradigan kasbiy mahorati.

Pedagogik muomala ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida quyidagi funksiyalarga ega: shaxsni anglash, axborot almashuv, faoliyatni tashkil etish, rol almashtirish, hamdardlik, o'z qadrini bilish, ishtirokchilarni almashtirish, kechinmalar hosil qilish, o'zida ishonchni shakllantirish va h.k.

Ahborotlarning almashinish funksiyasi materiallarning va ma'naviy sifatlarini almashtirish ta'lim-tarbiyaviy jarayonni rivojlantirish, ichki ijobiy o'zgarishlarni hosil qilish hamkorlikda bilishga oid qidiruv hamda ongli fikrlashga zarur sharoit yaratadi.

Pedagogik muomala tuzilishi – 1) pedagog tomonidan guruh bilan bo'ladigan muomalani modellashtirishni «Prognostik bosqich». 2) dastlabki o'zaro faoliyatga kirishuvchidanoq bevosita muomalaga kirishuv (kommunikativlik hukm). 3) pedagogik jarayonda muomalani boshqaruv. 4) kelajakdagi faoliyatni inobatga olgan holda qo'llanilgan muomala sistemasi va modellashtirishni tashkil qilish.

Noto'g'ri pedagogik muomala talabalar qo'rquvini, ishonchsizligini diqqati xotirasini bo'shashtiradi, bilish qobiliyatini pasaytiradi, mustaqil fikrlashni susaytiradi va salbiy xulq-atvorni shakllantiradi. Natijada talabada o'qituvchi va predmetga nisbatan munosabat shakllanadi. Pedagogik faoliyatda o'qituvchi va talabalar hamkorligidagi uning samaradorligini ta'minlaydi. A.S.Makarenko o'qituvchi va talaba(talaba)larning munosabatlarida asosiy narsa talabchanlik va hurmat bo'lishi kerakligini alohida ta'kidlagan. Suxomlinskiy quyidagi mahoratni o'qituvchi «maktab partalaridan aytilgan har bir so'z o'yinlaridan donishmanddono, maqsadga yo'naltirilgan, to'la ma'noli bo'lmog'i kerak».

2. O'qituvchi muomalasining usullari.

Muloqotni 2 qismga bo'lish mumkin: ya'ni muomala va hamkorlikdagi harakatdan tashkil topadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar doimo talabalar bilan emotsional – turg'un munosabatlarda bo'lganlari o'qishda, xulq-atvorida nuqsonlarni osoyishtalik bilan teng va ishonch asosida hal etadi.

Talabalar bilan qo'pol muomalada bo'lgan o'qituvchilar esa talabalar ishonchini yo'qotadi. Tilyog'lamalik, o'zini ko'rsatish, ayditoriyadada masxaratomuz qiliqlarni shakllantirishga sharoit yaratadi. Bular o'quv-tarbiyaviy jarayonga ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotchilar o'qituvchining gurux jamoasi bilan munosabatlarida 3 ta uslub mavjudligini ta'kidlaydi: 1. barqaror ijobiy (turg'un); 2. faolsiz – ijobiy; 3. barqaror (turg'un bo'lmagan) uslub. O'qituvchilarning talabalar bilan bo'ladigan usullarini A.A.Leontev xulosalab, beqaror o'ta salbiy uslubda bo'lganligi o'zlariga salbiy munosabatni yuzaga keltirishni ta'kidlaydi. Bunday o'qituvchi ta'lim tizimiga va jamiyatga ziyon keltiradi.

Muomalada o'qituvchilarning ish usullari 3 xil bo'ladi:

So'zsiz bo'ysunishga asoslangan uslub;

Demokratik uslub;

Ko'ngilchanlik uslubi.

V.A.Kan-Kalik aloqa uslublarini tubandagilarga ajratib ko'rsatadi:

hamkorlikdagi ijodiy faoliyat asosidagi uslubi;

o'zlikni hush ko'rish asosida aloqa uslub;

masofa asosida aloqa o'rnatish uslubi;

do'qlash, qo'rqitish asosida aloqa o'rnatish usuli;

hazil yoki o'yin asosida aloqa o'rnatish usuli.

Sh.A.Amanashvili do'stlik asosida aloqa usuli haqida shunday g'oyani ifodalaydi («Agar bola bizdan uzoqlashsa, qanday qilib uni tarbiyalaymiz?»). «Faqat ma'naviyat birlik – bundan boshqa hech narsa bu birlikni buzishi mumkin emas». «Baqirish – insoniy munosabatlar madaniyati yo'qligini yaqqol ko'rinib turgan belgisidir. O'qituvchining baqirishi bolani dovdiratib garang qilib qo'yadi» - degan edi Suxomlinskiy.

O'zaro hamkorlikda pedagogik ta'sir ko'rsatishning usullaridan biri ishontirishdir. Ishontirish – shaxsning bilimlar tizimiga, dunyoqarashiga, xulq-atvoriga, hatti-harakatiga ta'sir eta olish va uni qisman o'zgartirish tushuniladi. Ishontirish haqiqiy va soxta turlarga bo'linadi. haqiqiy ishonch, e'tikod shaxsning hayot tarziga, uning ruhiy qiyofasiga, iroda va vijdoniga ta'sir etgani uchun ham inson uz ishonchini, e'tiqodini himoya qilib, ba'zan o'limga ham tayyor bo'ladi. Masalan: tarixdan bilamizki, xalq qahramoni oddiy cho'pon Shiroq, o'z elini bosqinchilardan saqlab qolish uchun jonini fido qilgan.

Soxta ishonch esa o'zi yashayotgan muhitdan atrofdagi kishilarning ta'sirida to'plangan salbiy xulq-atvor, tajribalar natijasida shakllanadi. Soxta ishonch va e'tiqod talabaning atrofidagi shaxslarning noto'g'ri, nopok hayoti natijasida quyidagi shakllardagi soxta ishonch paydo bo'ladi: halol mehnat bilan yashash ma'lumi qiyin kechadi. Shu bois ma'lum toifa shaxslar turli xil nopok yo'llar bilan turmush kechirishga harakat qiladilar.

Ishonch va ishontirish 3 ta tarkibiy qismdan iborat bo'lib, bular talabaning bilimlari, his-tuygusi va xulq-atvorida namoyon bo'ladi:

1. **Bilimlar.** Talabaning ota-onasidan, tarbiyachi va pedagoglar, badiiy adabiyotlar va boshqa manbalardan odob-axloq, hatti-harakat, xulq-atvor haqida bilimlar to'plamidan iborat.

Talabalarga Sharq mutafakkirlari Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Alisher Navoiy haqida, xalqimizning ozodligi uchun kurashgan qahramonlarimizning ijobiy xislatlari haqida hikoya o'qib berishning ta'siri katta.

Ishonch, e'tiqod, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, do'stlik, burch, vijdon va boshqa axloqiy tushunchalar haqidagi bilimlarni ma'naviyat va ma'rifat darslarida o'quvchilarga singdiriladi.

2. **His-tuyg'u.** Ishonch, ishontirish, e'tiqod haqida bilimlar ishonarli, hayotiy misollar yordamida berilishi bilan birga bu bilimlar o'qituvchi tomonidan his-hayajonli tarzda berilganda talabalarga yaxshi ta'sir etadi.

3. **Xulq-atvor.** Ishonch va e'tiqod haqidagi bilimlarni hayotda qullash uchun, shu bilimlarni amalda – hayotda (ota-onasi, o'qituvchilari va boshqalarda) ko'rgan bo'lishi kerak. Shunday sharoitda, nazariy bilimlar, talabaning malaka va ko'nikmasiga, shaxsiy sifatlariga aylanadi.

Haqiqiy ishonch va e'tiqodni shakllantirish yo'llari quyidagilar:

1. Talabalar o'zlarini boshqa kishilar bilan taqqoslashga o'rgatiladi. Talabalarni mahalla, tumandagi hurmatli, obro'li kishilar bilan uchrashtirish.

2. Salbiy, soxta ishonch, xulq-atvor, e'tiqod kelajakda qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ko'rsatish.

3. Talabaning soxta ishonchini mantiqiy fikrlash bilan ma'lum darajagacha davom ettirish. Masalan: agar, bordiyu hech kim ishlamasa nima bo'ladi? Hech kim o'qimasa nima bo'ladi? Deb savol beriladi va talabadan bu savolga javob berish talab qilinadi.

4. Talabaning fikrini, e'tiroz va savollarini oxirigacha, diqqat bilan eshitish (uni darhol rad etmaslik), faqat ishonchli dalillar bilan uning fikrini o'zlashtirishga harakat qilish.

5. Talabaga ishonch bildirish. Unga yordam ko'rsatish uchun tayyor ekanligini, xayrxoh ekanligini ko'rsatish.

6. O'qituvchi (tarbiyachi) o'zining jiddiyligi, mardligi, ma'naviy yuksakligi bilan talabalarga o'rnatib bo'lishi. Talabalarni ishontrish va ularning e'tiqodini mustahkamlash uchun quyidagi shartlarga amal qilish talab qilinadi:

1. Talabalarni ishontrish va ularga ta'sir etishda qo'llanilayotgan uslub (hikoya, suhbat va boshqalar) mazmunan va shaklan talabalarning yosh xususiyatlarini etiborga olishi kerak.

2. Talabalar bilan alohida yoki kichik guruhchalarga bo'lib suhbatlashganda talabalarning individual xususiyatlari, hayotga munosabatlarini o'qituvchi bilishi zarur.

3. Suhbat yoki hikoya jarayonida keltirilgan misollarni iloji boricha, real hayotidan olib ko'rsatish.

4. O'qituvchining o'zi talabalarga berayotgan bilim, tushuncha va g'oyalariga ishonish muhimdir. O'zini ishonmagan narsaga boshqani ishontrish qiyindir.

Talabalar bilan tarbiyaviy soatlarda, ularni nimagadir ishontrishi, qandaydir mavzuda munozara o'tkazish uchun talabalarning aynan hozirgi vaqtidagi kayfiyatini asab va ruhiy holatini etarli bilishi kerak. Agar bolalar betoqat, hayajonlangan, qo'zg'algan bo'lsa, ularni yanada ko'proq hayajonlantiradigan mavzuni gapirmagan ma'qulroq. Shuningdek, talabalarni nimagadir ishontrish uchun o'qituvchining so'zi bilan hatti-harakatlari to'g'ri kelishi kerak. O'qituvchi o'qituvchilarni odob-axloqqa, tartib-intizomga chaqirsa-yu, o'zi amal qilmasa, bunday tarbiyadan samara kam bo'ladi. Talabalarda ishonch, e'tiqodni quruq gap bilan shakllantirish qiyin. Auditoriyada har xil suhbatlar, uchrashuvlar, sayohatlar tashkil etish yaxshi samara beradi. Shuni unutmaslik kerakki, harakat bilan, aniq ish bilan mustahkamlanmagan tushuncha va bilimlar oddiy so'zligicha qoladi. Mehnatsevarlik mehnat bilan mustahamlanadi. Insoniy xislatlar: mehmondo'stlik, kamtarlik, jasurlik, botirlik, sadoqat, burch bularning barchasi ijobiy namuna bilan, shu his-tuyg'uni boshidan kechirish bilan shakllanadi.

Pedagogik jarayonda talabalarga psixologik ta'sir etish muammosi bilan psixologlar, tibbiyot xodimlari va boshqa mutaxassisleri faol shug'ullanmoqdalar, chunki ta'lim va tarbiya jarayonining o'zi o'qituvchining talaba ruhiyatiga, ongiga, dunyoqarashiga doimiy ta'siri deb qarasa bo'ladi. Keyingi yillarda zamonaviy psixologiyaning psixoanaliz, gumanistik psixologiya, neyrolingvistik dasturlash, bixevorizm va kognitiv psixologiya kabi yo'nalishlari paydo bo'ldi va bu oqimlarning ba'zi bir metodlari kollejlarga kirib kelmoqda.

Kollejlarda «psixologik xizmat»ning paydo bo'lishi, talabalarning psixologik bilimlarining oshishi natijasida o'qituvchi-o'qituvchi orasidagi o'zaro psixologik ta'sirda ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi va talaba orasidagi o'zaro munosabatlarning qanchalik katta ahamiyatga egaligini AQShda psixologi olimlar tomonidan o'tkazilgan bir tajriba misolida ko'rsak bo'ladi. Kollejda talabalarning intellekt darajalari testlar yordamida aniqlab, uning natijalari haqida talabalarga ma'lumot berilar ekan. Psixologlar har bir auditoriyadan bir nechta o'rtacha yoki past o'zlashtiruvchi talabalarning familiyasini «yashirincha» tarzda bildirib, o'qituvchilarga: «Bu talabalar yomonroq o'kiyapti, ammo aslida ular fidoyi talabalar» - deb tushuntiriladi. Psixologlar bir yildan so'ng shu auditoriyalarga kelib test o'tkazganlarida, o'qituvchilarga «iqtidorli» deb bildirilgan talabalar auditoriyadoshlaridan hamma sohada ilg'orlab ketganliklari aniqlangan.

Xo'sh, bu psixologik «hodisa»ning sababi nima? Birinchidan: talabalar olimlarning fikriga asoslanib, bu o'qituvchilarga nisbatan o'z munosabatlarini ijobiy tomonga o'zgartirganlar. Ikkinchidan: talabalar o'zlariga nisbatan o'qituvchining munosabati yaxshi tomonga o'z ustlarida jiddiy ishlaganlar va bu darajaga erishganlar.

Talabalarga dars va darsdan tashqari jarayonda ta'sir etishning juda ko'p turlari mavjud: bular quyidagicha farqlanadi:

1. Ta'sir obekti va subekti qarang;

a) bir kishiga yoki ko'pchilikka ta'sir;

b) shaxsning o'z-o'ziga ta'sir etish.

2. Shaxsning faoliyatiga qarang ta'sir etish;

a) shaxs uyg'oq vaqtida unga psixologik ta'sir etish;

b) tabiiy uyqu vaqtida psixologik ta'sir etish;

gipnoz uyqusi jarayonida psixologik ta'sir etish.

Zamonaviy didaktika psixologik ta'sirning ba'zi bir turlaridan faol foydalaniladi. Masalana: gipnoz uyqusi davrida o'qituvchilarga (talabalarga) chet tilini o'rgatish yoki talabalarda kam bo'lsa ham uchraydigan duduqlanish nuqsonini gipnopediya usullari bilan davolash mumkin.

3. Psixologik ta'sirning oldindan rejalashtirilgan yoki rejalashtirilmagan turlari.

a) oldindan rejalashtirilgan holda talabaga psixologik ta'sir dars yoki darsdan tashqari jarayonda yakka yoki guruh holida o'tkaziladi. Buni suhbat, hikoyava boshqa an'anaviy metodlar bilan birgalikda, psixotrening, autotrening kabi metodlar bilan ham o'tkazish mumkin.

b) oldindan ko'zda tutilmagan rejalashtirilmagan holda talabalarga psixologik ta'sir ko'rsatish.

Bunday ta'sir etish metodlari odatda, tasodifan yuzaga kelgan vaziyatlarda, nizoli holatlarda qo'llaniladi. O'qituvchi shunday vaziyatlardan chiqib ketish uchun oldindan bir nechta psixologik usullarini yaxshi o'zlashtirmagan bo'lishi shart. Zarur vaziyatda ushbu usullarni qo'llaydi. Masalan: nizoli vaziyatdan hazil bilan chiqib ketish, nizolashayotganlarga alohida-alohida «muhim» topshiriq beri.

4. Psixologik-pedagogik ta'sir mazmuniga qarab: ochiq va yopiq tarzda bo'ladi.

a) Ochiq. Bunday shakldagi ta'sir talabaning ma'lum hatti-harakatini yoki xulq-atvorini korreksiyalashga, to'g'rilashga yo'naltirishgan bo'lib, o'qituvchi o'z fikrini ochiq bayon qiladi. Masalan: «Men bilaman, sen irodasi kuchli yigitsan, ishonamanki, bundan keyin bunday ishni qilmaysan».

b) Yopiq. Psixologik ta'sirda asosiy maqsad pardalangan holda, yoki «Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit» tarzida beriladi. Masalan, bir tajribali o'qituvch hikoya qiladi: «kollej talabasi K. ismli qizningkeyingi vaqtlarda o'g'il bolalar bilan juda yaqinlashib, hatto sigareta chekayotganligi ma'lum bo'lib qoldi. Qiz juda ham tez xafa bo'ladigan, kek saqllovchi bo'lgani uchun qizlarning hammasi bilan birgalikda, «sigaretning qizi – ayol organizmiga zarari», - «erta jinsiy uyg'onish va uning salbiy oqibatlarini» » - degan mavzuda suhbatlar tashkil etdik va gap orasida qizning nomini tilga olmasdan unga psixologik ta'sir etdik. Natijasi, kutganimizdan ham yaxshi bo'lib chiqdi.

O'qituvchilarga psixologik ta'sir etish qadimdan ma'lum bo'lib, bu metodlardan; oilada, mahallada, qadimda tarbiyaviy o'g'itlardan madrasalarda unumli foydalanganlar. Auditoriyada va auditoriyadan tashqarida psixologik va pedagogik ta'sirning samarador kechishi uchun quyidagi shart-sharoitlar mavjud bo'lishi kerak:

1. Berilayotgan axborot (material-matnning)ning ta'sirchanligi.
2. Auditoriyadagi (guruhdagi) psixologik vaziyatning turg'unligi.
3. O'qituvchining o'z kuchiga (hissiy ta'siriga) ishonishi.
4. Talabalarning o'qituvchiga hissiy munosabati (o'qituvchining o'qituvchilar o'rtasidagi xurmati).
5. Psixologik ta'sir jarayonida talabalarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olish.
6. O'qituvchining talabalarga ta'sir etish texnikasining qanchalik egallanganligi.
7. Talabalarga etarli darajada hissiy ta'sir etish uchun zarur (moslashtirilgan) joy, vaqt va boshqa sharoit, omillarning mavjudligi (shovqin va begona kishilarning yo'qligi, xonada talabalar soni 10-15 tadan oshmaslig va boshqalar).

Shaxsning kamol topishida o'z-o'ziga ta'sir etishning ahamiyati juda katta. o'smir va yoshlar ko'pincha o'zlaridagi yomon odatlarni (chekish va boshqalar), o'z salbiy shaxsiy xususiyatlarini bilgan holda uni tuzatish yo'llarini bilmasdan qiynaladilar yoki irodasi sustlik qiladi. O'qituvchi talabalar orasida o'z-o'ziga ta'sir etishning yaxshi tomonlarini mashhur kishilar hayoti misolida targ'ibot qilishi zarur. jismonan va ruhan kuchsiz, nogiron shaxslarning turli mashqlar yordamida sport, ilmu-fan, ijod va boshqa sohalarida buyuk muvofaqqiyatlarga erishganliklarini hikoya qilib berish talabalarga ijobiy ta'sir etadi. talabalar o'zlaridagi qo'rqqulik, o'ta uyatchanlik, ishyoqmaslik, o'ziga ishonchsizlik kabi yomon shaxsiy xususiyatlarini yo'qotishga intiladilar. O'qituvchi va kollej psixologlarining vazifasi ularga yaqindan yordam berishdir.

Ko'pincha, o'z-o'ziga ta'sir etish bilan yaxshi o'qiydigan, tartib-intizomli, odob-axloqli lekin, shaxsidagi ba'zi bir yomon odat va kamchiliklarni tuzatishga intilgan yoshlar jalb qilinadi. Aslida, bunday ishga auditoriyadagi «tarbiyasi og'ir», o'zlashtirishi yomon talabalarni ko'proq jalb etish va ularni o'z-o'ziga ijobiy ta'sir etishga qiziqtirish va o'rganish zarur.

Buning uchun o'qituvchining o'z-o'ziga ta'sir etish metodlari – «Autogen trenirovka» - (auto – «o'ziga» degan ma'noni bildiradi) – o'z-o'ziga ta'sir etish mashqlarining qadimiy ildizlar, qadimiy xind jo'g'ilari (yodlari) tomonidan yaratilgan o'z-o'zini jismonan va ruhan kamol topshirish uchun yaratgan metodlarning AQSh va Evropada zamonamiz kishilarga moslashtirilgan shaklidir.

O'qituvchi talabalarga autogen mashqni o'rganish uchun o'zi quyidagilarni yaxshi bilishi zarur:

1. Talabalar autogen mashqni o'tkaziladigan joyni tanlashda uning tinchligi, boshqa kishilarning yo'qligiga e'tibor berish.

1. Stul, kreslo yoki erda qulay o'tirish.
2. Badanni qisib turadigan narsalar bo'lmasligi.

Bu talabalar asosan autogen mashqlarni yakka tarzda o'tkazish uchun mo'ljallangan ammo, autogen mashqlarni guruh tarzida ham o'tkazish mumkin. bunday mashqlarni o'tkazishdan maqsad talabalarga autogen mashqlar bilan mustaqil shug'ullanish malaka va ko'nikmalarini shakllantirishdir.

3. Talabaga psixologik ta'sir etishni boshlash yoki o'z-o'ziga ta'sirning samarador kechishi uchun avvalom bor jismonan va ruhan bo'shashlik – ya'ni relaksasiya holatiga – butunlay osoyishtalik holatiga tushishni o'rgatish kerak. Relaksasiya asosan auditoriyada yuz bergan murakkab pedagogik vaziyatlarda, pedagogik qarovsiz, tarbiyasi og'ir, infantal va psixopatsimon xarakterli bolalar bilan ishlashga to'g'ri kelganda qo'llash yuqori samara beradi.

Chunki, bu bolalarning ko'pchilig betoqat, tinimsiz, urushqoq, bezori bo'lib ularga tinchlanish, osoyishtalik ijobiy ta'sir etadi.

Ammo, shu narsani unutmaslik kerakki, talabalar bilan psixotrening va autotrening mashqlarini o'tkazish uchun o'qituvchi shu metodlarini yaxshi egallagan bo'lishi kerak. Shu auditoriyada aynan shu metodlarini qo'llash mumkinligi

haqida psixolog va bolalar shifokoridan rasmiy ruxsat olishi zarur, negaki, bosh miyasi jarohat olgan yoki tutqanoqli talabalar bunday mashqlar o'tkazish jarayonida o'zlarini yomon sezadilar.

Relaksasiyaning bosh miyaga psixofiziologik ta'sir mexanizmi juda sodda bo'lib, relaksasiya davomida talabaning ongiga tashqi va ichki asab tolalaridan (kanallaridan) kelayotgan ma'lumotlar keskin kamayib, faqat o'qituvchining ovozi – uning talabaga psixologik ta'siri bosh miya tomonidan axborot (yoki ma'lumot) talaba tomonidan to'siqlarsiz qabul qilinadi va uning ta'sir kuchi yuqori bo'ladi.

Yuqorida aytilganlarga qo'shimcha qilib shuni ko'rsatish kerakki, bu mashqlarni o'tkazuvchi shaxs ruhan pok, jismonan sog'lom va shu mashqlarni o'tkazishga rasmiy haq-huquqli bo'lishi shart. Autotrening mashqlarini o'smirlar va yoshlar kechqurun uyquga yotishdan oldin yoki ertalab o'rindan turishdan oldin ishlatish yaxshi samara beradi.

Yakka tarzda yoki guruh bilan talabalarda relaksasiya mashqlarini o'tkazib, so'ng o'z-o'ziga ta'sir etishda o'rgatish mashqlarini boshlasa bo'ladi. Buni taxminan shunday boshlash mumkin:

- ko'zingizni yuming, siz hozir xotirjamsiz va tinchsiz, siz dam olayapsiz (qo'l, oyoq, bel, bo'yin, yuz, kalla muskullari bo'shashtiriladi).

- Siz erkin nafas olayapsiz. Keyin talabalarga, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan (masalan, irodani mustahkamlash, kuchli bo'lish, xotira va diqqatni rivojlantirish uchun alohida so'zlar – «formulalar» ishlab chiqiladi). Topshiriq, buyruqlar takrorlanadi. Masalan: ona tili va adabiyot darslarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan «formulaning» namunasi: «Men ona tili va adabiyot darslarini yoqtiraman, chunki bu fanlar juda qiziqarli va menga bu fanlar kelajakda juda ham zurur bo'ladi» va hokazolar aytiladi. Juda muhim va zarur jumalalar ikki martadan va undan ortiq takrorlanadi. Psixologik va pedagogik ta'sir etish o'qituvchi tomonidan doimo o'tkazilishi talabalarni tashabbusiz, sust qo'yishi mumkin. Asosiy maqsad talabalarning o'z-o'zlariga psixologik ta'sir etishni o'rganishdir. Bunga erishish esa har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashdagi asosiy qadamdir.

Savol va topshiriqlar.

1. Pedagogik texnologiya tushunchasiga izoh bering
2. Pedagogik texnologiyalarning mezonlarini ayting
3. Pedagogik muloqotning asosiy shakllari nimalardan iborat?
4. Muloqot tushunchasining mohiyati.
5. Muloqotga kirishish jarayonida qo'llaniladigan muomala uslublarini ayting.
6. O'qituvchining muloqotida uchraydigan pedagogik nizolar va kamchiliklarni oldini olish yo'llarini ko'rsating.

O'quv-tarbiyaviy vaziyatlarni loyihalashtirish asoslari.

Reja:

1. Tarbiyaning mazmuni va asosiy yo'nalishlari.

2. Oilaviy hayot sohasi tarbiya muhiti sifatida.

3. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini kamol toptirishning psixologik-pedagogik asoslari

Tarbiya - har bir insonning hayotda yashashi jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko'nikmasini o'zgalarga berish jarayoni.

Chunonchi, tarbiya keng sotsial maonoda ijtimoiy hodisa sifatida qo'llanilganda jamiyatning barcha tarbiyaviy vositalarini o'z ichiga oladi.

Tarbiyaning oboektiv qonunlari - o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va ijtimoiy hayotning shaxsni, uni o'ziga xosligi hamda sifatlarini shakllantirish talabalardagi turg'un bo'lgan anoanalaridir.

Darxaqiqat, tarbiya ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan hodisalardir. Tarbiya yuksak maonaviy, jismoniy barkamollik, yaxshining yomondan farqini anglash, yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirish qudratiga egadir. Tarbiya kishilik jamiyatining xamma bosqichlarida rivojlanib, o'sib, avloddan-avlodga vorislik vazifasini bajaradigan hodisa. Lekin har bir jamiyatda tarbiyaning maqsadi, vazifasi, mazmuni o'ziga xosligi bilan farq qiladi.

Xalq iqtisodiy, siyosiy va maonaviy zaruratdan kelib chiqib, yosh avlodni tarbiyalash muammolari dastlab xalq og'zaki ijodiyoti, xalq pedagogikasi, yozma yodgorlik va pandnomalarda, mutafakkir va maorifatparvarlarning asarlarida bosh mavzu bo'lib, komil inson shaxsini shakllantirish uchun zaruriy xodisa sifatida talqin etilgan. Xalq og'zaki ijodiyotida tarbiya bosh masala sifatida tavsiflangan bo'lsa tarbiya va odob, vatanga cheksiz muhabbat, adolat, insof, botirlik, mehnatsevarlik, bilimdonlik kabi g'oyalar tarbiya vositasi tarzida qo'llanilgan. «Vatan qadrini bilmagan o'z qadrini bilmas», «Vatanga kelgan iymonga kelar». «Bola tuqqanniki emas, tarbiyalaganniki», «Ota g'ayratli bo'lsa, bola ibratli bo'lar» kabi xalq maqollari bevosita tarbiyaga daxldordir. Hadis ilmida tarbiyaning inson kamoloti uchun cheksiz muhabbat, ilmiy tuyg'u kabi sifatarning izohi xam beriladi. «Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangiz», «Otaga itoat qilish-tangriga itoat qilishdir» va boshqalar shular jumlasidandir.

Xalq og'zaki ijodiyoti va pedagogikasida tarbiya muammosi inson uchun zarur bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy, jismoniy, maonaviy, axloqiy sifatlarini qamrab olgan bo'lib, tarbiya orqali amalga oshirish nazarda tutiladi. Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asarida keltirilganidek:

Qobilga tarbiya erur ul navoqin guhar

Tushsa, najosat ichra yuvgay kimsa ani pok.

Gar it uzumiga kishi may birla bersa suv,

Bu tarbiya bilan qila olgaymu ani tok.

Quyidagi satrlarda alloma tarbiyani kimga berishni ham bilish kerakligini ta'kidlab, tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil qilishga, uning qonun-qoidalariga amal qilishga ham chorlaydi. Pedagogika fanida tarbiya - inson tarbiyasi muammolarini asosiy maqsad qilib, barkamol shaxsni shakllantirishga zamonaviy pedagogika fani yutuqlaridan foydalanish bilan bir qatorda milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizdan foydalanish va ijodiy yondoshishni talab etadi. Bu talab ajdodlarimiz g'oyalariга suyanib, quyidagi qonunlarga asoslanishi zarur deb xisoblaymiz:

-Tarbiya inson faoliyati jarayonida tartibli ta'osir etuvchi omil bo'lib, natijasini insonning yashab turgan ijtimoiy sharoiti belgilaydi;

-Inson kamolotini harakatlantiruvchi kuch, qarama-qarshiliklarni mavjudligi uning shaxsiy hayotida namoyon bo'ladi;

-Inson faoliyati jarayonida atrofdagi narsa va hodisalarga qiziqish uyg'otish va uni ehtiқodga aylantirish lozim. Chunki insonning jamiyatda bo'lgan munosabatida, tevarak-atrofdagi kechayotgan voqea-hodisalarga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi;

-Tarbiya jarayoni yoshlarning kattalar bilan, kattalarning yoshlar bilan qonuniy munosabati natijasida amalga oshirilishini ta'minlashi demakdir.

-Tarbiya jarayonining qonun, qoida, tamoyil va metodlarini pedagogikaning tarbiya nazariyasi qismi chuqur, atroflicha o'rganadi.

Tarbiya haqida tushuncha. Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining tarkibiy qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o'rganadi. Yosh avlodni tarbiyalashda nimalarga ehtibor qaratmoq lozim? Bunday masalalarni hal etishda avvalo mamlakatimizda siyosiy-ijtimoiy qalarda yuz berayotgan islohatlar mohiyatini chuqur va atroflicha mushohada qilib olishga to'g'ri keladi. Chunki davr ham, inson tarbiyasi ham o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, XXI asr insoniyat tarixida kompyuter davri bo'lib kirib keldi. Biroq, fan-texnika qanchalik jadal rivojlanib, jamiyat hayotida muhim joy olib, ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashuviga qanchalik samarali ta'sir etmasin, tarbiya nazariyasida shaxsni komil etib tarbiyalash, bu borada Markaziy Osiyo mutafakkirlari, xalq pedagogikasi hamda jahon pedagogikasining ilg'or fikrlariga tayanib ish ko'rish zarur bo'ladi. Yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashda birinchi navbatda Sharq mutafakkirlarining qimmatli ma'naviy meroslari muhim dasturil amal ahamiyatiga ega bo'ladi. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oni, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Nahshband, Amir Temur, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, Alisher Navoy va Zahiriddin Muhammad Bobur singari olamga mashhur allomalarining ijtimoiy, siyosiy va falsafiy qarashlari barcha zamonlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'z o'tmish madaniy merosini chuqur o'rganmagan va ehzozlamagan, ajdod-avlodlari bosib o'tgan tarixiy yo'lni idrok etmagan, milliy mustaqillik yo'lida jon fido qilgan buyuk ajdodlar faoliyatidan xabardor bo'lmagan inson o'zligini hech hachon anglab etolmaydi.

O'tmish madaniy merosini o'rganish murakkab jarayoni sanaladi. Madaniy merosi namunalari va ularda ilgari surilgan ezgu g'oyalarni yosh avlod ongiga singdirish uzluksiz, izchil, tizimli hamda maqsadga muvofiq amalga oshirilishi zarur. Tarbiya maqsadi va vazifalari. Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyatan turlicha ifodalab kelingan bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan.

Tarbiya maqsadi ijtimoiy buyurtma asosida belgilanadi. Eng oddiy harakatdan tortib to keng ko'lamli davlat dasturi asosida tashkil etiluvchi tarbiya doimo muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi.

Maqsadsiz, Ma'lum g'oyani ifoda etmaydigan tarbiya bo'lmaydi. Tarbiya maqsadi asosida uning mazmuni asoslanib, maqsadni amalga oshirishga xizmat qiluvchi metod va usullar aniqlanadi. Tarbiya maqsadining muammosi pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Tarbiya maqsadi umumiy va individual harakterga ega bo'lishi mumkin. Ilg'or pedagogika umumiy va individual maqsadlar birligi va uyg'unligini namoyon etadi.

Maqsad tarbiyaning umumiy ijtimoiy maqsadni ijobiy hal etishga yo'naltiriladi hamda aniq vazifalar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, tarbiya maqsadi tarbiya jarayonini tashkil etish asosida hal etiladigan vazifalar tizimidir. Tarbiya maqsadlari mohiyati va ko'lamiga ko'ra umumiy va aniq vazifalar sifatida guruhlanadi.

Tarbiya maqsadi qanday shakllanadi? Uning shakllanishida ko'plab obhektiv sabablar etakchi rol o'ynaydi. Organizmning fiziologik etilish qonuniyatlari, insonning ruhiy rivojlanishi, falsafiy va pedagogik fikrlar yutug'i, ijtimoiy madaniyat darajasi maqsadga umumiy yo'nalish beradi. Biroq asosiy omil doimo davlat mafkura va siyosati bo'lib qolaveradi.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi rahbariyati yoshlar orasidan eng iqtidorli, salohiyatlarini tanlab, saralab olib, ularni ilmiy, madaniy-ma'naviy jihatdan kamolotga erishishlari, zamonaviy fan-texnika asoslarini puxta o'zlashtirib olishlari uchun g'amxo'rlik qilmoqda. O'zbekiston Respublikasining istiqboli nazarda tutilib, ko'pgina yoshlarning Turkiya, Xitoy, Yaponiya, AqSh, Germaniya kabi rivojlangan xorijiy mamlakatlarga tahsil olish uchun yuborilayotganliklari fikrimizning yorqin dalilidir.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» qonunini hayotga joriy etish, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash hamda umumiy tibbiyot muammolarini zamon talablari darajasida olib borish, maktablarni milliy lashtirish, o'rta maxsus hamda oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarini test usulida o'tkazish borasida amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar o'z samarasini bermoqda.

Jamiyat ma'naviyati va shaxs kamolotida muhim o'rin tutuvchi ma'naviy va axlohiy poklik, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat, keksalarga hurmat singari insoniy fazilatlar o'z-o'zidan shakllanmaydi. Barchasining asosida yosh

avlodga oila, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi va samarasi yotadi.

O'sib kelayotgan yosh avlodning zamon talablariga mos, barkamol inson bo'lib shakllanishlari uchun ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlari – aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, ekologik, iqtisodiy hamda jinsiy tarbiyani tashkil etishga nisbatan yangicha nuqtai nazardan yondashish, ularning samarali yo'llarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi. Bu esa tarbiyadagi eng muhim vazifalardir.

Tarbiya mazmuni. Aqliy tarbiya – shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilim asoslarini berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, shaxs tomonidan tabiat, jamiyat, shuningdek, inson tafakkuri haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, unda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi. Aqliy tarbiya yuksak ma'naviy va axloqiy sifatlarga ega shaxsni tarbiyalashda etakchi o'rin tutadi.

Bilimlar tizimini ongli ravishda o'zlashtirish mantiqiy fikrlash, xotira, diqqat, idrok etish, aqliy qobiliyat, moyillik va iqtidorni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Aqliy tarbiyaning vazifalari quyidagilar sanaladi:

- shaxs tomonidan ilmiy bilimlarning muayyan hajmini o'zlashtirilishiga erishish;
- bilishga bo'lgan qiziqishlarni yuzaga keltirish;
- aqliy qobiliyat va iqtidorni rivojlantirish;
- bilishga bo'lgan faollikni kuchaytirish;
- mavjud bilimlarni muntazam ravishda boyitib borish, umumiy o'rta ta'lim va maxsus kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga bo'lgan ehtiyojni rivojlantirish.
- ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

Muhammad alayhissalom o'z hadislarida; «Ilmga ilm olmoq yo'li bilan erishilgaydir. Ilmu hunarni Xitoyga borib bo'lsa ham o'rganinglar. ... Ilm egallang. Ilm sahroda do'st, hayot yo'llarida tayanch, yolg'iz damlarda yo'ldosh baxtsiz daqiqalarda rahbar, qayg'uli onlarda madadkor, odamlar orasida zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashishda qurolidir» deydi.

Shuningdek, hadisi Sharifda «Ilm olmoqqa intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir» deydilar.

Alisher Navoiy o'zining «Farhod va Shirin» dostonidan Farhodning aqlu-idrokli, bilimdon, hunarmand, kamtar, insonparvar, irodali va ehtiqli bo'lganligini tasvirlaydi.

Jismoniy tarbiya o'quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Yuqori darajada rivojlangan ishlab chiqarishga asoslangan mavjud ijtimoiy sharoit jismonan baquvvat, ishlab chiqarish jarayonida yuqori unum bilan ishlashga qodir, qiyinchiliklardan cho'chimaydigan, shuningdek, vatan himoyasiga doimo tayyor bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash zarurligini ko'rsatmoqda.

Jismoniy tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarning sog'lig'ini mustahkamlash, ularni to'g'ri jismoniy rivojlantirish;
- o'quvchilarning aqliy va jismoniy ish qobiliyatlarini oshirish;
- ularning tabiiy harakatchanligini rivojlantirish va mukammallashtirish;
- o'quvchilarni harakatning yangi turlariga o'rgatish;
- ularning irodaviy sifatlari (kuch, chaqqonlik, uquvlilik va boshqalar)ni rivojlantirish;
- o'quvchilarning gigienik ko'nikmalarni rivojlantirish;
- ularda ma'naviy-axloqiy sifatlari (dadillik, qathiyatlik, intizomlilik, mashuliyatlik, jamoa bilan bo'lish)ni tarbiyalash;
- o'quvchilarda jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy va muntazam shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish;
- o'quvchilarning sog'lom va baquvvat bo'lishlariga erishish.

Jismoniy tarbiyani bolalarning maktabgacha yoshidan boshlab muntazam tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Jismoniy tarbiya ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan fanlardan biri sanaladi. Sinfdan va maktabdan tashqari sharoitlarda tashkil etiluvchi jismoniy mashg'ulotlar jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini tahminlovchi qo'shimcha tadbir hisoblanadi. Jismoniy tarbiya tarbiyaning boshqa tarkibiy qismlari bilan mustahkam bog'langan hamda ular bilan birgalikda har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish vazifalarini hal etadi.

Demak, yuqorida ta'kidlaganidek, yoshlarni aqliy jihatdan kamol toptirishning birinchi sharti ularni ilm olishga dahvat etishdir.

Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish maqsadida tashkil etiluvchi pedagogik jarayondir. Axloqiy tarbiya ham ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Axloqiy tarbiya asosini shaxsni ijtimoiy axloqiy mehyorlardan xabardor etish tashkil qiladi. Axloq (lot. «moralis» - xulq-atvor mahnosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllarida biri hisoblanib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarining majmui sifatida aks etadi.

Qur'on i Karim va Hadisi Shariflardagi axloqqa oid ibratli maslahatlar, hikoyatlar asrlar davomida tarkib topgan milliy urf-odatlar, anhana va qadriyatlar mazmunida o'z ifodasiga ega bo'lgan. Sharq mutafakkirlari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Nahshband, Amir Temur, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Sahdiy Sheroziy Alisher Navoy va Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning axloq haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillik, millatidan qat'iy nazar odamlarga xayrihlik bilan munosabatda bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi – kishilar o'rtasidagi munosabatlarning mehyori hisoblanadi. O'zbeklar diyoriga, o'z Vataniga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlariga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom O'zbekiston aholisiga xos fazilatlaridir».

Amir Temur axloqi xusniya – yaxshi xulqlar egasi bo'lgan. U oqil va tadbirli sarkarda sifatida kishilarni turli lavozimlarga tayinlash va vazifasidan ozod etishda ham shoshma-shosharlik va adolatsizlikka yo'l qo'ymagan, balki etti o'lchab, bir kesgan.

Imom Ismoil al-Buxoriy «Axloqning yaxshi bo'lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik – mana shu to'rt xislatni Olloh Taolo senga bergan bo'lsa, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo'lsang ham, zarari yo'qdir», degan edi.

Demak, axloqiy tarbiya barkamol inson tarbiyasida etakchi bo'g'in, insoniy sifatlarni yaratuvchi, shakllantiruvchi, mukammallikka erishtiruvchi vosita hisoblanadi. Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, axloqiy tarbiya insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir omildir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligi, yomon xulqlarning yomonligini dadil va misollar bilan bayon qiladurg'on kitobdir.

Xuddi shu mahnoda axloq kishining xulq-atvori, ehtiqod-iymoni, yurish-turishi, fikr-mulohazalari, mushohada va muloqotida namoyon bo'ladi. Axloqli inson o'zini qattiq hurmat qiladi, unda ichki intizom kuchli bo'ladi. Suhbatdoshning ko'ngliga qarab gapiradi, kishining dilini og'ritmaydi, muloqot odobiga rioya qiladi.

Ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi mehnat tarbiyasi sanaladi. Mehnat tarbiyasi shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir. asosi, hayot manbai, umr mazmuni hisoblanadi. Mehnat tarbiyasidan ko'zlangan maqsad, avvalo, o'quvchilarga mehnatning mohiyati, mazmunini chuqur anglatishdan iboratdir.

Mehnat ijtimoiy hayotning muhim asosi, shaxsda ma'naviy-axloqiy va irodaviy sifatlarni shakllantirishning kafolatidir. Mehnat qilayotgan kishi o'zi bajarayotgan ishning natijalarini ko'rsa, his qilsa, o'sha natijalardan qoniqsa, rohatlansagina mehnat tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. halol mehnat – kishi hayotining mazmunini tashkil qiladi.

Xalqimizning «Mehnat – mehnatning tagi rohat», «Bugungi ishni ertaga qoldirma», «Daryo suvini bahor toshirar, inson qadrini mehnat oshirar», «Ishlagan tishlaydi, ishlamagan kishnaydi», «Mehnatdan qo'rqma, minnatdan qo'rq», «Odamning husni mehnat» kabi maqollar bejiz yaratilmagan. Buyuk alloma Bahouddin Nahshbandning «Dil ba yoru, dast ba kor» degan hikmati bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Allomaning fikricha, «Agar kishi hunarli bo'lsa, u bilimni haqiqatga bag'ishlaydi, o'z mehnati bilan kun kechiradi, bordi-yu kasbi bo'lmasa, bilimni kun kechirishga sarflaydi, halollikni unutadi».

Ta'kidlash lozimki, mehnatsiz kelgan boylik inson ruhiyatini buzadi, har qanday muqaddas narsani qadrsizlantiradi. Mehnat jarayonida kishilarda do'stlik, birodarlik, jamoa bo'lib ishlash kabi barcha tarbiyaviy sifatlarni shakllanadi. Eng muhimi, mehnat muhtojlik, bekorchilik, axloqiy jihatdan buzilishdan saqlaydi. Mehnat orqali inson o'zining va o'zgalarning qadrini biladi.

Ajdodlarmiz bola tarbiyasida, eng avvalo, uni mehnatga o'rgatish, kasb-hunarga qiziqtirishga alohida ehtibor berishgan. O'zlari farzandlariga mehnatsevarliklari bilan namuna bo'lganlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rta qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, yahni, bu narsa ularning sobitqadam, g'ayrat-shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanligini anglab etishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimizning ravnaq topishining asosiy shartidir».

Bu vazifalarni amalga oshirishda ota-ona, ustoz va murabbiy, keng jamoatchilik o'z mehnatini ayamasliklari, ayniqsa, maktab o'quvchilarida mehnatga va mehnat ahliga to'g'ri munosabatni shakllantirishdagi mashuliyatni chuqur his qilishlari kerak.

Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya: lot. «estezio» – «go'zallikni his etaman» mahnosini bildiradi) shaxsni ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish, to'g'ri tushunishni o'rgantish, ularning estetik didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish, shuningdek, go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalash jarayoni bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi sanaladi. Aqliy, axloqiy, mehnat tarbiyasini estetikasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Estetik tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- shaxsga ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush turmush go'zalliklari va ularni anglash to'g'risidagi bilimlarni berish;
- shaxsda ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush turmush go'zalliklarini anglash va idrok qilish qobiliyatini tarbiyalash,
- unda mavjud go'zalliklarni qadrlash hissi hamda estetik didni shakllantirish, go'zallikka muhabbat uyg'otish;
- go'zallikni yaratish ehtiyojini qaror toptirish, bu boradagi qobiliyat va estetik madaniyatni shakllantirish.

Estetik tarbiya axloqiy qiyofa, ijobiy xulq-atvor mehyorlarini tarkib toptirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim muassasalarida musiqa va tasviriy san'at darslari, adabiyot kabi fanlarning o'qitilishi estetik tarbiyani samarali yo'lga qo'yish vositasi hisoblanadi.

Estetik tarbiya bola tug'ilgandan boshlab umrining oxirigacha amalga oshiriladi. Shu sababli, u nafaqat maktabda, balki sinfdan va maktabdan tashqari sharoitlarda uyushtiriluvchi tadbirlarda, turli anjunalarda yosh avlodni go'zallik va nafosatni his etishga undovchi vositadir.

Xalqimizda, «Oq bo'lmasin, pok bo'lsin», «Pokliging – sog'lig'ing», «Sog' yuray desang, ozoda bo'l», «Yaxshi libos tanga oroyish» kabi maqollari bilan yoshlarimizni tabiat va jamiyatdagi go'zalliklarini ko'ra bilishga, ularni qadrlashga o'rgatib kelishgan.

Estetik tarbiya faqat narsa va hodisalarning mohiyatini anglash, go'zal jihatlarini ko'ra bilishnigina emas, balki ichki go'zallikni his qilish xislatini ham tarbiyalaydi. Insondagi xulqiy go'zallikni qadriga etishga undaydi.

Alisher Navoiy o'zining «Farhod va Shirin» dostonida Shirinni zohiriy va botiniy go'zallik sohibasi sifatida tasvirlaydi. Bilamizki, uning bu darajaga etishishda xolasi Mehribonuning tarbiyaviy ta'siri katta bo'lgan. Shirin mamlakat obodonchiligi, kanal qizish, suv chiqarish kabi ishlarda ishtirok etadi va usha xayrli ishlarga rahbarlik qiladi.

Shirin eng og'ir damlarda ham Farhodga vafodor, sadoqatli, irodali yor bo'lishi bilan birga tadbirli murabbiya, odil va donishmand davlat arbobi, komila, oqila va fazilatli, latofatli qiz edi. Shirinning bu fazilatlarini minglab qizlarga o'rnak bo'lib keldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Estetik tarbiya tomonidan amalga oshiriluvchi vazifalarini shartli ravishda quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1) o'quvchilarga nazariy estetik bilimlarni berish;
- 2) ularda amaliy estetik ko'nikmalarni shakllantirish.

Nazariy va amaliy estetik bilimlarni egallash asosida o'quvchilarda quyidagi holatlar ko'zga tashlanadi:

- estetik bilimlarning tarkib topganligi;
- estetik madaniyatning tarbiyalanganligi;
- estetik va madaniy meros namunalaridan xabardor bo'lish;
- estetik tuyg'uning rivojlanganligi;
- ijtimoiy hayot, tabiat va mehnat go'zalliklarini his etishi;
- go'zallikka intilish ehtiyojining rivojlanganligi;
- estetik idealning shakllanganligi;
- fikrlash, faoliyat, xatti-harakat hamda tashqi ko'rinishda go'zal bo'lishga intilish.

Estetik faoliyatga kirishish vazifasi har bir tarbiyalanuvchining tasviriy san'at, musiqa, xoreografiya to'garaklarida faol ishtirok etishi, ijodiy birlashmalar, guruhlar, studiyalar va hokazolarda qatnashishini nazarda tutadi.

Biroq, hozirgi zamon maktablarida tashkil etilayotgan estetik tarbiya shaxsni estetik jihatdan shakllanishini tahminlash borasidagi mavjud tablarga javob bermayapti.

Ijtimoiy tarbiya maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun tarbiya jarayonining xususiyatlarini anglab olish muhim ahamiyatga ega.

Tarbiya jarayonining mohiyati. Tarbiya jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uning muhim xususiyati aniq maqsadga yo'naltirilganligidir.

Zamonaviy talqinda tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni demakdir. Zero, tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyalari tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi.

Tarbiya jarayoni ko'p qirrali jarayon bo'lib, ular tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi (subhektiv va obhektiv) omillar asosida tashkil etiladi. Subhektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlarini anglatish, obhektiv omillar esa shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarini ijobiy hal etishi uchun sharoit yaratadi. Tarbiya maqsadi pedagogik faoliyat mazmuni, yo'nalishi, shakli hamda obhektiv sharoitlar bilan qanchalik mutanosib kelsa, shaxsni shakllantirish borasida shunchalik muvaffaqiyatga erishiladi. Tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqat o'qituvchi faoliyati, balki o'quvchining yosh va psixologik xususiyatlari, o'y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim o'rin tutadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez surhatda yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniyat sifatlarini namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Maktab tarbiyasi shaxs ongi, dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Chunki yoshlik yillarida insonda odob tizimi yuqori darajada ta'sirchan hamda beqaror bo'ladi. Shu bois tarbiya muvaffaqiyati ayni o'quvchilik yillarida shaxsga to'g'ri tarbiya berish lozimligini taqozo etadi. Tarbiya jarayonining yana bir muhim xususiyati uning uzluksizligi sanaladi. Tarbiya jarayoni o'quvchilar va o'qituvchining birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayonidir. O'quvchilarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi tarbiyani tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, oila, ta'lim muassasalari va jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarni uzluksiz o'tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

Maktab yoshidagi bolani tarbiyalashda maktab etakchi o'rin egallasa ham, bolalarga uzluksiz ta'sir o'tkaza olmaydi. Chunki bolalar Ma'lum muddatgina maktab, o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri ostida bo'lib, qolgan vaqtning asosiy hismini oilada, ko'chada, jamoat orasida o'tkazadilar. Kuzgi, qishki, bahorgi va ayniqsa, yozgi tahtil davrlarida o'quvchilar maktab, o'qituvchi ta'siridan chetda qoladilar. Demak, maktabda bolalarni tarbiyalash vaqt jihatidan chegaralangan bo'lib, sinfdan va maktabdan tashqari amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlardan holi vaqtda ular o'qituvchi yoki tarbiyachining tarbiyaviy ta'siri va nazoratidan uzoqlashadilar.

O'quvchilarga nisbatan maktab (ta'lim muassasasi)ning ta'sirini susaytirmaslik maqsadida, sinfdan va maktabdan tashqari hamda tahtil davrlarida tarbiyaviy ishlarga alohida ehtibor beriladi.

Ayni vaqtda, respublikada o'quvchilarning ta'lim-tarbiya muassasalaridan uzoqlashtirmaslik maqsadida qo'shimcha ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. qo'shimcha ta'lim muassasalarida o'quvchilar xususiy fanlar va xorijiy tillarni mukammal o'rganishlari, texnika va badiiy yo'nalishlar bo'yicha bilim olishlari, amaliy faoliyat ko'nikmalariga ega bo'lishlari mumkin. qo'shimcha ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan turli yo'nalish va mavzulardagi uchrashuv, ko'rgazma, ko'rik va suhbatlar o'quvchilarning tafakkur dunyosini boyitishda, ularda mustahkam harakter va irodani tarkib toptirishda muhim o'rin tutadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning yaxlit tarzda tizimli tashkil etilishidir. Yaxlitlik shundan iboratki, tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, vazifalari va metodlarining birligi shaxsni shakllantirish g'oyasi amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Bizga Ma'lumki, shaxs sifatлари navbatma-navbat emas, balki yaxlit tarzda o'zlashtiriladi. Shu bois pedagogik ta'sir ham yaxlitdir, tizimlilik harakteriga ega bo'lishi mumkin.

Tarbiya jarayonining yaxlitlik, tizimlilik xususiyati bir qator muhim pedagogik talablarga amal qilishi o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni ehtiyotkorlik bilan qaror toptirishi talab qiladi.

Ikki tomonlama aloqa ikki yo'nalishda, yahni, o'qituvchining o'quvchiga nisbatan ko'rsatadigan ta'siri (to'g'ri aloqa) hamda o'quvchining o'qituvchiga nisbatan munosabati (teskari aloqa) tarzda tashkil etiladi.

Tarbiyaning pedagogik texnologiyasi nazariyasi g'oyasiga muvofiq endilikda o'quvchi tarbiya jarayonining obhektigina bo'lib qolmasdan, subhektiv sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchining ichki imkoniyatlari, unga nisbatan bo'layotgan tashqi ta'sirlar, axborot manbalarini inobatga olishi zarur. Agarda, mazkur talab unutilsa, shaxsni tarbiyalash qiyinlashadi yoki barcha urinishlar samarasiz yakunlanadi.

Mana shundan tarbiya jarayonining yana bir muhim xususiyati – tarbiyada qarama-qarshiliklarning mavjudligi kelib chiqadi. Ushbu qarama-qarshiliklar o'quvchilarda o'z tushunchalariga muvofiq paydo bo'lgan dastlabki sifatlar o'rtasida yoki o'quvchilarga qo'yiladigan talablar bilan ularni bajarish imkoniyatlari o'rtasida ziddiyatlarning kelib chiqishi uchun zamin yaratadi.

Bundan tashqari, bu qarama-qarshiliklar ko'pincha bolaning ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq bo'lmasligidan, o'qituvchi va tarbiyachilarning o'quvchilar yosh va shaxsiy psixologik xususiyatlari (fehl-atvori, harakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy va fiziologik sog'lomligi)ni yaxshi bilmasligi oqibatida kelib chiqadi.

Demak, tarbiya jarayoni o'zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etidi:

- 1) aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayon;
- 2) ko'p qirrali jarayon;
- 3) uzoq muddatli jarayon;
- 4) yaxlit tizimlilik jarayon;
- 5) ikki tomonlama aloqa jarayoni;
- 6) qarama-qarshiliklardan iborat jarayon.

2.Oilaviy hayot sohasi tarbiya muhiti sifatida. Oila jamiyatning bir bo'lagi. Shunday ekan, inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi. Oila murakkab ijtimoiy gurux bo'lib, biologik, ijtimoiy, axlokiy, mafkuraviy va ruxiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi. Oila tor maishiy tushuncha emas, balki u ijtimoiy jamoadir. Shu sababli oilalar birlashib jamiyatni tashkil etadi.

Jamiyatdagi o'zgarishlar oilaga ta'sirini ko'rsatganidek, oiladagi o'zgarishlar ham jamiyatga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Buni biz 1998 yil mamlakatimizda "Oila yili" deb e'lon kilinishi misolida ko'rishimiz mumkin. Shu munosabat bilan xukumatimiz ishlab chikkan tadbirlar oilani ijtimoiy muxofaza kilish, oilada yoshlar tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish, oilaning huquqiy tamoyillarini kengaytirish va boshka oilani mustaxkamlash bilan boglik masalalarga karatildi. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek: "Xalkimiz kadim-kadimdan oilani mukaddas deb bilgan. Oila axil va totuv bo'lsa, jamiyatda tinchlik va hamjixatlikka erishiladi, davlatda osoyishtalik va barkarorlik xukm suradi. Oila farovonligi - milliy farovonlik asosidir".

Shuni unutmashlik lozimki, farzandlarimizning har tomonlama kamol topishi uchun kulay sharoitlar yaratilsagina oila tarbiyasi muvaffakiyatli bo'lishi mumkin. Yosh avlod xayotining ko'p kismi oilada o'tadi. Shu boisdan turmushning murakkab muammolari bilan oilada tanishadilar. Oiladagi mavjud an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta'sirida yigit-kizlar asta-sekin kamol topib boradilar. An'ana va marosimlar tarbiyaning kudratli kuroliga aylanadi.

Kelajagimizning kandy bo'lishi xozirgi kunda biz tarbiyalayotgan yoshlarga boglik.Bu konuniyat oilaning tarbiya borasidagi faoliyatiga ham boglik. Oilaviy tarbiyaning murakkabligi shundaki, har bir oila o'ziga xos bir olam. U tarbiya ishida ham o'ziga xos xususiyatlarni namoyon kiladi.

Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiya bilan uzviy alokada bo'lsagina, o'sib kelayotgan yosh avlod farovonligini ta'minlash mumkin. Oila tarbiyasidagi yutuklar ota-onalarga pedagogik bilimlar berish, oilaviy tarbiya bo'yicha tajribalar almashishi, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga kizgin jalb kilishga ham boglikdir.

Har bir ota-ona o'z farzandlarini tarbiyalash borasidagi burch va mas'uliyatlarini chukur anglashlariga boglikdir. Bundan tashkari normal oilaviy muxit, ota-onaning obro'si, to'g'ri kundalik rejim, bolani kitobga va o'kishga, mexnat kilishga o'z vaktida jalb kilishlari ham muvaffakiyat garovidir.

Ko'rinib turibdiki, kadimdan ham, bugun va ertaga ham, bundan keyin ham aklli, farosatli, tafakkuri chukur - bir so'z bilan aytganda kamolotli farzand tarbiyalash muammosi dolzarbdir. Xalk bunday fazilatli insonlarni sevadilar, e'zozlaydilar va xurmat kiladilar.

Bunday tafakkurga boy kamolotli farzand tarbiyasining sarchashmasi oiladan boshlanadi. Oila ana shunday tabarruk kal'adir. U kandy kurulishi lozim? Oila o'zi nima va uning maksad, vazifalari nimalardan iborat?

Oila – voyaga yetgan ikki jinsning sevis, ardoklash, xurmat kilish asosida, ixtiyoriy ravishda, kalb xohishi bilan tuzilgan konuniy ittifoqidir.

Mo'jazzina bir kal'a kurildi. Endi bu kal'ada bekinmachok o'ynalmaydi. Yoshlikdagi o'yinkaroklik, beboshlik, erkalik, beparvolik o'rnini sezgirlik, mas'uliyat, andisha, javobgarlik kabi fazilatlar egallay boshlaydi. Bunga har bir yosh tayyorlanib, mas'uliyat ko'nikmasini his kilib, oila maksad va vazifalarini tushunib, ukib bormogi lozim.

Oila maksadi – ikki jinsning o'zaro kelishuvi asosida farzandni dunyoga keltirish hamda tabiat va jamiyatning davomiyligini ta'minlash.

Oila vazifasi – er-xotinning birgalikda xo'jalik yuritish asosida oilani ham ma'naviy, ham iktisodiy jixatdan ta'minlash hamda jamiyatga soglom, aklli, har tomonlama barkamol farzand tarbiyalash.

2. Ota-onaning farzand oldidagi va aksincha farzandning ota-ona oldidagi burchlari

Komil farzandli bo'laman, baxtli oila kuraman degan maksad bilan oila kurdingiz. Ammo bu maksadga erishish farzand tarbiyalashdagi muxim omillarni, farzand oldidagi burchlarni bilib ish ko'rishni takozo etadi.

Ota-onaning farzand oldidagi burchlari

farzandga chiroyli ism ko'yish (farzandingiz o'z ismini o'zgalarga aytganda orlanmasin); savodini chikarish, iktidoriga karab bilim berish, imkoniyatiga yarasha o'kitish va kasb-xunar o'rgatish;

- uylantirish. turmushga chikarish;
- uyli-joyli kilish;
- farzandlar orasidagi meros taksimotida adolatli bo'lish.

Farzandning ota-ona oldidagi burchlari

- Ota-onaning pand-nasixatlariga kulok solish, ularga har doim yordam berish, mexribon, e'tiborli bo'lish, oila ishlariga ham ma'naviy, ham iktisodiy yordam berish;

- har bir farzand o'z singil va ukalariga mexribon, yo'lboshchi va yo'ldosh, odobda, axlokda, ishda, ilm-xunar o'rganishda o'rnak bo'lish;

- ota-onalarining nimaga muxtoj ekanliklarini kalban his kilish, ularga bu borada amaliy mexribonlik ko'rsatish;

-oilaga berayotgan ma'naviy va iktisodiy yordamini minnat kilmaslik;

- tavallud, bayram va xayit kunlarida yo'klad turishni kanda kilmaslik;

- kekxa ota-onalariga aloxida gamxo'rlik kilishi, shirin muomalada bo'lishi, orzu-niyatlarining amalga oshishida yordam berish;

- vakti-soati yetib, bandalikni bajo keltirsalar, izzat-ikrom bilan oxirgi manzilga kuzatish, ma'rakalarini kamtarona, dabdabasiz, karindosh-uruglar, uni bilgan, xurmat kilgan eng yakin odamlar bilan o'tkazish.

3. Oila a'zolarining huquqlari

Oilada va jamiyatda er va xotin teng huquqlarga ega. Bu yerda konunda belgilangan huquqlar haqida gap ketmokda. Bunday tenglik saylash, saylanish, kasb tanlash, ishlash, bilim olish, o'ziga yor tanlash va xokazo huquqlarda o'z ifodasini topadi. Lekin ikki jinsning biologik, ruxiy tuzilishi nuktai-nazaridan bunday tenglik yo'k. Shuning uchun ayol va erkakning oilada ro'zgor tebratish, farzandlarni tarbiyalash, farzandlarning oila yumushlari va vazifalaridagi mexnat taksimoti masalalaridagi huquq va burchlarida birmuncha tafovutlar mavjud.

Erkakning vazifasi – oilani ma'naviy, iktisodiy ko'llab-kuvvatlash. Ayoli va farzandlarining tashvishlariga sherik bo'lish. Oilaga soya solayotgan xavf-xatarlarga kalkon bo'la bilish. Oila a'zolariga gamxo'r bo'la bilish.

Ayolning vazifasi – oilada farzand tarbiyasi bilan shugullanish. Ularni ok yuvib, ok tarash. Erkakning tashib kelgan ozik-ovkatlarini pishirish, mexmon kutish. Er va bolalarini ishga va o'kishga kuzatish, kutib olish.

Er va ayolning vazifalari yukorida sanab o'tilganlardangina iborat emas, albatta. Bu vazifalarning barchasini sanab o'tishning xech kandy iloji yo'k. Oila sharoitidan kelib chikkan xolda, har bir inson o'z tafakkurini ishga solib, vazifalarini belgilab olmogi va ularni shunday bajarmoklari lozimki, uyga kelgan har bir mexmon tuz-nasibasini totib, kaytayotganida oila a'zolari orasidagi o'zaro xurmat, ularning har birini aklu farosatiga tasannolar o'kib ketsinlar.

Oila deb atalmish aravani tortib borayotgan er va xotinning bir-biriga yelkadosh bo'lishini, o'zaro odoblarini, bir-biriga bo'lgan mexribonliklarini ko'rgan farzandlar ulardan o'rnak oladilar va ularga o'xshashga harakat kiladilar. Chunki farzand aytgan nasixatingizni esidan chikarishi mumkin, ammo ko'rganini xech esidan chikarmaydi. Oilada farzand tarbiyasining bu jixatini xech kachon esdan chikarmaslik lozim.

Aytaylik, bozordan shirinlik harid kildingiz, kelgan xaxotiyok uni kichigingizga berdingiz-u, xech kimga ko'rsatma dedingiz. U esa bolaligiga borib, shirinlikni hamma akalariga ko'z-ko'z kilib chikdi. Lekin ularga yo'k. Ular o'ksinishadi. Kichik bo'lgan yaxshi ekan deyishadi. Hamma narsa kichikka, sovga ham, shirinlik ham, erkalatish ham, deb bolalar orasidagi yakkalik, o'zini uzok tutish kayfiyatlarini paydo bo'la boshlaydi. Bunday xolatlariga yo'l ko'ymaslik uchun, uyga biror narsa harid kilib, olib kelganingizda har doim uni adolatli taksim kiling. Taksimlash jarayonida ota-ona o'zlarini ham unutmazliklari kerak. Bu juda muximdir. Bolalaringiz bu jarayonni ko'rsa, vakti kelib ular ham topib keladigan bo'lganlarida sizga ulush ajratishni unutmaydilar. Bolalar oldida kilgan bu adolatli taksimingiz ular uchun eng katta sabok bo'ladi. Birinchidan, ular bir-birlariga mexrlari orta boradi. Ikkinchidan, doimo ota-onani eslab turadigan bo'ladi. Aks xolda olib kelgan narsalaringizni fakat bolalaringizga taksim kiladigan bo'lsangiz, keyinchalik ular sizni eslamaydigan, fakat o'zlarini o'ylaydigan bo'lib koladilar. Ayniksa, karib kuch-kuvvatdan kolganingizda tarbiyada yo'l ko'ygani bu xatolingiz siz uchun juda katta azobga, tuzatib bo'lmas armonga aylanadi.

Farzandlaringizga bir ko'z bilan karangiz, kattasini katta, kichigini kichik deb, shunga yarasha ish tutsangiz, kichiklarning kattalari bilan maslaxatlashib ish tutishlariga, kattalarining kichiklarini izzat kilishga, ularni ximoya

kilishga odatlantirsangiz, ularni yaxshi ishlarini ma'kullab, ragbatlantirib borsangiz, yomon ishlarini o'z vaktida kaytarib, bu ishning nima uchun yomonligini yotigi bilan tushuntirib borsangiz, farzandlaringizning kamoli, o'zingizning kelajakdagi roxat-farogatingiz uchun juda muxim va katta tarbiyaviy ishni amalga oshirgan bo'lasiz. Ulardagi mexr-okibatni, obro'larini ko'rib, o'z xayotingizdan mamnun bo'lasiz, farzandlaringiz tarbiyasi borasidagi chekkan zaxmatlaringiz, mashakkatlaringiz unutiladi.

Kuyidagi tarbiyaviy masalalarni taxlil kiling:

Masala-1. O'ziga to'k otaxonning uch kiz, bir o'gli bor edi. U kishi kariganlarida mexrni shu yagona o'gillaridan kutgan edi. Ammo kelini noboprok chikib, ular otaga karashmadi. Ikki katta kizi ham o'z oilalari bilan bo'lib, otadan xabar olmas edilar. Otaning kuniga kenja kizi yaradi. Ok yuvib, ok taradi, ko'nglini ko'tarishga harakat kildi. Otaxon olamdan o'tganlaridan keyin kenja kizdan tashkari hamma meros talashib, yettisi o'tmasdan janjallashishdi.

Masala-2. Besh oga-inining uchinchisi biznes kilaman deb katta qarzga botib koldi. Nixoyatda axvoli tang bo'lgan uka akalardan qarz so'radi. O'ziga to'k akalari qarzni kaytarib bera oladimi, yo'kmi? deb unga qarz berishmadi. Uka nima kilishini bilmay, o'zini har tomonga urdi. Oxiri noiloj bir kaltis ishga ko'l urib, kamalib ketdi. Mahallada: "Ukamning bolalarini biz bokayapmiz, xech narsaga muxtojlik joyi yo'k",- deb ko'kragiga urib yurgan akalarni kanday baxolaysiz?

TARBIYANING ASOSI OILADA SHAKLLANADI

Otasini ogritgan el ichida xor bo'lar,

Onasini ogritgan parcha nonga zor bo'lar.

Ma'naviy merosimizdagi tarbiyaviy goyalar rivojiga bir nazar soladigan bo'lsak, kanchalik ma'naviy javoxirlarga ega ekanligimizga ishonch hosil kilamiz. Ular tubsiz ummon, bitmas-tuganmas boylikdir. Har bir inson bu ummonga sho'ngiganda o'zining fe'l-atvori, dunyokarashi, bilim saviyasi va boshka xususiyatlariga karab ulush olib chikishi mukarrardir.

Tabarruk manbalarimiz bo'lmish "Kur'on", "xadis"lar, ajdodlarimiz ma'naviy merosi hisoblangan "Kobusnoma", "Shoxnoma", "Temurnoma", "Boburnoma", "Guliston", "Bo'ston", "Temur tuzuklari", "Kutadgu bilig", "Maxbub ul kulub" kabi durdona asarlarni mutolaa kilgan har bir inson tarbiyaning inson shakllanishidagi muxim omil ekanligiga ishonch hosil kiladi.

Tarbiyaning murakkabligi haqida Amir Temur : "Men farzand tarbiyalashda davlatni boshkarishdan ko'ra chukurrok mushoxada, undan ham chukurrok donishmandlik kerakligiga ishonch hosil kildim",- desa, Avloniy "Turkiy guliston yoxud axlok" asarida tarbiyaning ahamiyatiga: "Tarbiya bizlar uchun yo xayot, yo mamot, yo najot, yo xalokat, yo saodat, yo falokat masalasidir",- deb katta baxo beradi. Tarbiyani oiladan shakllantirib borish kerakligi, buning uchun ota-onaning o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerakligi haqida uktiradi.

Bolalarga biror narsani va'da kilgan bo'lsangiz va'daning ustidan chikish kerak. Bola oldida obro'yingizni to'kmang. Chunki bolalar juda ishonuvchan va begubor bo'ladilar. Sizning bergan va'dangizni sabrsizlik bilan kutadi. Vakti, dakikalarni sanab o'tkazadi. Intizorlik bilan kutgan vakt kelganda: "Dada, bugun bizni parkka olib borasizmi", desa-yu, sizning bergan va'dangiz esingizdan chikib ketgan bo'lsa, mulzam bo'lib kolasis. Shunday xolatlar 4-5 kaytarilsa, bolangizning sizga bo'lgan ishonchi yo'koladi. Gaplaringizga ishonmay ko'yadi. Obro'yingiz ketadi. Shuning uchun o'zingizga ishonmasangiz va'da bermang. Uddasidan chika oladigan ishga va'da bering. Bo'lmasa yaxshisi bolani aldamaningiz ma'kul.. Aks xolda bola ham katta bo'lganida odamlarga va'da berib, uni bajarmasa ham bo'lar ekan, degan xulosaga kelib kolishlari mumkin.

Farzandlaringizning tugilgan kunlarini bir xil mexr bilan teng ko'rgan xolda o'tkazishga harakat kiling. Birini ikkinchisidan kam ko'rmasligingiz lozim. Bolalaringizning tugilgan kunlarini oilaviy kilib, sodda o'tkazishga o'rgating. Farzandlaringizning tugilgan kunida oila a'zolaringizni ishdan yoki o'kishdan vaktlirok kelishlariga odatlantiring. Oldindan kelishib, farzandingizni tugilgan kuni bilan tabriklash uchun unga yokadigan eng kerakli biron-bir sovga harid kiling. Yoki o'zi anchadan beri olib bering deb yurgan narsasini olib bering. Yaxshi ko'radigan taomi, shirinliklari va mevalarini tayyorlang. Shu kuni tugilgan kuni nishonlanayotgan bolangizni kundalik ishlardan ozod kiling. Kolgan farzandlaringiz barcha yumushlarda sizga yordam bersin.

Oil a'zolarining hammasini tugilgan kunlarini shunday o'tkazishga ko'nikma hosil kilgan farzandlaringiz keyinchalik tugilgan kunlarni o'zlari mustakil ravishda o'tkazadigan bo'ladilar. Bir-birlariga nisbatan mexr-okibatli bo'ladilar. Bola-chakali bo'lganlarida bir-birlarini yo'klaydigan, bir-birlariga yordam beradigan bo'ladilar.

Bolani yoshligidan mexnatga o'rgatib boring. Inson birdaniga mexnatkash bo'lib kolmaydi. Siz buyurib ketgan ishlaringizni bolalaringiz baxoli-kudrat bajarib ko'yishibdimi, chala yoki kamchiligi bo'lsa ham eng avvalo o'z xursandchilingizni bildiring, ma'kul usullar bilan ragbatlantiring. Ishimni ko'limdan oladigan bo'lib kolibsizlar, deb maktang. Dadasi yoki oyisi, xudoga shukur o'gil-kizlarimiz katta bo'lib kolishibdi, endi bemalol ularga ishonib ishlaringizni topshiraversak bo'lar ekan, deb bolalarning o'zlarini oldilarida ularning nafsoniyatlariga tegmasdan, bafurja tushuntiring.

Farzandlaringizni iloji boricha mustakil ishlashga, mustakil fikr yuritishga o'rgating. Masalan, biror fandan sizdan yordam so'rasa, uni farzandingiz uchun ishlab bermang, fakat tushuntiring. Masalani mustakil xal kilib bo'lgandan keyin: "Mana o'zing bemalol yechsang bo'lar ekan-ku", -deb ko'nglini ko'tarib ko'ying. Ana shunda farzandingizda o'ziga ishonch hosil bo'la boradi.

Farzandlaringizni uy ishlariga o'rgatib boring. Yoshiga karab ko'lidan keladigan ishlarni buyurib turing.

Mazangiz bo'lmay koldi deylik. Bolalaringizning yoshiga karab uy ishlarini taksimlab bering. Sizning xolingizdan xabar olib turishsin, o'zingiz o'rgatgan ko'lidan keladigan ovkatni kilishsin. Buyurgan ishlaringizni o'zlari rejalab, o'zlari mustakil ravishda kilishsin. Kichkinangiz bo'lsa, unga boshingizni silab ko'yishini iltimos kiling. U jajji ko'lchalari bilan boshingizni silaganidan keyin ancha yengil tortganingizni ayting. Sizning sogayishingizga uning ham

hissasi ko'shilayotganidan bolangiz nixoyatda xursand bo'ladi. Sizga nisbatan mexri ortib boradi. Siz uning mexriga muxtoj ekanligingizni his etadi.

Ota-onaga, kayinona-kayinotaga bo'lgan mexrni ham ota-ona tarbiyalaydi. Aytaylik, bugun siz biror narsa harid kilib keldingiz. Siz bu narsalarni ochib, bolalaringizga biror idish olib kelishlarini aytib. Harid kilgan taomingizni oldini ota-onangizga solib bering-da, buving bilan buvanga olib borib ber deng. Ota-onangiz buni ko'rib bolalaringizni duo kiladi. Bolalaringizga shu baxonada duo olish bu o'sishing uchun kerak, u tabarruk narsa, inson ko'lidan kelgancha boshkalarga yaxshilik kilib borishi kerakligini ukdiring. Shu yo'sinda tarbiyalagan farzandingiz kariganingizda siz kilgan ishingizni kaytaradi. Chunki unga bunday tarbiyani yoshligidan singdirgansiz. Endi farzandlaringiz buva-buvilarining duosini duru javoxirlarga, xech kanday boylikka tenglashtirib bo'lmasligini tushunadi. Shuning uchun ham xalkimiz: :”Taomning oldini ota-onangga bersang, o'zing ham oldini yeysan”, deyishgan.

Kuyidagi xayotiy masalani taxlil kiling:

1. S.Raximov tumanidagi kariyalar uyida ikki onaxonning bir-biri bilan urishayotganligi ustiga borib koldik. Yetmish olti yoshli Xosiyat xolaning xech kimi yo'k. Eri urushda kurbon bo'lgan. Bitta o'gli bo'lgan, u ham vafot etgan. Oltmish yoshli Zamira ismli ayol yukoridagi ayolni shaltoklikda ayblab, u bilan turmasligini aytib janjal kilayotgan ekan. Zamira ayadan so'rasak, u to'rt o'gli borligini aytdi. Bolalari, kelinlari, nevaralarini hammasini kargab tilga oldi. Uning bu kargishlariga ilon po'st tashlaydi. U bizdan o'gillari, kelinlari ustidan yozib, sharmanda kilishimizni so'radi. Ayaning aytishlaricha, to'rt o'gil, to'rt kelin, nevaralari hammasi o'ta mexrsiz, axmok, yaxshilikni bilmaydigan ekan. Gap orasida yukoridagi Xosiyat ayaga:”Yaxshi bo'lsang seni kariyalar uyiga tashlab ketarmidi”,- deb ko'yar edi. Siz bu xolatni kanday baxolaysiz?

2.To'rt kelinini bir-biriga yomonlagan, kelinlarining yaxshi ishlarini ko'rmay, uncha-muncha kamchiliklarini ro'kach kilib, o'gillariga yomonlagan kayinona shu oilada o'ziga nisbatan mexr uygota oladimi?

Xalkimizning kuyidagi ibratli so'zlarini taxlil kiling:

Tinglagin bu ikki inson kissasin!

Ne eksang olarsan shuning mevasin,
Yashardi bir uyda ota va farzand,
Ularda yo'k edi boshka xech hamdard.
So'ngra kelin keldi o'gil ulgayib,
Ota ham karidi kaddi bukchayib.
O'z ishini kildi oxir bu jaxon,
Kelini ko'tardi otaga isyon.
Yigitga aytardi gazabla kelin,
“Tiyib ko'y otangning zaharli tilin,
Na turar, na yurar, yotar bir joyda
Bu badbaxt odamdan bizga ne foyda.
Gar uni yo'kotsang baxtli bo'lamiz,
Undan so'ng ikkimiz o'ynab kulamiz.
Yo'ksa men ketaman boshka bir yokka,
Sening izing yetmas uzok-uzokka!”
Ikki o't ichida yigit chekdi gam,
Tushmasin xech boshga bundayin sitam.
To'xtatolmay ko'zdan okkan yoshini,
Yarim tun ko'tardi gamgin boshini,
Turib opichladi bemor otani,
Xech kim kaytarmasin bunday xatoni.
Otaga yolgondan “safarga” dedi,
Lekin shum niyati xatarga edi.
Otasin opichlab kirlardan o'tdi,
Oxiri sen ko'rgan daraxtga yetdi.
Bizni ko'rmas, archa turar ko'kkayib,
Yigit kaytmok bo'ldi, otani ko'yib.
Bu ishdan padari kax-kaxlab kuldi,
Farzand bu xolatdan xayratda koldi.
“Tashlab ketmokdaman bugun seni men,
Nega yiglamasdan kulding bunda sen?”
Ota so'z boshladi o'gilga karab,
Daraxt ostidagi suyakni silab.
“Otamni shu daraxt ostiga o'zim,
Tashlab ketgan edim seningdek, o'glim.
Bok, bosh suyagi kulmokda menga,
Go'yo men kulgandek, ushbu dam senga”,
Bugapni eshitgach, o'gil dod solib,
Jo'nadi otasin ko'tarib olib.

Fojea shundaki, inson vagonlab kitob o'kishi mumkin, ammo olgan bilimlari asosida o'z ma'naviyatini, tafakkurini, ongini kamolotga yetkazmas ekan, u o'kib, ukmasdan ma'naviy kashshok bo'lib kolaveradi. Olgan bilimlari va xayotiy saboklari yigindisi nazariyaligicha kolib ketaveradi. Shuni unutmaslik kerakki, bemorni kasalini davolash, uning ruxiyatini va ma'naviy kamolotini shakllantirishdan ko'ra osonrokdir.

Shu o'rinda Mirzo Boburning kuyidagi bayti ayni o'rindidir:

Har kimki vafo kilsa, vafo topgusidir,

Har kimki jafo kilsa, jafo topgusidir.

Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz,

Har kimki yomon bo'lsa, jazo topgusidir.

Shunday ekan, har bir inson xayotdan olgan saboklarini va o'kib o'zlashtirgan bilimlarini ko'nikmaga aylantirib, joriy etib, amalda ko'llab borishlari kerak.

Er-xotinning oiladagi bir-biriga munosabati, yurish-turishlari komil farzand tarbiyalashning amaliyotidir

Oilada farzandlarimiz ota-onalarining bir-birlariga bo'lgan munosabatlariga karab izzat-xurmatni, muomalani o'rganib boradi. Ota-onalarimiz bir-birlariga mexrli bo'lsalar, shirin muomala kilsalar, bolalar ham shunga ko'nikma hosil kilib, shunday muomalaga o'rganadilar. Agar turmush o'rtogimizni ishga kuzatayotganda "yaxshi borib keling, adasi" yoki ishdan kaytganlarida "ishga yaxshi borib keldingizmi, adasi" deb tabassum bilan kuzatib ko'ysak va kutib olsak, oiladagi o'gil-kiz farzandlarimiz ham onaning bu harakatini ko'rib, otasiga xurmati oshadi. Ota-onani xurmat qilish kerakligini tushunib boradi.

Afsuski, hamma oilalarda ham shunday o'zaro xurmat va mexr-okibat mavjud emas. Ba'zi oilalarda erni xurmat qilish o'rniga ularga xukmron bo'lish, ularni "o'z izmiga solish" ga bo'lgan intilish xolatlari ham uchraydi. Xatto "bo'ysunmaydigan" erlarni o'z ayollik mavkeidan "foydalanib" o'n besh sutkaga kamatgan "onalar"ni ham uchratamiz. Bu bilan "topkir" ayollarimiz go'yoki o'z erlarining ta'zirini berib ko'ymokchi bo'ladilar. Bunday oilada erning xotinga bo'lgan xurmati, mexri susayib boradi, bora-bora esa yo'koladi. Endi er o'z xotinidan topmagan mexrni, xurmatni boshkalardan kidira boshlaydi va natijada oila mustaxkamligiga putur yetadi. Bolalar oldida turli ortikcha gaplar bilan eringizning obro'yini to'kmang. Ertasiga o'ziga kelganda yotigi bilan, bakirmay-chakirmay bafurja gaplashish mumkin. Masalan, "kechagi xolatingizdan bolalarni oldida juda uyaldim. Sizga bunday xolatda yurish yarashmas ekan. Axir bolalar bizga karab xayotni o'rganishadi, xayotda o'zlariga yo'l tanlaydilar. Biz ularga o'rnak bo'lishimiz kerak. Bolalar katta bo'lishayapti", deyish mumkin. Suxbatdan so'ng bolalaringiz otasining faxm-farosati bo'lsa, axvolni tuzatish kerak ekanligini tushunadi.

Ba'zi bir ayollarimiz borki, ular eridan ozgina ko'prok topganlari uchun minnat kiladilar. "Endi kosang okarib koldimi, cho'ntagingga pul tushib semirib koldingmi, pulli boyvachcha bo'lib, ichadigan bo'lib koldingmi?" kabi so'zlar bilan bolalari oldida erini haqorat kiladi, uning obro'sini to'kadi. Natijada bolalar otani xurmat kilmaydigan, aytganini kilmaydigan, gapini ikki kiladigan bo'lib koladilar. Onalari otasini yomonlayverishi evaziga bolalarda otaga nisbatan nafrat paydo bo'ladi. Endi axyon-axyonda, to'y-tomoshada yoki biron-bir sabab bilan ichadigan er har kuni alamidan ichadigan bo'ladi va kelib xotinini uradigan, so'kadigan, haqorat kiladigan odat chikaradi.

Faraz kilaylik, er do'stlarini uyga taklif kildi. Ammo bu tasodifiy taklif ayolga yokmadi. Chunki bir kancha ishlarni mo'ljallab ko'rgan yoki mexmon kutishga imkoniyati yo'k. Natijada mexmonlar xursandlik bilan kutib olinmaydi. Bu xoldan erning asabi ko'zgaydi. Mexmonlar kuzatilgandan keyin esa xotinining "ta'zirini" beradi.

Bu xol boshkacha, yaxshi natija bilan tugashi ham mumkin edi. Faxm-farosatli ayol bunday xollarda oilaning borini oshirib, yo'gini yashirib, mexmonlarni ochik chexra bilan, erining xurmatini joyiga ko'yib kutib oladi va kuzatadi. Mexmonlar ketgandan keyin, vaziyatga karab, er-xotin bir-birlarini tushungan xolda kanday ish tutish kerakligi haqida kelishib olishlari mumkin. Masalan, uy bekasi bunday deyishi mumkin: "Adasi, mexmonlarni olib kelishdan oldin uyda u-bu narsa bormidi, deb o'ylab ko'rsangiz yaxshi bo'larmidi? Uyda mexmon kutishga ozik-ovkat yetarli emas ekan, ko'shnidan olib chikishga majbur bo'ldim. Bundan buyon do'stlaringizni uyga taklif kiladigan bo'lsangiz ogoxlantiring. Ikkovlashib mexmonni kutishga tayyorlanaylik. Bo'lmasam uyalib kolamiz". Bunday suxbatdan so'ng er xotinning haq ekanligini tushunadi va bundan buyon xotini bilan bamaslaxat ish tutishga harakat kiladi. Do'stlari bilan suxbatda ularning: «Xotining juda ajoyib ayol-da, uyingga kay mahal borsak ham ochik chexra bilan kutib oladi. Tasodifan borib kolsak ham xotiningga xech malol kelmaganmiz»,-degan gaplarni eshitib, xotiniga bo'lgan mexri yanada ortadi, uni yana ham xurmat kiladigan bo'ladi. Oradagi sevgi, muxabbat, oila rishtalari mustaxkamlanadi.

Xayotda uchraydigan yana bir xolatni olaylik. Aytaylik, turmush o'rtogingiz oyogi ogrib, issigi chikib ishdan vaktli keldi. "Buni karang, Xilolaxon", deb oyogiga chikkan yarani sizga ko'rsatdi. Siz yarani ko'rib ijirgandingiz: "Voy-bo'y, shu arzimagan yarani menga ko'rsatasiz? Do'xtirga borsangiz bo'lmaydimi?" Sizning bunday munosabatingiz, gaplaringiz turmush o'rtogingizning kalbini shunday yaraladiki, lol bo'lganidan sizga so'zsiz bokib koldi. Naxotki, jufti xalolim deb bir yostikka bosh ko'rgan xotinim mendan shunchalik jirkansa. Ogirrok kasal bo'lib kolsam-chi, unda nima bo'ladi deb sizdan mexri soviy boshlaydi. Keyinchalik siz o'ylamay aytgan bir ogiz so'z bilan paydo kilgan kalb yarasini davolash uchun butun umringizni sarf kilishga to'gri kelishi mumkin. Shunda ham agar bu ijobiy natija bersa.

Aksincha, mana bunday xolatni tasavvur kilaylik.

«Voy, Anvar aka! Issigingiz chikib shuncha kiynalsangiz ham yuraverdingizmi? Kani keling-chi» deb mexribonlik bilan birinchi yordam ko'rsatsangiz va do'xtirga albatta chikishlarini aysangiz, bundan buyon bu masalaga har kuni kizikib borsangiz, olam guliston. Turmush o'rtogingiz endi har kuni ishdan keyin uyga shoshiladigan, sizni kumsab turadigan bo'ladi. Siz uchun esa bundan ortik baxt bo'lmasa kerak!

Oila kurgan har bir yigit-kiz, er-xotin bir-birini "Mexr" deb atalmish malham bilan oziklantirib tursa, unga suyansa, uni e'zozlasa, ulardan baxtli odamning o'zi bo'lmaydi.

Xilolaxon ismli kelinimiz yukori harorat bilan yotib koldi. Ishdan kelgan Anvarjonning oldiga zo'rga chikib salom berdi. Alik olgan Anvarjon: "Ovkat bormi?", - deb so'radi. Kelin tobi bo'lmagani, shuning uchun ovkat kilolmaganini tushuntirdi. Anvarjon: "Mana yuribsiz-ku, ovkat kilib ko'ysangiz bo'lmaydimi", -deb jaxl aralash guldiradi. O'zi oshxonaga kirib, ikkita tuxumni kovurdi-da, o'tirib tamaddi kildi. Anvarjonning bundagi har bir xatti-harakati, gapida zarda, kinoya, vikor, mensimaslik alomatlari sezilib turar edi. Ovkatlanib bo'lgan Anvarjon Xilolaning oldiga kirib: "Dasturxonni yigishtirib ko'yishga yararsiz?", - desa, bu Xilolaning kalbiga sanchilgan xanjar emasmi?

Buning o'rni Anvarjon har kuni xursand xolda tabassum bilan kutib oladigan turmush o'rtogining axvolini ko'rib: "Iye, Xilola, nima bo'ldi? Yoting, bezovta bo'lmang. Dori ichdingizmi? Ovkatlandingizmi?" - deb batafsil xol-axvol so'rab, sochlarini silab, erkalab ko'ysa, Xilola kasalini ham unutadi. Turmush o'rtogining kelishiga ovkat kilib ko'yolmaganidan xijolat bo'ladi. Bu bilan Anvarjon o'z turmush o'rtogini shirin so'z, kalb mexri bilan davolaydi. Endi Xilola erining kelishiga bir emas, ikki xil ovkat tayyorlaydi. Siz bergan mana shu ma'naviy ozukangiz tufayli u kanot chikarib uchadi. Barcha ishlarni bitmas-tuganmas kuch-gayrat bilan kiladi, haqiqiy mexribon turmush o'rtogi borligidan, toleidan xursand bo'ladi, xayotidan mamnun bo'lib yashaydi. Endi uning suyanadigan togi bor. Suxbatlashish uchun dilkash yori bor. Kiynalgan paytlarida yelkadoshi bor. Dunyoda undan baxtli ayol yo'k.

Shu o'rinda Beruniyning ayollar haqida bundan 11 asr ilgari aytgan kuyidagi fikrlarini keltirish maksadga muvofikdir. Ayollar olmosga o'xshaydi. Olmos olmos bo'lguncha, necha-necha charxlardan o'tadi, kanchadan-kancha mashakkatlarga chidaydi. Natijada kirralari shunday ishlov topadiki, yaraklaganida ko'zni oladi. Olmos shu tarika kimmatbaxo toshga aylanadi. Ayollar ham tortgan mashakkatlari, sabr-kanoati evaziga shunday baxoga sazovor bo'ladilar. Kizlarimiz ham borgan xonadonlarida aklilik, zukkolik va kamtarlik bilan ish ko'rsalar, ulardan baxtli ayol bo'lmaydi.

Beruniy o'zining "Xindiston" asarida "xech bir xalk oila-nikox munosabatlaridan xoli emas", -deydi. Oila kurishdan avval kiz va yigit bir-birlarini ko'rishlari, yoktirishlari, bir-birlariga kalban mexr ko'yib, so'ng oila kurishga rozilik bildirganlari ma'kul. Chunki bu kalban yoktirish, ya'ni boshkacha aytganda ikki yurakning bir-biriga nisbatan "jiz" etishi keyingi oilaviy tashvish va mojarolarning sillik o'tishiga yordam beradi, xayotda uchraydigan turli to'siklarni yengishda kuch-kuvvat bagishlaydi.

Xatto bu haqda Islomda kuyidagi goya bayon kilinadi:

Nikoxdan oldin kelinga maxr berish shartligi, kuyov bo'lmishning ijtimoiy axvoli yaxshi bo'lmasa, u xolda maxrni kisman bo'lsa ham berish kerakligi nazarda tutiladi.

Shariatda maxr - nikox oldidan ayolning ko'nglini olish, uning kalbida kuyovga nisbatan mexr uygotish maksadida shaxsan kelin bo'lmishning o'ziga berilishi lozim bo'lgan sovga (shirinlik, takinchok, mato) dan iborat. Bu sovganing ichida shirinlikning bo'lishi shartligi nazarda tutilgan.

Maxr berish islomda sunnat hisoblangan. Janobi Rasulullox sallolloxu alayxi vasallam kizlari xazrati Fotimani kuyovi Aliga berganlarida, xazrati Alining maxr bermasdan Fotimaga ko'shilishlariga rozi bo'lmaganlar.

Yana ma'naviy merosimizga murojaat kiladigan bo'lsak, Abu Rayxon Beruniy o'zining "Xindiston" asarida shunday yozadi: «Ey kizim. Sen o'rgangan uyingdan ketib, notanish xonadonga tushmokdasan, sen bo'lajak kuyovning hamma hislatlarini bilmaysan. Sen yer bo'lsang, u osmon bo'ladi. Demak, sen u bilan shunday yo'l tut, uning oldida yer kabi kamtar bo'lsang, u osmon kabi olijanob bo'ladi. Osmon shifoli yomgiri bilan yerni ko'kartirgani kabi u ham o'z mexri bilan seni xushnud etadi. Ering sendan fakat yumshok va shirin so'zlar eshitsin, yaramaydigan yoki eski libosda, sochlaring tartibga solinmagan xolda uning oldida o'tirma... Yaxshisi sen u bilan xush muomalada, shirin so'zli bo'lg'in... bu ishing har kanday sexr-jodudan yaxshidir. Suvdan tez-tez foydalangin. O'zingga xushbo'y narsalar bilan oro ber. Pokizalik hamisha yo'ldoshing bo'lsin...»

Beruniyning bu pandu nasixatlari o'ninchi asrga tegishli bo'lishiga karamay, ular xozirgi kunda ham oila kurish oldida turgan har bir kiz uchun baxtli turmush kurish kaliti bo'lib xizmat kilishi shubxasizdir.

Ota-ona farzandlari nigoxida eng buyuk kishilardir. Shuning uchun ular farzandlari oldida eng yaxshi sifatleri bilangina obro' kozonishlari mumkin. Insoniy fazilatlar soxibi bo'lgan ota-ona o'z farzandlari tomonidan bir umr e'zozlanadi.

Bolalarni barkamol inson kilib yetishtirishda maktabni oila bilan boglamasdan, muvaffakiyatga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun maktab ota-onalar o'rtasida ta'lim-tarbiyaga oid ishlarni kengaytirishi lozim. Ota-onalarning o'kituvchilar bilan bo'lgan uchrashuvida aytgan fikrlari ayniksa, ota-onalar uchun kimmatlidir, chunki ular o'z farzandlari to'grisida ko'prok narsalarni bilib oladilar. Shunday ekan, bola tarbiyasining tub moxiyatini unutgan har bir ota-ona oila bilan maktab o'rtasidagi hamkorlikni mustaxkamlashga intiladilar.

Bola maktabga kirib, to uni tamomlab chikkunga kadar ota-ona maktab bilan yakin aloka o'rnatishi, farzandining o'zlashtirishi, xulk-atvoridan hamisha xabardor bo'lishi tarbiya masalalari bo'yicha o'kituvchi, sinf raxbari bilan maslaxatlashib, uni darsdan so'ng bolani nima bilan mashgulligidan xabardor kilishi lozim. U o'z navbatida o'kituvchi ham bolaning o'kishi, odobi, xulki, maktabda o'zini tuta bilishi haqidagi ma'lumotlarni ota-onaga yetkazishi, zaruriyat tugilganda hosil bo'lgan muammolarni birgalikda xal kilishi zarur. Shundagina o'kuvchi oldiga bir xil talab ko'yilishiga erishiladi. Bolasi maktabga borgan ota-ona shu jamoaning a'zosiga aylanadi. Shu sababli ota-onalar maktabning ijtimoiy xayotida faol katnashishlari shart. O'kituvchi ham o'z o'kuvchisining oilasi bilan mustaxkam hamkorlikni yo'lga ko'ymogi lozim.

Ota-onalarning mahalla faollari, mexnat faxriylari bilan tarbiya soxasida hamkorlik kilishlari juda muximdir. Bu ishlar oila tarbiyasiga salmokli hissa ko'shadi. Komil farzand tarbiyalash uchun oila, maktab va jamoatchilik, (mahalla)ning hamkorligi talab kilinadi.

Xulosa kilib aytish mumkinki, hozirgi iktisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida oilaviy tarbiya masalalariga e'tibor yanada kuchayib, dolzarb mavzuga aylanmokda.

3.O'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini kamol toptirishning psixologik- pedagogik asoslari. O'z-o'zini baholash - o'z-o'zini tarbiyalashning muhim mezonidir. O'z-o'zini tarbiyalash omillari va mexanizmlariga esa, quyidagilar kiradi:

n o'z-o'zi bilan muloqot (o'zini konkret tarbiya ob'ekti sifatida idrok etish va o'zi bilan muloqotni tashkil etish sifatida);

n o'z-o'zini ishonitirish (o'z imkoniyatlari, kuchi va irodasiga ishonish orqali, ijobiy xulq normalariga bo'ysundirish);

n o'z-o'ziga buyruq berish (tig'iz va ekstremal holatlarda o'zini qo'lga olish va maqbul yo'lga o'zini chorlay olish sifati);

n o'z-o'ziga ta'sir yoki autosuggestiya (ijtimoiy normalardan kelib chiqqan xolda o'zida ma'qul ustanovkalarni shakllantirish);

n ichki intizom - o'z-o'zini boshqarishning muhim mezon, har doim har erda o'zining barcha harakatlarini muntazam ravishda korrektsiya qilish va boshqarish uchun zarur sifat.

Yuqoridagi o'z-o'zini boshqarish mexanizmlari orasida psixologik nuqtai nazardan o'z- o'zi bilan amalga oshiriladigan **ichki dialog** alohida o'rin tutadi. O'z-o'zi bilan dialog - oddiy til bilan aytganda, o'zi bilan o'zi gaplashishdir. Aslida bu qobiliyat bizning boshqalar bilan amalga oshiradigan tashqi dialoglarimiz asosida rivojlanadi, lekin aynan ichki dialog muhim regulativ rol o'ynaydi. E. Klimov bunday dialogning uch bosqichini ko'rsatib o'tadi.

Demak, shaxsning qanday sifatlarga ega ekanligi, undagi baholarning ob'ektivligiga bog'liq tarzda o'z-o'zi bilan muloqotga kirishib, jadvaldagiga muvofiq shaxs o'zini nazorat qila oladi. Shuning uchun ham hayotda shunday kishilar uchraydiki, katta majlisda ishi tanqidga uchrasa ham, o'ziga xolis baho berib, kerakli to'g'ri xulosalar chiqara oladi, shunday odamlar ham borki, arzimagan hatolik uchun o'z «ich-etini eb tashlaydi». Bu o'sha ichki dialogning har kimda har xil ekanligidan darak beruvchi faktlardir.

Savol va topshiriqlar

1.Tarbiyaning mazmuni va asosiy yo'nalishlari.

2.Oilaviy hayot sohasi tarbiya muhiti sifatida.

3.O'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini kamol toptirishning psixologik- pedagogik asoslari